IJRO.GOV.UZ tizimi orqali ERI bilan tasdiqlangan, Hujjat kodi: TC43022619

ILG5739

“Özmetkombınat” AJ

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHGA OID ASOSIY TUSHUNCHALAR, QONUNCHILIK HUJJATLARIDAGI NORMALAR VA TALABLAR

Bekobod – 2026y.

Mundarija

JISMONIY VA YURIDIK SHAXSLARNING MUROJAATLARI TO‘G‘RISIDA.....3

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH TO‘G‘RISIDA.....17

MANFAATLAR TO‘QNASHUVI TO‘G‘RISIDA 33

DAVLAT FUQAROLIK XIZMATI TO‘G‘RISIDA.....46

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING AYRIM QONUN HUJJATLARIGA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHGA, KORRUPSIYAGA OID JINOYATLAR UCHUN JAVOBGARLIK MUQARRARLIGINI TA’MINLASHGA QARATILGAN QO‘SHIMCHA VA O‘ZGARTIRISHLAR KIRITISH TO‘G‘RISIDA 65

KORRUPSIYAGA OID HUQUQBUZARLIK HAQIDA XABAR BERGAN YOKI KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHGA BOSHQA TARZDA KO‘MAKLASHGAN SHAXSLARNI RAG‘BATLANTIRISH TARTIBI TO‘G‘RISIDA NIZOM 78

DAVLAT ORGANLARI VA TASHKILOTLARI FAOLIYATIDA KORRUPSIYAGA OID XAVF-XATARLARNI ANIQLASH VA BAHOLASH USLUBIYOTINI TASDIQLASH TO‘G‘RISIDA .83

DAVLAT ORGANI YOKI TASHKILOTIDA MEHNAT SHARTNOMASI TUGATILGAN YOKI XIZMATDAN BO‘SHATILGAN XODIMNI O‘ZI NAZORATNI AMALGA OSHIRGAN TASHKILOTLARGA ISHGA QABUL QILISHDA KOMPLAYENS VA KORRUPSIYAGA QARSHI ICHKI NAZORAT TUZILMASIDAN XULOSA OLISH TARTIBI TO‘G‘RISIDAGI NIZOM 92

ILG5739

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

“JISMONIY VA YURIDIK SHAXSLARNING MUROJAATLARI TO‘G‘RISIDA”GI O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNIGA O‘ZGARTISH VA QO‘SHIMCHALAR KIRITISH HAQIDA

Qonunchilik palatasi tomonidan 2017-yil 15-avgustda qabul qilingan
Senat tomonidan 2017-yil 24-avgustda ma’qullangan

1-modda. O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 3-dekabrda qabul qilingan “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-378-sonli Qonuniga (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2014-yil, № 12, 340-modda) o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritilib, uning yangi tahriri tasdiqlansin (ilova qilinadi).

2-modda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin;

davlat boshqaruvi organlari ushbu Qonunga zid bo‘lgan o‘z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko‘rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta’minlasin;

ushbu Qonunning ijrosini, ijrochilarga yetkazilishini hamda mohiyati va ahamiyati aholi o‘rtasida tushuntirilishini ta’minlasin.

3-modda. Ushbu Qonun rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2017-yil 11-sentabr,
O‘RQ-445-son

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida

(yangi tahriri)

1-bob. Umumiy qoidalar

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi va qo‘llanilish sohasi

Ushbu Qonunning maqsadi davlat organlari va davlat muassasalariga (bundan buyon matnda davlat organlari deb yuritiladi), shuningdek ularning mansabdor shaxslariga jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari (bundan buyon matnda murojaatlar deb yuritiladi) sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Ushbu Qonunning amal qilishi davlat ishtirokidagi tashkilotlarga va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga (bundan buyon matnda tashkilotlar deb yuritiladi) nisbatan ham tatbiq etiladi.

Ushbu Qonunning amal qilishi:

ko‘rib chiqish tartibi ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi, fuqarolik protsessual, jinoyat-protsessual, jinoyat-ijroiya, iqtisodiy protsessual qonunchilik va boshqa qonun hujjatlari bilan belgilangan murojaatlarga;

davlat organlarining, shuningdek ular tarkibiy bo‘linmalarining o‘zaro yozishmalariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

2-modda. Murojaatlar to‘g‘risidagi qonunchilik

Murojaatlar to‘g‘risidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

3-modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

ariza — huquqlarni, erkinliklarni va qonuniy manfaatlarni amalga oshirishda yordam ko‘rsatish to‘g‘risidagi iltimos bayon etilgan murojaat;

taklif — davlat va jamiyat faoliyatini takomillashtirishga doir tavsiyalarni o‘z ichiga olgan murojaat;

shikoyat — buzilgan huquqlarni, erkinliklarni tiklash va qonuniy manfaatlarni himoya qilish to‘g‘risidagi talab bayon etilgan murojaat;

elektron murojaat — belgilangan tartibda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida berilgan, shu jumladan davlat organining, tashkilotning rasmiy veb-saytiga joylashtirilgan murojaat, real vaqt rejimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda berilgan og‘zaki murojaatlar bundan mustasno;

takroriy murojaat — ayni bir jismoniy yoki yuridik shaxsdan kelib tushgan, uning avvalgi murojaati yuzasidan qabul qilingan qaror ustidan shikoyat qilinayotgan yoki boshqacha tarzda norozilik bildirilayotgan, shuningdek, agar takroriy murojaat kelib tushgan paytga kelib qonunchilikda belgilangan ko‘rib chiqish muddati tugagan bo‘lsa, ilgarigi murojaati o‘z vaqtida ko‘rib chiqilmaganligi to‘g‘risida xabar qilinayotgan murojaat;

anonim murojaat — jismoniy shaxsning familiyasi (ismi, otasining ismi), uning yashash joyi to‘g‘risidagi ma’lumotlar yoki yuridik shaxsning to‘liq nomi, uning joylashgan yeri (pochta manzili) to‘g‘risidagi ma’lumotlar ko‘rsatilmagan yoxud ular haqida yolg‘on ma’lumotlar ko‘rsatilgan murojaat, shuningdek uni identifikatsiya qilish imkoniyatini bermaydigan elektron murojaat yoxud imzo bilan tasdiqlanmagan yozma murojaat;

murojaatning dublikati — ayni bir jismoniy yoki yuridik shaxs murojaatining ko‘chirma nusxasi;

ommaviy qabul — davlat organi rahbarining yoki bu borada vakolat berilgan mansabdor shaxsining jismoniy shaxslar va yuridik shaxslarning vakillari bilan ommaviy uchrashuvlarida murojaatlarni qabul qilishga doir harakati;

videokonferensaloqa — uzoqda joylashgan bir nechta abonentlarning real vaqt rejimida audio- va videoaxborot almashish imkoniyati bilan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda interaktiv hamkorlik qilishi;

davlat ishtirokidagi tashkilot — ustav fondida davlat ulushi mavjud bo‘lgan tijorat tashkiloti yoxud to‘liq yoki qisman davlat organi tomonidan tashkil etilgan yoki ta’sis etilgan notijorat tashkiloti;

ishonch telefoni — jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini qabul qilish uchun mo‘ljallangan maxsus telefon aloqa tizimi.

4-modda. Murojaatlarni ko‘rib chiqishning asosiy prinsiplari

Murojaatlarni ko‘rib chiqishning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

qonuniylik;

murojaatlarni o‘z vaqtida va to‘liq ko‘rib chiqish;

murojaatlarga nisbatan talablarning bir xilligi;

jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishi;

murojaatlarni ko‘rib chiqishda byurokratizm va sansalorlikka yo‘l qo‘yilmasligi;

murojaatlarni ko‘rib chiqishda davlat organlari, tashkilotlar va ular mansabdor shaxslari faoliyatining shaffofligi.

5-modda. Murojaatlarning shakllari va turlari

Murojaatlar og‘zaki, yozma yoxud elektron shaklda bo‘lishi mumkin.

Arizalar, takliflar va shikoyatlar murojaatlarning turlari hisoblanadi.

Murojaatlar, ularning shakli va turidan qat’i nazar, bir xil ahamiyatga ega bo‘ladi.

6-modda. Murojaatlarga qo‘yiladigan talablar

Jismoniy shaxsning murojaatida jismoniy shaxsning familiyasi (ismi, otasining ismi), uning yashash joyi to‘g‘risidagi ma’lumotlar ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak.

Yuridik shaxsning murojaatida yuridik shaxsning to‘liq nomi, uning joylashgan yeri (pochta manzili) to‘g‘risidagi ma’lumotlar ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak.

Jismoniy va yuridik shaxsning murojaatida davlat organining, tashkilotning aniq nomi, murojaat yuborilayotgan mansabdor shaxsning lavozimi va (yoki) familiyasi (ismi, otasining ismi) ko‘rsatilgan, shuningdek murojaatning mohiyati bayon etilgan bo‘lishi kerak.

Murojaatlarda murojaat etuvchilarning elektron pochta manzili, aloqa telefonlari va fakslari raqamlari ko‘rsatilishi mumkin.

Murojaatlar davlat tilida va boshqa tillarda berilishi mumkin.

Yozma murojaat murojaat etuvchi jismoniy shaxsning imzosi yoki murojaat etuvchi yuridik shaxs vakolatli shaxsining imzosi bilan tasdiqlangan bo‘lishi lozim. Jismoniy shaxsning yozma murojaatini murojaat etuvchining imzosi bilan tasdiqlash imkoni bo‘lmagan taqdirda, bu murojaat uni yozib bergan shaxsning imzosi bilan tasdiqlanib, uning familiyasi (ismi, otasining ismi) ham qo‘shimcha ravishda yozib qo‘yilishi kerak.

Murojaat etuvchilarning vakillari orqali berilgan murojaatlarga ularning vakolatlarini tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinadi.

7-modda. Murojaatlar va ommaviy axborot vositalari

Ommaviy axborot vositalari tahririyatlaridan kelib tushgan murojaatlar ushbu Qonunda nazarda tutilgan tartibda va muddatlarda ko‘rib chiqiladi.

Ommaviy axborot vositalariga yo‘llangan murojaatlardan ommaviy axborot vositalari to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq jamoatchilik fikrini o‘rganish va aks ettirish uchun foydalanilishi mumkin.

8-modda. Jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qilish

Davlat organlarida, tashkilotlarda, shuningdek ularning mansabdor shaxslari tomonidan jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qilish tashkil etiladi.

Jismoniy shaxslarning va yuridik shaxslar vakillarining shaxsiy qabulini o‘tkazuvchi davlat organlarining, tashkilotlarning rahbarlari yoki boshqa mansabdor shaxslari har qanday masalalar, shu jumladan o‘z vakolatlariga kirmaydigan masalalar bo‘yicha murojaat etilganda qabulni rad etishga haqli emas, ushbu moddaning uchinchi qismida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qilish, agar ularning shunday xususiyatga ega bo‘lgan avvalgi murojaati bo‘yicha qaror qabul qilingan va bu haqda ularga ushbu Qonunda belgilangan tartibda xabar qilingan bo‘lsa, rad etilishi mumkin.

9-modda. Jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qilish tartibi

Jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qilish davlat organining, tashkilotning rahbari yoki boshqa mansabdor shaxsi tomonidan amalga oshiriladi. Buning uchun davlat organlarida, tashkilotlarda maxsus tarkibiy bo‘linmalar tashkil etilishi mumkin, qabul uchun mas’ul bo‘lgan mansabdor shaxslar belgilanadi.

Davlat organlarining rahbarlari yoki bu borada vakolat berilgan boshqa mansabdor shaxslari tomonidan jismoniy shaxslarning va yuridik shaxslar vakillarining sayyor shaxsiy qabullari, shuningdek ommaviy qabullar tashkil etilishi mumkin.

Jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qilish belgilangan kun va soatlarda, qabul qilish jadvaliga muvofiq o‘tkaziladi.

Qabul qilish jadvali va uni o‘tkazish vaqti, joyi hamda qabulga oldindan yozilish to‘g‘risidagi axborot, qabul qilish tartibi ularni davlat organlarining rasmiy veb-saytlarida e’lon qilish, shuningdek ularning ma’muriy binosida hamma kirishi mumkin bo‘lgan joylardagi stendlarga yoki boshqa texnik vositalarga joylashtirish orqali manfaatdor shaxslar e’tiboriga yetkaziladi.

Jismoniy shaxslarning va yuridik shaxslar vakillarining sayyor shaxsiy qabullari, shuningdek ommaviy qabullar, zarur bo‘lgan hollarda, qabul qilish jadvallaridan tashqari o‘tkazilishi mumkin. Ommaviy qabul hovlilarga (kvartiralarga), boshqa binolarga va joylarga birma-bir kirib chiqish orqali ham o‘tkazilishi mumkin.

Agar qabul davomida bayon etilgan masalalarni hal etish davlat organining, tashkilotning yoki ular mansabdor shaxsining vakolatlariga kirmasa, tegishli mansabdor shaxslar murojaat etuvchiga murojaatda bayon etilgan masalalarni hal etish uchun qaysi organga yoki tashkilotga murojaat qilish lozimligini tushuntirishi kerak.

Shaxsiy qabul davomida davlat organi, tashkilot rahbarining qaroriga ko‘ra va murojaat etuvchiga bu haqda xabar bergan holda maxsus texnika vositalari (audio- va videoyozuv, shuningdek fotosuratga olish) qo‘llanilishi mumkin.

Jismoniy shaxs og‘zaki murojaat etayotganda o‘z shaxsini tasdiqlovchi hujjatni, yuridik shaxsning vakili esa o‘z vakolatlarini tasdiqlaydigan va o‘z shaxsini tasdiqlovchi hujjatni ko‘rsatishi kerak, ommaviy qabul vaqtida kelib tushgan murojaatlar bundan mustasno.

Og‘zaki murojaatlar real vaqt rejimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda, shu jumladan davlat organlarining, tashkilotlarning ishonch, tezkor aloqa telefonlari orqali va videokonferensaloqa vositasida ham berilishi mumkin.

Bunda ishonch telefoni orqali kelib tushadigan murojaatlarni markazlashtirilgan holda qabul qilish hamda ularni ishlovdan o‘tkazish maqsadida davlat organlari va tashkilotlarida kerakli texnik resurslarga ega bo‘lgan bo‘linmalar (koll-markazlar) faoliyati yo‘lga qo‘yilishi mumkin.

Videokonferensaloqa vositasida qabul qilish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

2-bob. Xalq qabulxonalari va virtual qabulxonalar

10-modda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari va Virtual qabulxonasi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari va Virtual qabulxonasi davlat organlari, tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslari tomonidan murojaatlarning samarali ko‘rib chiqilishini tashkil etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tuziladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari tizimini quyidagilar tashkil etadi:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonasi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi Xalq qabulxonalari;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tumanlar va shaharlardagi (tumanga bo‘ysunuvchi shaharlardan tashqari) Xalq qabulxonalari.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi kelib tushayotgan murojaatlarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida qabul qilish, to‘plash, tasniflash va tizimlashtirish, shuningdek ularning to‘liq, o‘z vaqtida hamda sifatli ko‘rib chiqilishi ustidan monitoring va nazoratni amalga oshirish imkonini beruvchi axborot tizimi hisoblanadi.

11-modda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Xalq qabulxonalarining va Virtual qabulxonasining asosiy vazifalari

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Xalq qabulxonalarining va Virtual qabulxonasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

aholi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqotni tashkil etish, ularning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini to‘laqonli himoya qilishga qaratilgan, murojaatlar bilan ishlashning samarali tizimi faoliyatini ta’minlash;

murojaat qilishga oid konstitutsiyaviy huquqning so‘zsiz amalga oshirilishi uchun sharoitlar yaratish;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalariga va Virtual qabulxonasiga kelib tushgan murojaatlarning to‘liq, xolisona va o‘z vaqtida ko‘rib chiqilishini tashkil etish;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalariga va Virtual qabulxonasiga kelib tushgan hamda tegishliligi bo‘yicha davlat organlariga, tashkilotlarga yuborilgan murojaatlarning ko‘rib chiqilishi ustidan tizimli monitoring va nazoratni amalga oshirish;

jismoniy shaxslarning va yuridik shaxslar vakillarining qabullarini o‘tkazish, shu jumladan videokonferensaloqa vositasida o‘tkazish;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalariga va Virtual qabulxonasiga kelib tushayotgan murojaatlarni qayd etish, umumlashtirish, tizimlashtirish, ularni ko‘rib chiqish ustidan monitoring va nazorat qilish bo‘yicha elektron axborot tizimini joriy etish hamda yuritish orqali murojaatlar bilan ishlashda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish.

12-modda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Xalq qabulxonalarining huquq va majburiyatlari

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari quyidagi huquqlarga ega:

davlat organlari, tashkilotlar bilan hamkorlikni amalga oshirish, ulardan o‘z vakolatiga kiruvchi masalalar yuzasidan hujjatlarni va axborotni so‘rash hamda olish;

zarur hollarda, murojaatlarni ko‘rib chiqish natijalari yuzasidan qabul qilingan qarorlarning ijrosini joylarga chiqib o‘rganish;

murojaatlarni ko‘rib chiqish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida davlat organlariga,tashkilotlarga takliflar kiritish;

murojaatlarni ko‘rib chiqish tartibi va muddatlarini buzgan, shuningdek murojaatlarni ko‘rib chiqish natijalari yuzasidan qabul qilingan qarorlarning ijrosini ta’minlamagan shaxslarni javobgarlikka tortish bo‘yicha takliflar kiritish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari:

ushbu Qonun talablariga rioya etishi;

murojaatlar bilan ishlashda mavjud axborot tizimidan foydalanishi;

axborot xavfsizligi talablariga rioya etishi;

o‘z dasturiy-apparat vositalarining uzluksiz ishlashini ta’minlashi;

navbatda turishning elektron boshqaruvi tizimi samarali ishlashini va ma’muriy jihatdan boshqarilishini, murojaat etuvchilarning soni ularning toifalari va tegishli sohalar bo‘yicha muayyan davr uchun (kun, hafta, oy) lozim darajada hisobga olinishini ta’minlashi shart.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari zimmasida qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

13-modda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi tomonidan murojaatlarga doir masalalar bo‘yicha real vaqt rejimida maslahatlar berish

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi negizida turli tarmoqlar va faoliyat sohalaridan malakali mutaxassislarni maslahatchilar sifatida jalb etgan holda, murojaatlarga doir masalalar bo‘yicha jismoniy va yuridik shaxslarga real vaqt rejimida maslahat berish amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi negizida real vaqt rejimida maslahat berish, bir tomondan, maslahatchilar o‘rtasida, shuningdek boshqa tomondan, o‘zini qiziqtiradigan masala yuzasidan tezkor tartibda axborot olish istagida bo‘lgan jismoniy va yuridik shaxslar o‘rtasida axborot ayirboshlash yo‘li bilan ta’minlanadi.

14-modda. Davlat organlarining, tashkilotlarning va ular mansabdor shaxslarining virtual qabulxonalarini tashkil etish

Aholi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqotni tashkil etish, murojaatlarning ko‘rib chiqilishi ustidan tizimli monitoring va nazoratni amalga oshirish, shuningdek murojaatlar bilan ishlashda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish maqsadida davlat organlari, tashkilotlar va ular mansabdor shaxslari o‘z virtual qabulxonalarini tashkil etishi mumkin.

Virtual qabulxonalar qaysi davlat organi,tashkilot yoki ularning qaysi mansabdor shaxslari tomonidan tuzilgan bo‘lsa, o‘sha davlat organi, tashkilot yoki ularning mansabdor shaxslari nomidan faoliyat ko‘rsatadi.

3-bob. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaat etish huquqlari kafolatlari

15-modda. Murojaat etish huquqini amalga oshirish kafolatlari

Jismoniy va yuridik shaxslarga davlat organlariga, tashkilotlarga va ularning mansabdor shaxslariga yakka tartibda yoki jamoa bo‘lib murojaat etish huquqi kafolatlanadi.

Murojaat etish huquqi ixtiyoriy amalga oshiriladi. Hech kim biron-bir murojaatni himoya qilishga yoxud unga qarshi qaratilgan harakatlarda ishtirok etishga majbur qilinishi mumkin emas.

Murojaat etish huquqining amalga oshirilishi boshqa jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlarini, erkinliklarini hamda qonuniy manfaatlarini, shuningdek jamiyat va davlat manfaatlarini buzmasligi kerak.

Xorijiy davlatlarning jismoniy va yuridik shaxslari, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar O‘zbekiston Respublikasi davlat organlariga, tashkilotlariga va ularning mansabdor shaxslariga ushbu Qonunga muvofiq murojaat etish huquqiga ega.

16-modda. Murojaat etish huquqidan foydalanilayotganda kamsitishga yo‘l qo‘yilmasligi

Murojaat etish huquqidan foydalanilayotganda jismoniy shaxsning jinsi, irqi, millati, tili, dini, e’tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeyiga, shuningdek yuridik shaxslarning mulk shakli, joylashgan yeri (pochta manzili), tashkiliy-huquqiy shakllariga va boshqa holatlariga qarab kamsitishga yo‘l qo‘yilmaydi.

17-modda. Murojaat etilganda huquqlar, erkinliklar va qonuniy manfaatlarga rioya etilishining kafolatlari

Davlat organlari, tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslari murojaatlarni ko‘rib chiqishda O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi hamda qonunlari talablariga rioya etishi, ularning to‘liq, xolisona va o‘z vaqtida ko‘rib chiqilishi uchun choralar ko‘rishi, jismoniy va yuridik shaxslarning buzilgan huquqlari, erkinliklari tiklanishini hamda qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta’minlash bo‘yicha o‘z vakolatlari doirasida choralar ko‘rishi shart.

18-modda. Murojaatlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish kafolatlari

Murojaatlar davlat organlari, tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslari tomonidan qabul qilinishi va ko‘rib chiqilishi shart, ushbu Qonunning 29 va 30-moddalarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

19-modda. Murojaatlar munosabati bilan ayon bo‘lib qolgan ma’lumotlarning oshkor etilmasligi kafolatlari

Murojaatlarni ko‘rib chiqishda jismoniy shaxslarning shaxsiy hayoti, yuridik shaxslarning faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlar ularning roziligisiz, shuningdek davlat sirini yoxud qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi ma’lumotlarning va, agar bu jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini kamsitadigan bo‘lsa, boshqa axborotning davlat organlari, tashkilotlar xodimlari va ular mansabdor shaxslari tomonidan oshkor etilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Jismoniy va yuridik shaxs to‘g‘risidagi, murojaatga taalluqli bo‘lmagan ma’lumotlarni aniqlashga yo‘l qo‘yilmaydi.

Jismoniy shaxsning iltimosiga ko‘ra uning shaxsiga doir biron-bir ma’lumot oshkor etilmasligi kerak.

20-modda. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari munosabati bilan ular xavfsizligining kafolatlari

Jismoniy shaxsni, uning vakilini, ularning oila a’zolarini, yuridik shaxsni, uning vakilini va yuridik shaxs vakilining oila a’zolarini ular o‘z huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ro‘yobga chiqarish yoki himoya qilish maqsadida davlat organlariga, tashkilotlarga va ularning mansabdor shaxslariga murojaat etganligi, shuningdek murojaatlarda o‘z fikrini bildirganligi va tanqid qilganligi munosabati bilan ta’qib etish man etiladi.

4-bob. Murojaatlarni berish va ularni ko‘rib chiqish tartibi

21-modda. Murojaatlarni berish tartibi

Murojaatlar ularda qo‘yilgan masalalarni hal etish o‘z vakolati doirasiga kiradigan davlat organiga, tashkilotga yoki ularning mansabdor shaxsiga bevosita yoxud bo‘ysunuv tartibida yuqori turuvchi organga beriladi.

Jismoniy va yuridik shaxslar murojaatni mustaqil ravishda berishga, shuningdek bu boradagi vakolatni o‘z vakiliga berishga yoxud murojaatni pochta aloqasi vositalari orqali yoki elektron shaklda yuborishga haqli. Voyaga yetmaganlar, muomalaga layoqatsiz va muomala layoqati cheklangan shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab murojaatlar ularning qonuniy vakillari tomonidan qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda berilishi mumkin.

Murojaatga u bo‘yicha ilgari qabul qilingan mavjud qarorlar yoki ularning ko‘chirma nusxalari, shuningdek uni ko‘rib chiqish uchun zarur bo‘lgan boshqa hujjatlar ilova qilinishi mumkin, mazkur hujjatlar qaytarilmaydi, murojaat etuvchi ularni qaytarish haqida yozma ariza bergan hollar bundan mustasno. Ko‘rsatib o‘tilgan hujjatlar murojaat taalluqliligi bo‘yicha boshqa davlat organiga, tashkilotga yoki ularning mansabdor shaxsiga yuborilganda murojaatga ilova qilinishi kerak.

Murojaat pochta aloqa vositasi orqali konvertda kelib tushganda konvertda murojaat va unga ilovalar mavjudligi tekshiriladi. Konvertda murojaat mavjud bo‘lmasa yoki u shikastlangan bo‘lsa, shuningdek murojaatda ko‘rsatilgan ilovalar mavjud bo‘lmasa, dalolatnoma tuzilib, uning bir nusxasi murojaat etuvchiga konvertda ko‘rsatilgan manzil bo‘yicha yuboriladi.

22-modda. Murojaatlarni berish muddatlari

Murojaatlarni berish muddatlari, qoida tariqasida, belgilanmaydi. Ayrim hollarda, agar davlat organining, tashkilotning yoki ular mansabdor shaxslarining murojaatni ko‘rib chiqish bo‘yicha imkoniyatlariga, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini o‘z vaqtida amalga oshirish va himoya qilishni ta’minlash zaruratiga bog‘liq bo‘lsa, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa asoslarga ko‘ra murojaatni berish muddati belgilanishi mumkin.

Bo‘ysunuv tartibida yuqori turuvchi organga ariza yoki shikoyat jismoniy yoki yuridik shaxsga uning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini buzuvchi harakat (harakatsizlik) sodir etilganligi yoxud qaror qabul qilinganligi ma’lum bo‘lgan paytdan e’tiboran uzog‘i bilan bir yildan kechiktirmay beriladi.

Ariza yoki shikoyat berishning uzrli sababga ko‘ra o‘tkazib yuborilgan muddati arizani yoki shikoyatni ko‘rib chiquvchi davlat organi, tashkilot yoki ularning vakolat berilgan mansabdor shaxsi tomonidan tiklanadi.

23-modda. Murojaatlar bo‘yicha ish yuritish

Davlat organi, tashkilot yoki ularning mansabdor shaxsiga kelib tushgan murojaat o‘sha kunning o‘zida, ish vaqti tugaganidan keyin kelib tushgan taqdirda esa, keyingi ish kuni ro‘yxatdan o‘tkazilishi kerak.

Murojaatni ro‘yxatdan o‘tkazishni rad etishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Davlat organlarida, tashkilotlarda murojaatlarni ro‘yxatdan o‘tkazish daftari yuritilib, unda murojaatning tartib raqami va kelib tushgan sanasi, murojaat etuvchi jismoniy shaxsning familiyasi (ismi, otasining ismi), yuridik shaxsning nomi, murojaatning qisqacha mazmuni, ijrosi to‘g‘risidagi belgi, shuningdek boshqa ma’lumotlar ko‘rsatiladi.

Davlat organlari, tashkilotlar murojaatlar bilan ishlashda elektron hujjat aylanishi tizimini joriy etishi mumkin.

Davlat organining rahbariga yoki vakolat berilgan mansabdor shaxsiga ommaviy qabullar vaqtida tushgan va joyida hal etilgan og‘zaki murojaatlarni ro‘yxatdan o‘tkazish talab qilinmaydi. Bunda jismoniy shaxsning yoki yuridik shaxs vakilining familiyasi (ismi, otasining ismi), uning yashash joyi to‘g‘risidagi ma’lumotlar, murojaatning qisqacha mazmuni, shuningdek uni ko‘rib chiqish natijasi ommaviy qabul bayonnomasida ko‘rsatiladi.

Murojaatni ro‘yxatdan o‘tkazish va ko‘rib chiqish bo‘yicha ish yuritish qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

24-modda. Murojaatlarni ko‘rib chiqish tartibi

Davlat organiga, tashkilotga yoki ularning mansabdor shaxslariga kelib tushgan murojaatlar shu organ, tashkilot tomonidan yoki murojaatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha zimmasiga majburiyatlar yuklatilgan mansabdor shaxslar tomonidan ko‘rib chiqiladi.

Davlat organiga, tashkilotga kelib tushgan murojaatlar bo‘ysunuv tartibida quyi turuvchi bo‘linmalarga ham yuborilishi mumkin.

Agar murojaatda davlat organlari, tashkilotlarning bir nechta tarkibiy bo‘linmalariga taalluqli masalalar mavjud bo‘lsa, ularning barchasi murojaatni ko‘rib chiqish bo‘yicha ijrochilar etib belgilanadi. Ijrochilar o‘rtasida birinchi ko‘rsatilgan tarkibiy bo‘linma murojaatning ko‘rib chiqilishini boshqa tarkibiy bo‘linmalar bilan birgalikda ta’minlaydi.

Murojaatni to‘liq, xolisona va o‘z vaqtida ko‘rib chiqish uchun qo‘shimcha ma’lumotlar, ma’lumotnomalar va materiallarga zarurat paydo bo‘lgan taqdirda, mazkur murojaatni ko‘rib chiqayotgan davlat organi, tashkilot yoki ularning mansabdor shaxslari murojaat etuvchidan, shuningdek o‘z vakolatlari doirasida boshqa davlat organlaridan, boshqa tashkilotlardan va mansabdor shaxslardan qo‘shimcha axborotni so‘rab olishi mumkin. Agar axborot davlat sirini yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan bo‘lmasa, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlariga, jamiyat va davlat manfaatlariga zarar yetkazmasa, davlat organlari, tashkilotlar va mansabdor shaxslar o‘zlaridan so‘ralayotgan axborotni o‘n kun ichida taqdim etishi shart.

Murojaatlarni ko‘rib chiqayotgan davlat organi, tashkilot yoki ularning mansabdor shaxslari zarur hollarda, murojaatning joyning o‘ziga borib ko‘rib chiqilishini ta’minlashi mumkin.

Agar murojaatda qo‘yilgan masalalar xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga daxldor bo‘lsa, ularning vakillari murojaatlarni ko‘rib chiqishda ishtirok etish uchun davlat organlari tomonidan o‘z vakolatlari doirasida jalb etiladi.

Agar murojaatni ko‘rib chiqishda xo‘jalik yurituvchi subyektlarning faoliyatini tekshirish, shu jumladan moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini tekshirish (taftish qilish) zarurati yuzaga kelsa, tekshirish qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi.

24[1]-modda. Voyaga yetmagan shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqishning o‘ziga xos xususiyatlari

Voyaga yetmagan shaxslar o‘z huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishi masalalari yuzasidan davlat organlariga, tashkilotlarga yoki ularning mansabdor shaxslariga ushbu Qonunda belgilangan tartibda mustaqil ravishda murojaat berishga haqli. Davlat organlari, tashkilotlar yoki ularning mansabdor shaxslari tomonidan voyaga yetmagan shaxsning murojaatlarini ko‘rib chiqish uning qonuniy vakillari, shuningdek vasiylik va homiylik organlari ishtirokida amalga oshirilishi mumkin. Voyaga yetmagan shaxslar to‘liq muomala layoqatiga ega bo‘lmaganligi sababli ularning murojaatlarini ko‘rib chiqmasdan qoldirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Murojaatda qo‘yilgan masalalarni hal etish o‘z vakolatiga kirmaydigan davlat organlari, tashkilotlar, shuningdek ularning mansabdor shaxslari murojaatni tegishli davlat organiga, boshqa tashkilotga yoki mansabdor shaxsga yoxud vasiylik va homiylik organiga yuborishi shart.

25-modda. Ayrim murojaatlarni ko‘rib chiqish tartibi

Takroriy murojaatlar umumiy asoslarda ko‘rib chiqiladi, ushbu Qonunning 30-moddasida ko‘rsatilgan hollar bundan mustasno.

Qo‘yilgan masalalarni hal etish o‘zining vakolati doirasiga kirmaydigan davlat organiga, tashkilotga yoki ularning mansabdor shaxslariga kelib tushgan murojaatlar besh kunlik muddatdan kechiktirmay tegishli organlarga, boshqa tashkilotlarga va mansabdor shaxslarga yuborilib, bu haqda murojaat etuvchiga yozma yoxud elektron shaklda xabar qilinadi. Bunda kelib tushgan elektron murojaat elektron shaklda yuborilishi mumkin.

Murojaatlarni ko‘rib chiqish uchun asossiz ravishda boshqa davlat organlariga, tashkilotlarga o‘tkazish yoxud qarorlari yoki harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilinayotgan organlarga, tashkilotlarga yoki mansabdor shaxslarga yuborish taqiqlanadi.

Agar murojaatlarda ularni tegishli davlat organlariga, tashkilotlarga yoki mansabdor shaxslarga yuborish uchun zarur ma’lumotlar mavjud bo‘lmasa, bu murojaatlar murojaat etuvchiga besh kunlik muddatdan kechiktirmay asoslantirilgan tushuntirish bilan qaytariladi.

Agar murojaatni ko‘rib chiqish davomida murojaatning dublikati kelib tushsa, mazkur murojaat avval kelib tushgan murojaat bilan birgalikda ko‘rib chiqiladi.

Agar murojaatning dublikati murojaat ko‘rib chiqilganidan va javob yuborilganidan keyin kelib tushsa, bu haqda davlat organi, tashkilot yoki ularning mansabdor shaxslari murojaat etuvchini tegishli tartibda xabardor qiladi.

Murojaatlarning turlariga kiritilmagan xatlarni (tashakkurnomalar, tabriknomalar, taklifnomalar, fikr-mulohazalarni) ko‘rib chiqish davlat organlari, tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslari tomonidan ularning o‘z ixtiyoriga ko‘ra amalga oshiriladi.

26-modda. Murojaat etuvchini eshitish

Murojaatni ko‘rib chiqayotgan davlat organi, boshqa tashkilot yoki ularning mansabdor shaxslari o‘z tashabbusiga ko‘ra yoxud murojaat etuvchining iltimosiga ko‘ra uni eshitishni tashkil etishi mumkin.

Davlat organi, tashkilot yoki ularning mansabdor shaxslari murojaat etuvchiga murojaatda ko‘tarilgan masalalar bo‘yicha o‘z fikrini bildirish va murojaat bo‘yicha qo‘shimcha axborot taqdim etish imkoniyatini beradi. Davlat organi, tashkilot yoki ularning mansabdor

shaxslari murojaat etuvchini eshitishga ekspertlarni, mutaxassislarni va manfaatdor tashkilotlarning vakillarini jalb etishi mumkin.

27-modda. Murojaatlarga javoblar

Murojaatlarni ko‘rib chiqish natijalariga ko‘ra davlat organi, tashkilot yoki ularning mansabdor shaxslari tomonidan qaror qabul qilinadi, bu haqda murojaat qiluvchiga darhol yozma yoki elektron shaklda xabar qilinadi.

Murojaatga javobni davlat organining, tashkilotning rahbari yoki ularning mansabdor shaxsi imzolaydi.

Jamoaviy murojaatlarga javob, agar murojaatda javobni boshqa shaxsga yuborish talab etilmagan bo‘lsa, murojaat qiluvchilarning ro‘yxatida birinchi ko‘rsatilgan shaxsga yuboriladi.

Murojaat, agar unda qo‘yilgan barcha masalalar ushbu Qonun talablariga muvofiq ko‘rib chiqilgan va murojaat qiluvchiga tegishli javob yuborilgan taqdirda, ko‘rib chiqilgan hisoblanadi.

Murojaatlarga javoblar mumkin qadar murojaat etilgan tilda bayon qilinadi, javoblar murojaatda ko‘rsatilgan har bir masala bo‘yicha vajlarni inkor etuvchi yoki tasdiqlovchi aniq asoslarni (zaruratga qarab qonunchilik hujjatlari normalariga havolalar qilingan holda) o‘z ichiga olgan bo‘lishi kerak.

Ommaviy qabullar vaqtida davlat organining rahbariga yoki vakolat berilgan boshqa mansabdor shaxsiga kelib tushgan hamda joyida hal etilgan og‘zaki murojaatlarga, shuningdek xotin-qizlarga va bolalarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik holatlari bo‘yicha murojaatchining javob xati yubormaslik haqidagi talabi mavjud bo‘lgan murojaatlarga yozma javob yoki elektron shakldagi javob talab etilmaydi.

28-modda. Murojaatlarni ko‘rib chiqish muddatlari

Ariza yoki shikoyat masalani mazmunan hal etishi shart bo‘lgan davlat organiga, tashkilotga yoki ularning mansabdor shaxsiga kelib tushgan kundan e’tiboran o‘n besh kun ichida, qo‘shimcha o‘rganish va (yoki) tekshirish, qo‘shimcha hujjatlarni so‘rab olish talab etilganda esa, bir oygacha bo‘lgan muddatda ko‘rib chiqiladi.

Ariza va shikoyatlarni ko‘rib chiqish uchun tekshirish o‘tkazish, qo‘shimcha materiallarni so‘rab olish yoxud boshqa chora-tadbirlar ko‘rish zarur bo‘lgan hollarda, ularni ko‘rib chiqish muddatlari tegishli davlat organining, tashkilotning rahbari tomonidan istisno tariqasida uzog‘i bilan bir oyga uzaytirilishi mumkin, bu haqda murojaat etuvchiga xabar qilinadi.

Taklif davlat organiga, tashkilotga yoki ularning mansabdor shaxsiga kelib tushgan kundan e’tiboran bir oygacha bo‘lgan muddatda ko‘rib chiqiladi, qo‘shimcha o‘rganishni talab etadigan takliflar bundan mustasno bo‘lib, bu haqda taklifni kiritgan jismoniy yoki yuridik shaxsga o‘n kunlik muddatda yozma shaklda xabar qilinadi.

29-modda. Murojaatlarni ko‘rmay qoldirish

Quyidagi murojaatlar ko‘rib chiqilmaydi:

anonim murojaatlar;

jismoniy va yuridik shaxslarning vakillari orqali berilgan murojaatlar, ularning vakolatini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo‘lmagan taqdirda;

mazkur Qonunda belgilangan boshqa talablarga muvofiq bo‘lmagan murojaatlar.

Murojaatlar ko‘rmay qoldirilganda tegishli xulosa tuziladi, u davlat organining, tashkilotning rahbari yoki ularning vakolat berilgan mansabdor shaxsi tomonidan tasdiqlanadi.

Jismoniy va yuridik shaxs vakilining vakolatini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud emasligi sababli murojaatlar ko‘rmay qoldirilganligi to‘g‘risida murojaat qiluvchi tegishli tartibda xabardor qilinadi.

30-modda. Murojaatlarni ko‘rib chiqishni tugatish

Murojaatlarni ko‘rib chiqish quyidagi hollarda tugatiladi:

agar takroriy murojaatlarda yangi vajlar yoki yangidan ochilgan holatlar keltirilmagan bo‘lsa, ilgarigi murojaat materiallarida esa tekshiruvlarning to‘la-to‘kis materiallari mavjud bo‘lsa va murojaat qiluvchiga belgilangan tartibda javoblar berilgan bo‘lsa;

agar murojaat qiluvchi o‘z murojaatini belgilangan tartibda chaqirib olgan bo‘lsa yoki uni ko‘rib chiqishni tugatish to‘g‘risida iltimos qilgan bo‘lsa;

yashash joyi, turgan joyi (pochta manzili), elektron pochta manzili yoki boshqa rekvizitlari o‘zgarganligi to‘g‘risida o‘z vaqtida xabardor qilmaganligi tufayli chaqirishning imkoni yo‘qligi sababli murojaatni murojaat qiluvchining ishtirokisiz ko‘rib chiqish imkoniyati bo‘lmaganda;

murojaatni murojaat qiluvchining ishtirokisiz ko‘rib chiqish imkoniyati mavjud emasligi sababli, davlat organi, tashkilot yoki ularning mansabdor shaxsi tomonidan chaqirilgan murojaat qiluvchi kelmay qolgan taqdirda;

agar murojaat qiluvchi jismoniy shaxs vafot etganidan so‘ng murojaatni ko‘rib chiqish huquqiy vorislikka yo‘l qo‘ymasa.

Murojaatni ko‘rib chiqishni tugatish to‘g‘risidagi qarorni davlat organining, tashkilotning rahbari yoki ularning vakolat berilgan mansabdor shaxsi qabul qiladi.

Takroriy murojaatni ko‘rib chiqish ushbu modda birinchi qismining ikkinchi xatboshisiga muvofiq tugatilganda, murojaat qiluvchi takroriy murojaatning asossizligi va ushbu masala yuzasidan u bilan yozishmalar tugatilishi to‘g‘risida yozma ravishda xabardor qilinadi. Yozishmalar olib borish tugatilgan murojaat qiluvchidan takroriy murojaat kelib tushgan taqdirda, bunday murojaatni ko‘rib chiqish murojaat qiluvchini bu haqda xabardor qilmasdan tugatiladi.

Murojaatni ko‘rib chiqish uni chaqirib olish to‘g‘risidagi ariza bo‘yicha tugatilganda murojaat murojaat qiluvchiga davlat organining, tashkilotning yoki ular mansabdor shaxsining xati bilan birga uch kun ichida qaytariladi. Murojaatni chaqirib olish to‘g‘risidagi ariza qonun buzilishlarini aniqlash va bartaraf etish yuzasidan chora-tadbirlar ko‘rilishini istisno etmaydi.

Murojaat qiluvchi chaqirilgan jismoniy shaxsning yoki yuridik shaxs vakilining kelmay qolganligi sababli murojaatni ko‘rib chiqishni tugatish to‘g‘risida tegishli tartibda xabardor qilinadi.

31-modda. Murojaatga javobni tushuntirish va uni tuzatish

Jismoniy yoki yuridik shaxsning iltimosiga ko‘ra murojaatni ko‘rib chiqqan davlat organi, tashkilot va ularning mansabdor shaxslari murojaatga javobni uning mazmunini o‘zgartirmasdan tushuntirishi, shuningdek yo‘l qo‘yilgan xatolar va arifmetik xatolarni o‘z tashabbusiga ko‘ra yoki murojaat qiluvchining iltimosiga ko‘ra, murojaatga javobning mazmuniga daxl qilmagan holda tuzatishi shart.

Murojaat qiluvchining murojaatga javobni tushuntirish va uni tuzatish to‘g‘risidagi iltimosi u kelib tushgan kundan e’tiboran o‘n kun ichida ko‘rib chiqiladi.

5-bob. Murojaatlarni ko‘rib chiqishda jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, davlat organlarining, tashkilotlarning va ular mansabdor shaxslarining huquqlari va majburiyatlari

32-modda. Murojaatlarni ko‘rib chiqishda jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari

Murojaatlar davlat organlari, tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslari tomonidan ko‘rib chiqilayotganda jismoniy va yuridik shaxslar quyidagi huquqlarga ega:

murojaatni ko‘rib chiqishning borishi to‘g‘risida axborot olish;

vajlarni shaxsan bayon etish va tushuntirishlar berish;

murojaatni tekshirish materiallari va uni ko‘rib chiqish natijalari bilan tanishish;

qo‘shimcha materiallar taqdim etish yoki bunday materiallarni boshqa organlardan talab qilib olish to‘g‘risida iltimos qilish;

advokat yordamidan foydalanish;

murojaatni ko‘rib chiqishni tugatish to‘g‘risida yoxud murojaatga javobni tushuntirish va (yoki) uni tuzatish to‘g‘risida iltimos qilish;

o‘z murojaatini u ko‘rib chiqilguniga qadar va ko‘rib chiqilayotgan paytda murojaat bo‘yicha qaror qabul qilinguniga qadar yozma yoki elektron shaklda ariza berish yo‘li bilan chaqirib olish;

murojaatni qabul qilishni yoki ko‘rib chiqishni qonunga xilof ravishda rad etganlik ustidan bo‘ysunuv tartibida yuqori turuvchi organga yoki bevosita sudga shikoyat qilish.

Jismoniy va yuridik shaxslar qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

33-modda. Murojaatlarni ko‘rib chiqishda davlat organining, tashkilotning va ular mansabdor shaxslarining huquqlari va majburiyatlari

Murojaatlarni ko‘rib chiqishda davlat organi, tashkilot va ularning mansabdor shaxslari quyidagi huquqlarga ega:

murojaatni ko‘rib chiqish uchun zarur bo‘lgan axborotni belgilangan tartibda so‘rash va olish;

murojaat qiluvchi yoki boshqa shaxs yo‘qligida murojaatni ko‘rib chiqish mumkin bo‘lmaganda yoxud murojaatni eshitish uchun uni chaqirish;

bila turib yolg‘on ma’lumotlar ko‘rsatilgan murojaatni tekshirish sababli yetkazilgan xarajatlarning o‘rnini qoplash to‘g‘risida sudga murojaat qilish.

Davlat organi, tashkilot va ularning mansabdor shaxslari qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

Davlat organi, tashkilot va ularning mansabdor shaxslari:

murojaatlar to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga rioya etishi;

murojaat qiluvchiga uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga daxldor hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishib chiqish imkoniyatini, agar ular davlat siri yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sir bo‘lgan ma’lumotlarni o‘z ichiga olmasa, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga, jamiyat va davlat manfaatlariga zarar yetkazmasa, ta’minlashi;

murojaat etuvchiga ko‘rib chiqish natijalari hamda qabul qilingan qaror haqida murojaat ko‘rib chiqilganidan so‘ng yozma yoxud elektron shaklda darhol xabar qilishi, ommaviy qabullar vaqtida tushgan va joyida hal qilingan og‘zaki murojaatlar bundan mustasno;

murojaat yuzasidan qabul qilingan qaror ustidan, agar jismoniy yoki yuridik shaxs ushbu qarorga rozi bo‘lmasa, shikoyat berish tartibini tushuntirishi;

murojaatni ko‘rib chiqish natijalariga ko‘ra qabul qilingan qarorning ijrosini nazorat qilishi;

qonunga xilof harakatlarni (harakatsizlikni) bartaraf etish yuzasidan darhol chora-tadbirlar ko‘rishi, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilishini keltirib chiqaruvchi sabablar va sharoitlarni o‘z vakolatlari doirasida aniqlashi;

jismoniy shaxs, uning vakili, ularning oila a’zolari, yuridik shaxs, uning vakili va yuridik shaxs vakilining oila a’zolari ularning murojaatlari sababli ta’qib etilishini belgilangan tartibda bartaraf etishi;

agar jismoniy yoki yuridik shaxsga uning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlari buzilishi natijasida moddiy zarar yoki ma’naviy ziyon yetkazilgan bo‘lsa, qonunda belgilangan tartibda moddiy zararning o‘rnini qoplash yoki ma’naviy ziyonni kompensatsiya qilish choralarini ko‘rishi shart.

Davlat organlari murojaatlar bilan ish olib boruvchi o‘z xodimlarini o‘qitadi va uch yilda kamida bir marta ularning malakasini oshiradi. Davlat organlarining murojaatlar bilan ish olib boruvchi xodimlariga nisbatan qo‘yiladigan talablar, shuningdek ularni o‘qitish va malakasini oshirish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Davlat organi, tashkilot va ular mansabdor shaxslarining zimmasida qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

34-modda. Murojaatlarning ko‘rib chiqilishini monitoring va nazorat qilish

Davlat organlarining, tashkilotlarning rahbarlari yoki vakolat berilgan boshqa mansabdor shaxslari o‘z tuzilmaviy bo‘linmalari tomonidan murojaatlarning ko‘rib chiqilishi ustidan doimiy monitoring va nazoratni amalga oshiradi, ularning to‘liq, xolisona va o‘z vaqtida ko‘rib chiqilishini ta’minlash choralarini ko‘radi.

Murojaat u qaysi rahbar yoki vakolat berilgan boshqa mansabdor shaxs tomonidan nazoratga olingan bo‘lsa, o‘sha shaxs tomonidan nazoratdan va ijrodan olinadi.

Oraliq javoblar berilgan va to‘liq ko‘rib chiqilmagan murojaatlar nazoratdan olinmaydi.

35-modda. Murojaatlarni umumlashtirish va tahlil qilish

Davlat organlari, tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslari kelib tushgan murojaatlarning statistik hisobini yuritadi. Statistik hisobga olishda kelib tushgan, ko‘rib chiqilgan, qanoatlantirilgan, qanoatlantirish rad etilgan, ko‘rmay qoldirilgan murojaatlarning soni, shuningdek murojaatlar bilan ishlashga bog‘liq bo‘lgan boshqa ma’lumotlar nazarda tutilishi kerak.

Davlat organlari, tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslari har chorakda murojaatlarni umumlashtiradi va tahlil qiladi.

Davlat organlari murojaatlarni umumlashtirish va tahlil qilish natijalariga ko‘ra ma’lumotnomalar (sharhlar) tuzadi, ularda murojaatlar bilan ishlashning umumiy ko‘rsatkichlari, murojaatlarda tez-tez ko‘tarilgan masalalar, murojaatlarni ko‘rib chiqish yakunlari bo‘yicha aniqlangan asosiy kamchiliklar va qoida buzarliklar, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari, shuningdek jamiyat va davlat manfaatlari buzilishini keltirib chiqaruvchi sabablarni bartaraf etish maqsadida ko‘rilgan chora-tadbirlar aks ettiriladi.

Murojaatlarni umumlashtirish va tahlil qilish natijalariga ko‘ra tuzilgan ma’lumotnomalar (sharhlar) tegishli davlat organlarining rasmiy veb-saytlarida e’lon qilinadi.

6-bob. Yakunlovchi qoidalar

36-modda. Nizolarni hal etish

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari sohasidagi nizolar qonunchilikda belgilangan tartibda hal etiladi.

37-modda. Moddiy zararning o‘rnini qoplash va ma’naviy ziyonni kompensatsiya qilish

Jismoniy yoki yuridik shaxsning arizasi, shikoyati ana shu murojaatlar bo‘yicha qonunga xilof qarorlar qabul qilgan davlat organi, tashkilot va ularning mansabdor shaxslari tomonidan qanoatlantirilgan taqdirda, ariza yoki shikoyat berish va uni ko‘rib chiqish bilan bog‘liq zararning o‘rni, arizani, shikoyatni ko‘rib chiqish uchun tegishli davlat organining, tashkilotning, shuningdek ular mansabdor shaxslarining talabiga ko‘ra joylarga borish munosabati bilan qilingan xarajatlarning hamda ana shu vaqt ichida yo‘qotilgan ish haqining o‘rni murojaat etuvchiga sud tartibida qoplanadi. Sud tartibida ma’naviy ziyon ham kompensatsiya qilinishi mumkin.

Jismoniy yoki yuridik shaxsning arizasini yoxud shikoyatini ko‘rib chiqishda qonun talablari buzilganligi munosabati bilan unga yetkazilgan moddiy zararning o‘rnini qoplash va ma’naviy ziyonni kompensatsiya qilish sifatida davlat organi, tashkilot tomonidan to‘langan mablag‘lar aybdor shaxsdan regress tartibida undirib olinishi mumkin.

38-modda. Murojaatlar to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik

Murojaatlar to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlik, xuddi shuningdek tuhmat va haqoratdan iborat murojaat berganlik belgilangan tartibda javobgarlikka sabab bo‘ladi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH TO‘G‘RISIDA

Qonunchilik palatasi tomonidan 2016-yil 24-noyabrda qabul qilingan
Senat tomonidan 2016-yil 13-dekabrda ma’qullangan

1-bob. Umumiy qoidalar

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi

Ushbu Qonunning maqsadi korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

2-modda. Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonunchilik

Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonunchilikda nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.

3-modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

korrupsiya — shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;

korrupsiyaga oid huquqbuzarlik — korrupsiya alomatlariga ega bo‘lgan, sodir etilganligi uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

manfaatlar to‘qnashuvi — shaxsning shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorligi uning o‘z lavozim yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir ko‘rsatayotgan yoxud ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari, qonuniy manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan (mavjud manfaatlar to‘qnashuvi) yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan (ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi) vaziyat.

4-modda. Korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari

Korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

qonuniylik;

fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi;

ochiqlik va shaffoflik;

tizimlilik;

davlat va fuqarolik jamiyatining hamkorligi;

korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar ustuvorligi;

javobgarlikning muqarrarligi.

5-modda. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish;

davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish;

korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o‘z vaqtida aniqlash, ularga chek qo‘yish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta’minlash.

6-modda. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlari va boshqa dasturlar

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosati davlat dasturlari va boshqa dasturlar asosida amalga oshirilishi mumkin.

Davlat dasturlari va boshqa dasturlar ushbu Qonunning qoidalari samarali ijro etilishini ta’minlash, korrupsiyaning holati hamda tendensiyalaridan kelib chiqqan holda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha kompleks va tizimli chora-tadbirlar ko‘rish maqsadida ishlab chiqiladi hamda amalga oshiriladi.

2-bob. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar, tashkilotlar hamda tuzilmalar

7-modda. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari va tuzilmalari

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlari va tuzilmalari quyidagilardan iborat:

O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi;

davlat organlari va tashkilotlarining, davlat ishtirokidagi korxonalarning komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari (bundan buyon matnda davlat organlari va tashkilotlarining komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari deb yuritiladi);

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi;

O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati;

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi;

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi;

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni qonunchilikka muvofiq boshqa davlat organlari ham amalga oshiradi.

8-modda. O‘zbekiston Respublikasining Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha milliy kengashi

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlarning faoliyatini huquqiy-uslubiy jihatdan muvofiqlashtirish uchun O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha milliy kengashi (bundan buyon matnda Milliy kengash deb yuritiladi) tashkil etiladi.

Milliy kengash tarkibi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi va Milliy kengash raisidan, raisi o‘rinbosaridan hamda a’zolaridan tashkil topadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining raisi Milliy kengash raisi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Spikerining o‘rinbosari Milliy kengash raisining o‘rinbosari hisoblanadi.

Milliy kengashning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarining va boshqa dasturlarning ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishini tashkil etish;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlarning faoliyatini huquqiy-uslubiy jihatdan muvofiqlashtirish va hamkorligini ta’minlash;

aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga doir chora-tadbirlarning ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishini tashkil etish;

korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olishga, ularni aniqlashga, ularga chek qo‘yishga, ularning oqibatlarini, shuningdek ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga doir chora-tadbirlar samaradorligi oshirilishini ta’minlash;

korrupsiyaning holati va tendensiyalari to‘g‘risidagi axborotni yig‘ish hamda tahlil etish;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirilishi yuzasidan monitoringni amalga oshirish, ushbu sohadagi mavjud tashkiliy-amaliy va huquqiy mexanizmlarning samaradorligini baholash;

korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonunchilikni takomillashtirish va ushbu sohadagi ishlarni yaxshilash yuzasidan takliflar tayyorlash;

hududiy kengashlar faoliyatini muvofiqlashtirish.

O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi Milliy kengashning ishchi organidir.

Kengash faoliyatining asosiy tashkiliy shakli Kengash majlisidir. Kengash o‘z vakolatlari jumlasiga kiradigan masalalarni, qoida tariqasida, har chorakda o‘z majlisida ko‘rib boradi.

Kengash majlisi a’zolarining yarmidan ko‘pi ishtirok etgan taqdirda, vakolatli hisoblanadi.

Kengash majlislarida qabul qilinadigan qarorlarning bajarilishi davlat organlari va tashkilotlari uchun majburiydir.

8[1]-modda. O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi vakolatlari

O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini shakllantirish hamda amalga oshirish, davlat organlarining, ommaviy axborot vositalarining, fuqarolik jamiyati institutlarining va boshqa nodavlat sektor vakillarining birgalikdagi samarali faoliyatini tashkil etish, shuningdek mazkur sohadagi xalqaro hamkorlik bo‘yicha maxsus vakolatli organ hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi o‘z vakolatlari doirasida:

korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini shakllantiradi va amalga oshiradi;

korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning tizimli sabablari va shart-sharoitlarini bartaraf etishga hamda korrupsiyaga qarshi kurashish choralarining samaradorligini oshirishga qaratilgan dasturlarni shakllantirish va amalga oshirishda bevosita ishtirok etadi;

mamlakatdagi korrupsiya holatini tizimli tahlil qiladi, shuningdek korrupsiyaga oid xavf-xatarlar yuqori bo‘lgan sohalarni hamda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etilishining sabablari va shart-sharoitlarini aniqlaydi;

har yili O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida milliy ma’ruza tayyorlaydi hamda uni ko‘rib chiqish uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalariga kiritadi;

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining va Senatining korrupsiyaga qarshi kurashishga daxldor bo‘lgan qo‘mitalari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesining tegishli qo‘mitasi, xalq deputatlari viloyatlar hamda Toshkent shahar, tuman va shahar Kengashlarining korrupsiyaga qarshi kurashish komissiyalari bilan hamkorlik qiladi;

korrupsiyaga oid jinoyatlarni, birinchi navbatda O‘zbekiston Respublikasining milliy manfaatlariga va xalqaro obro‘siga putur yetkazadigan korrupsiyaga oid jinoyatlarni tergov qilish natijalarini kompleks tahlil qiladi, uning yakunlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalariga axborot beradi;

korrupsiyaga oid jinoyatlar tufayli jamiyat va davlat manfaatlariga yetkazilgan zararning o‘rni to‘liq qoplanishiga erishilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasini o‘tkazish tizimi samaradorligini tahlil qiladi, ushbu tizimni takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritadi;

fuqarolik jamiyati institutlari bilan birgalikda korrupsiyaning darajasini, shu jumladan hududlar, iqtisodiyot tarmoqlari va boshqa sohalar kesimidagi darajasini baholovchi Korrupsiyani idrok etish milliy indeksini tuzishni tashkil etadi;

davlat xaridlari sohasida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish maqsadida davlat buyurtmachisining ISO: 37001 korrupsiyaga qarshi standartni qo‘llashini nazarda tutuvchi talabni belgilaydi;

joylarda korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan hududiy dasturlar ishlab chiqilishi va amalga oshirilishini tashkil etadi;

korrupsiya holatlariga doir materiallarni qonunchilikda belgilangan tartibda ommaviy axborot vositalariga taqdim etadi;

vazirliklar va idoralarning korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini tahliliy va huquqiy-uslubiy jihatdan muvofiqlashtiradi, davlat organlarining, ommaviy axborot vositalarining, fuqarolik jamiyati institutlarining hamda boshqa nodavlat sektor vakillarining ushbu masalalar bo‘yicha samarali hamkorligini tashkil etadi;

ijro hokimiyati va xo‘jalik boshqaruvi organlari hamda ularning mansabdor shaxslari qarorlarida korrupsiya belgilari aniqlangan hollarda ularning ijrosini to‘xtatish yoki bekor qilish to‘g‘risida ko‘rib chiqilishi majburiy bo‘lgan taqdimnomalar kiritadi;

korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan tadbirlarga fuqarolik jamiyati institutlarining vakillarini faol jalb etish uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi, korrupsiyaning oldini olish, unga qarshi kurashish va jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish bo‘yicha ular bilan ijtimoiy sheriklik dasturlarini ishlab chiqadi hamda birgalikda amalga oshiradi;

aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga doir chora-tadbirlarni ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi;

korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish masalalariga oid axborotni tarqatish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘qitishni tashkil etish orqali jamiyatda korrupsiyaning barcha ko‘rinishlariga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

davlat organlari va tashkilotlarining komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari samarali faoliyat ko‘rsatishini hamda korrupsiyaga qarshi kurashishga doir boshqa vositalar joriy etilishini monitoring qilib boradi;

davlat xizmatiga halollik standartlarini joriy etishga hamda manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish va uni bartaraf etishga ko‘maklashadi, davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta’minlash choralarini ko‘radi;

davlat xizmatchilarining daromadlari va mol-mulkini, shuningdek manfaatlar to‘qnashuvini deklaratsiyalash tizimini ishlab chiqadi hamda uning samarali ishlashini tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

8^2-modda. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha hududiy kengashlari

Qoraqalpog‘iston Respublikasida, viloyatlarda va Toshkent shahrida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha hududiy kengashlar (bundan buyon matnda hududiy kengashlar deb yuritiladi) tashkil etiladi.

Hududiy kengashlar davlat organlari va tashkilotlarining hududiy tuzilmalari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari deputatlaridan, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari vakillaridan iborat tarkibda Milliy kengash qarori bilan tasdiqlanadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi Raisi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari raislari hududiy kengashlarning raislari hisoblanadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari kotibiyatlari tegishli hududiy kengashlarning ishchi organidir.

Hududiy kengashlarning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarining va boshqa dasturlarning joylarda amalga oshirilishini tashkil etish;

davlat organlari va tashkilotlari hududiy tuzilmalarining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatini huquqiy-uslubiy jihatdan muvofiqlashtirish va ularning hamkorligini ta’minlash;

davlat organlari va tashkilotlari hududiy tuzilmalari rahbarlarining korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish borasida amalga oshirilayotgan ishlar holati hamda kelgusida rejalashtirilgan chora-tadbirlar yuzasidan axborotini eshitish;

hududda aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga doir chora-tadbirlarning ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishini ta’minlash;

korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar holati, muayyan bir soha yoki hudud bo‘yicha korrupsiyaga qarshi kurashishga doir chora-tadbirlar dasturini aholining korrupsiyani idrok etish darajasidan kelib chiqqan holda ishlab chiqish va amalga oshirish;

hududdagi korrupsiyaga oid xavf-xatar yuqori bo‘lgan obyektlarda korrupsiyaviy omillarni xalq deputatlari mahalliy Kengashlari deputatlaridan, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlarining, nazorat qiluvchi organlarning, fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining va boshqa tashkilotlarning vakillaridan iborat tarkibda ishchi guruhlar tuzgan holda o‘rganish va bartaraf etish choralarini ko‘rish;

korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan vazifalarning ijrosini ta’minlashda sustkashlik va mas’uliyatsizlikka yo‘l qo‘ygan mansabdor shaxslarga nisbatan tegishli choralar ko‘rish bo‘yicha takliflar kiritish;

korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonunchilikni takomillashtirish, ushbu sohadagi ishlarni yaxshilash yuzasidan takliflar tayyorlash va Milliy kengashga kiritish.

Hududiy kengash faoliyatining asosiy tashkiliy shakli uning majlisidir. Hududiy kengash o‘z vakolatlari jumlasiga kiradigan masalalarni, qoida tariqasida, har chorakda o‘z majlisida ko‘rib boradi.

Hududiy kengash majlisi a’zolarning yarmidan ko‘pi ishtirok etgan taqdirda, vakolatli deb hisoblanadi.

Hududiy kengash majlislarida qabul qilinadigan qarorlarning bajarilishi hududdagi davlat organlari va tashkilotlari uchun majburiydir.

8^3-modda. Davlat organlari va tashkilotlarining komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari

Davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiya holatlariga hamda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga qarshi kurashish sohasidagi huquqni muhofaza qilishga doir ayrim vazifalarga ega bo‘lgan lavozim, xizmat va (yoki) bo‘linmadan iborat komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari qonunchilikda belgilangan tartibda tashkil etiladi.

Davlat organlari va tashkilotlarining komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari:

davlat organi va tashkiloti tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki siyosat amalga oshirilishi hamda ushbu sohadagi faoliyat muvofiqlashtirilishida bevosita ishtirok etadi;

davlat organi va tashkiloti faoliyatida korrupsiya holatlarining oldini olishga qaratilgan samarali mexanizmlar hamda nazorat tizimi joriy etilishini ta’minlaydi;

davlat organi va tashkiloti tizimida qonunga rioya etish, unga nisbatan hurmat ruhini mustahkamlash, korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabat muhitini yaratish va bu borada aholining ijobiy fikrini shakllantirish choralarini ko‘radi;

davlat organi va tashkiloti tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish vazifasini amalga oshiruvchi, budjet mablag‘lari aylanmasini nazorat qiluvchi bo‘linmalarning hamda shaxsiy xavfsizlik bo‘linmalarining faoliyatini muvofiqlashtiradi;

korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni tizimli tahlil qilish va baholash, bartaraf etish va ularning oldini olish bo‘yicha zarur choralarni ishlab chiqadi hamda ularning ijrosini tashkil etadi;

davlat organi va tashkiloti tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni takomillashtirib borish choralarini ko‘radi;

davlat organi va tashkiloti faoliyatida shaffoflikni ta’minlash, affillanganlik hamda manfaatlar to‘qnashuvi holatlarining oldini olishga qaratilgan korrupsiyaga qarshi nazorat tizimini amalga oshiradi;

davlat organi va tashkilotida korrupsiya holatlari hamda ularning oldini olish yuzasidan belgilangan tartibda tekshiruvlar o‘tkazilishini hamda qat’iy javobgarlik choralari ko‘rilishini tashkil etadi;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi hamda unda ishtirok etuvchi davlat organlari va tashkilotlari bilan hamkorlik qiladi.

Davlat organlari va tashkilotlarining komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari qonunchilikka muvofiq boshqa vazifalarni ham amalga oshiradi.

Davlat organlari va tashkilotlarining komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirishda quyidagi huquqlarga ega:

davlat organi va tashkiloti tizimidagi o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan axborot hamda ma’lumotlar bazalaridan foydalanish;

davlat organi va tashkilotida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning sodir etilishiga imkon yaratuvchi sabablar hamda shart-sharoitlarni bartaraf etish choralarini ko‘rish;

davlat organi va tashkiloti tizimida korrupsiyaga qarshi choralarni hamda nazorat tadbirlarini mustaqil yoki ishchi guruh tuzgan holda tashkil etish;

korrupsiyaga qarshi kurashish borasida tezkor-qidiruv, tergovga qadar tekshiruv va tergov organlari bilan hamkorlik qilish, ularni belgilangan tartibda jalb etish choralarini ko‘rish;

korrupsiyaviy omillarni aniqlash, ularning oldini olish va korrupsiya holatlariga chek qo‘yish maqsadida shaxslarning xatti-harakatlarini, hodisalarni hamda jarayonlarni bevosita yoki bilvosita kuzatish va qayd etish;

o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish uchun davlat organlaridan va boshqa tashkilotlardan, fuqarolardan ma’lumotlarni hamda boshqa zarur hujjatlarni va materiallarni so‘rash va olish;

vakolatini amalga oshirish doirasida zarurat tug‘ilganda tegishli hujjat va materiallar bilan tanishish maqsadida davlat organi va tashkilotining obyektlariga to‘sqinliksiz kirish;

davlat organi va tashkiloti tizimida aniqlangan korrupsiya holatlari bo‘yicha yuqori turuvchi komplayens xizmatlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri mustaqil ravishda xabardor qilish;

davlat organi va tashkiloti tizimida korrupsiya holatlarini aniqlash hamda ularga chek qo‘yish maqsadida muayyan shaxslar bilan belgilangan tartibda nooshkora hamkorlik o‘rnatish;

davlat organi va tashkiloti tizimida aniqlangan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik faktlari bo‘yicha to‘plangan materiallarni qonuniy chora ko‘rish uchun tegishli huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yoki bevosita ularning komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalariga taqdim etish;

davlat organi va tashkiloti tizimida qonun buzilishi hollarining oldini olish bo‘yicha ko‘rib chiqilishi majburiy bo‘lgan ko‘rsatmalar va ushbu hollarni bartaraf etish yuzasidan taqdimnomalar kiritish.

Davlat organlari va tashkilotlarining komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari qonunchilikda belgilangan boshqa huquqlarga ham ega bo‘ladi.

Davlat organi va tashkiloti birinchi rahbarlarining korrupsiyaga oid huquqbuzarliklari alomatlari aniqlanganda yoki jinoiy guruh faoliyatiga rahnamolik qilayotgan deb hisoblash uchun yetarli asoslar mavjud bo‘lganda ularning komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘yicha o‘rinbosari yuqori turuvchi komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat xizmati

bilan kelishgan holda tegishli hujjatlar va ma’lumotlarni huquqni muhofaza qiluvchi organlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri taqdim etish, shuningdek kadrlar masalasi va moliyaviy xarajatlar bo‘yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish huquqini vaqtincha to‘xtatish yoki tegishli rahbarni yoxud xodimni vazifasini bajarishdan vaqtincha chetlatish borasida taklif kiritish vakolatiga ega bo‘ladi.

Davlat organlari va tashkilotlarining komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining Komplayens xizmati muvofiqlashtirib boradi.

9-modda. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi vakolatlari

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi o‘z vakolatlari doirasida:

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonunchilikning aniq va bir xilda ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi tezkor-qidiruv faoliyatini, tergovga qadar tekshiruvni, surishtiruvni, dastlabki tergovni amalga oshiruvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiradi;

korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlar bo‘yicha dastlabki tergovni amalga oshiradi;

korrupsiyaning holati va korrupsiyaga qarshi kurashish natijalari to‘g‘risidagi axborotni yig‘ish hamda tahlil qilishni amalga oshiradi;

jismoniy va yuridik shaxslarning korrupsiya faktlariga doir murojaatlarini ko‘rib chiqadi hamda ularning buzilgan huquqlarini tiklash va qonuniy manfaatlarini himoya qilish choralarini ko‘radi;

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonun ijodkorligi faoliyatida, shu jumladan qonunchilik tashabbusi huquqini amalga oshirishda ishtirok etadi;

aholi o‘rtasida jamiyatda huquqiy ongni, huquqiy madaniyatni yuksaltirishga va qonuniylikni mustahkamlashga qaratilgan huquqiy targ‘ibotga doir faoliyatda ishtirok etadi;

korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning o‘z vaqtida oldi olinishini, aniqlanishini va ularga chek qo‘yilishini ta’minlashga, ularning oqibatlarini, shuningdek ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga doir tadbirlarni ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi boshqa organlar hamda tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi;

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

10-modda. O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmatining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi vakolatlari

O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati o‘z vakolatlari doirasida:

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlar bo‘yicha tezkor-qidiruv faoliyatini, tergovga qadar tekshiruvni va dastlabki tergovni amalga oshiradi;

korrupsiyaning holati va korrupsiyaga qarshi kurashish natijalari to‘g‘risidagi axborotni yig‘adi hamda tahlil qiladi, milliy xavfsizlik uchun tahdidlarni baholashni amalga oshiradi, tegishli davlat organlariga zarur axborotni taqdim etadi;

jismoniy va yuridik shaxslarning korrupsiya faktlariga doir murojaatlarini ko‘rib chiqadi hamda ularning buzilgan huquqlarini tiklash va qonuniy manfaatlarini himoya qilish choralarini ko‘radi;

korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning o‘z vaqtida oldi olinishini, aniqlanishini va ularga chek qo‘yilishini ta’minlashga, ularning oqibatlarini, shuningdek ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga doir tadbirlarni ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi boshqa organlar hamda tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi;

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

11-modda. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi vakolatlari

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi o‘z vakolatlari doirasida:

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlar bo‘yicha tezkor-qidiruv faoliyatini, tergovga qadar tekshiruvni, surishtiruvni va dastlabki tergovni amalga oshiradi;

korrupsiyaning holati va korrupsiyaga qarshi kurashish natijalari to‘g‘risidagi axborotni yig‘adi hamda tahlil qiladi, tegishli davlat organlariga zarur axborotni taqdim etadi;

jismoniy va yuridik shaxslarning korrupsiya faktlariga doir murojaatlarini ko‘rib chiqadi hamda ularning buzilgan huquqlarini tiklash va qonuniy manfaatlarini himoya qilish choralarini ko‘radi;

aholi o‘rtasida jamiyatda huquqiy ongni, huquqiy madaniyatni yuksaltirishga va qonuniylikni mustahkamlashga qaratilgan huquqiy targ‘ibotga doir faoliyatda ishtirok etadi;

korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi statistika ma’lumotlarining hisobi yuritilishini va tahlil qilinishini ta’minlaydi;

korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning o‘z vaqtida oldi olinishini, aniqlanishini va ularga chek qo‘yilishini ta’minlashga, ularning oqibatlarini, shuningdek ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga doir tadbirlarni ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi boshqa organlar hamda tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi;

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

12-modda. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi vakolatlari

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi o‘z vakolatlari doirasida:

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonun ijodkorligi faoliyatida ishtirok etadi;

aholi o‘rtasida jamiyatda huquqiy ongni, huquqiy madaniyatni yuksaltirishga va qonuniylikni mustahkamlashga qaratilgan huquqiy targ‘ibotga doir faoliyatni amalga oshiradi hamda muvofiqlashtiradi;

ta’lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida huquqiy ta’lim va tarbiyaga doir chora-tadbirlarni amalga oshirishda ishtirok etadi;

normativ-huquqiy hujjatlardagi hamda ularning loyihalaridagi korrupsiya uchun shart-sharoitlar yaratadigan qoidalar va normalarni aniqlash maqsadida ushbu hujjatlar va loyihalarning tahlilini amalga oshiradi;

korrupsiyaga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish bo‘yicha choralar ko‘radi;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi boshqa organlar hamda tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi;

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

13-modda. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi vakolatlari

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti o‘z vakolatlari doirasida:

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish bilan bog‘liq jinoyatlar, iqtisodiy va korrupsiya bilan bog‘liq boshqa jinoyatlar bo‘yicha tezkor-qidiruv faoliyatini, tergovga qadar tekshiruvni, surishtiruvni va dastlabki tergovni amalga oshiradi;

jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishning ehtimol tutilgan yo‘llari va mexanizmlarini aniqlash uchun pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog‘liq operatsiyalarning monitoringini tashkil etadi hamda o‘tkazadi;

jinoiy ta’qib etishni tashkil qilish va huquqiy ta’sir ko‘rsatishning boshqa choralarini ko‘rish uchun tegishli davlat organlarini korrupsiyaga oid aniqlangan huquqbuzarliklar to‘g‘risida o‘z vaqtida xabardor qiladi;

korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning o‘z vaqtida oldi olinishini, aniqlanishini va ularga chek qo‘yilishini ta’minlashga, ularning oqibatlarini, shuningdek ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga doir tadbirlarni ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi boshqa organlar hamda tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi;

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

14-modda. Fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining va fuqarolarning korrupsiyaga qarshi kurashishda ishtirok etishi

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolar:

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etishi;

aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishda, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishda ishtirok etishi;

korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonunchilikning ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishi;

korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritishi;

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qilishi mumkin.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolar qonunchilikka muvofiq boshqa tadbirlarda ham ishtirok etishi mumkin.

Nodavlat notijorat tashkilotlari ushbu moddada nazarda tutilgan tadbirlarni amalga oshirish maqsadida Milliy kengash va hududiy kengashlar faoliyatida, shuningdek davlat organlari huzuridagi ishchi guruhlar, komissiyalar va jamoat-maslahat organlari faoliyatida qonunchilikda belgilangan tartibda ishtirok etadi.

15-modda. Ommaviy axborot vositalarining korrupsiyaga qarshi kurashishda ishtirok etishi

Ommaviy axborot vositalari:

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirishga, shu jumladan aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan tadbirlarni yoritadi;

korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonunchilikning ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi;

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi.

Ommaviy axborot vositalari qonunchilikka muvofiq boshqa tadbirlarda ham ishtirok etishi mumkin.

3-bob. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish

16-modda. Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish

Davlat organlari va boshqa tashkilotlar korrupsiyaga qarshi kurashish maqsadida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish bo‘yicha zarur chora-tadbirlar ko‘radi, shu jumladan korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga doir tushuntirish ishlarini amalga oshirish, huquqiy tarbiya va ta’limni, ilmiy-amaliy tadbirlarni tashkil etish, o‘quv-uslubiy va ilmiy adabiyotlarni ishlab chiqish yo‘li bilan zarur chora-tadbirlar ko‘radi.

17-modda. Davlat organlari va boshqa tashkilotlar xodimlarining huquqiy savodxonligini oshirish

Davlat organlari va boshqa tashkilotlar o‘z mansabdor shaxslarining hamda boshqa xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy savodxonligini, shu jumladan huquqiy bilimlari darajasini oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko‘radi.

18-modda. Ta’lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy ta’lim va tarbiya

Ta’lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy ta’lim va tarbiya belgilangan davlat ta’lim standartlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Davlat ta’limni boshqarish organlari va ta’lim muassasalari korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlarini inobatga olgan holda ta’lim muassasalarida huquqiy ta’lim va tarbiyaga, mutaxassislarni kasbiy tayyorlashning sifatini oshirishga, ta’lim dasturlarini doimiy ravishda takomillashtirib borishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqadi.

4-bob. Korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar

19-modda. Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar

Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar quyidagilardan iborat:

davlat organlari faoliyatining ochiqligini va ularning hisobdorligini ta’minlash, davlat boshqaruvi tizimining samaradorligini oshirish, davlat organlarining, ular mansabdor shaxslarining va boshqa xodimlarining o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishi yuzasidan mas’uliyatini kuchaytirish;

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat organlarining faoliyati ustidan parlament va jamoatchilik nazoratini amalga oshirish;

davlat organlarining va ular xodimlarining faoliyatida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga yo‘l qo‘ymaslik;

davlat organlarining mansabdor shaxslari va boshqa xodimlari tomonidan o‘z mansab yoki xizmat majburiyatlarining bajarilishi samaradorligi mezonlarini, standartlarini va uning sifatini baholash tizimlarini joriy etish;

davlat organlari xodimlarining kasbiy hamda xizmatdan tashqari faoliyatdagi odob-axloqining yagona prinsiplari va qoidalarini belgilovchi odob-axloq qoidalarini samarali amalga oshirish;

davlat organlari xodimlari manfaatlarining to‘qnashuvini hal qilishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish, ularga rioya etilishi yuzasidan monitoring o‘tkazilishini ta’minlash;

davlat organlari xodimlarining huquqiy maqomini belgilash, xizmatni o‘tashning shaffof tartibini o‘rnatish, shaxsiy va kasbiy sifatlar, ochiqlik, beg‘arazlik, adolatlilik va xolislik prinsiplari asosida tanlov bo‘yicha saralash hamda xizmatda ko‘tarilish tizimini joriy etish;

davlat organlari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga rioya etilishi, murojaatlarning to‘liq, xolisona va o‘z vaqtida ko‘rib chiqilishi, ular tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning buzilgan huquqlari, erkinliklarini tiklash hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha o‘z vakolatlari doirasida choralar ko‘rilishi ustidan nazoratni ta’minlash;

davlat organlari faoliyatida korrupsiyaning oldini olishga doir tadbirlarning amalga oshirilishi yuzasidan ushbu organlar tomonidan ko‘rilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini baholagan holda muntazam ravishda monitoring o‘tkazish;

normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasini tashkil etish;

davlat organlarida xodimlarning korrupsiyaga qarshi barqarorlik darajasini diagnostikadan o‘tkazish;

davlat organlari va tashkilotlari tomonidan o‘zining korrupsiyaga oid xavf-xatar darajasi yuqori bo‘lgan vazifalari va funksiyalarini aniqlash, korrupsiyaga oid xavf-xatar yuqori bo‘lgan lavozimlar ro‘yxatini shakllantirish hamda korrupsiyaga oid xavf-xatarni bartaraf etish choralarini ko‘rish;

davlat organlarining mansabdor shaxslari va boshqa xodimlarining samarali ijtimoiy himoya qilinishini, moddiy ta’minot olishini va rag‘batlantirilishini ta’minlash.

Qonunchilikda davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir boshqa chora-tadbirlar ham nazarda tutilishi mumkin.

Davlat organlarining va o‘zga tashkilotlarning mansabdor shaxslari hamda boshqa xodimlari qonunchilikka rioya etishi, o‘z mansab yoki xizmat majburiyatlarini beg‘arazlik bilan, xolisona, vijdonan, odob-axloq qoidalariga rioya etgan holda bajarishi hamda korrupsiyaga oid biror-bir huquqbuzarlikni sodir etishdan yoki bunday huquqbuzarliklarni sodir etish uchun shart-sharoitlar yaratadigan boshqa har qanday harakatlardan o‘zini tiyishi shart.

19[1]-modda. Korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni aniqlash va baholash

Davlat organlari va tashkilotlari o‘zining korrupsiyaga oid xavf-xatar darajasi yuqori bo‘lgan vazifalari hamda funksiyalarini aniqlaydi, korrupsiyaga oid xavf-xatar yuqori bo‘lgan lavozimlar ro‘yxatini shakllantiradi va korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni bartaraf etish bo‘yicha aniq va tizimli chora-tadbirlar ishlab chiqadi, shuningdek aniqlangan xavf-xatarlarni minimallashtirish maqsadida majburiy ravishda korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni baholash ishlarini amalga oshiradi. O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni baholash ishlarini amalga oshirishda davlat organlari va tashkilotlari bilan hamkorlik qiladi.

Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatida korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni aniqlash va baholash uslubiyoti O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va Adliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

19[2]-modda. Korrupsiyaga oid xavf-xatarlar xaritasini shakllantirish

Davlat organlari va tashkilotlari, hududlar va sohalar kesimida korrupsiya darajasini aniqlash va uni minimallashtirish maqsadida korrupsiyaga oid xavf-xatarlar xaritasi shakllantiriladi.

Korrupsiyaga oid xavf-xatarlar xaritasi korrupsiyaga oid jinoyatchilik statistikasi, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha huquqni qo‘llash amaliyotining tahlili, aholining korrupsiyaga bo‘lgan munosabati (ijtimoiy so‘rov natijalari), korrupsiyaga qarshi kurashish

bo‘yicha siyosatning samaradorligiga doir ma’lumotlar, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlarning axboroti asosida shakllantiriladi.

Korrupsiyaga oid xavf-xatarlar xaritasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan yuritiladi.

20-modda. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va tadbirkorlik sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va tadbirkorlik sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar quyidagilardan iborat:

ma’muriy va byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish, ro‘yxatga olish, ruxsat etish va litsenziyaga doir tartib-taomillarni soddalashtirish hamda ularning tezkorligini oshirish;

davlat organlarining nazorat-tekshiruv vazifalarini maqbullashtirish, tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini tekshirish tizimini takomillashtirish, ularning faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashishga yo‘l qo‘ymaslik;

davlat organlari va tadbirkorlik subyektlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning masofaviy shakllarini keng joriy etish;

tadbirkorlik faoliyatini olib borish uchun teng shart-sharoitlar yaratish va insofsiz raqobatga yo‘l qo‘ymaslik;

davlat xaridlarining samarali huquqiy mexanizmlarini joriy etish, davlat xaridlarini joylashtirishda oshkoralik, shaffoflikni ta’minlash hamda raqobat muhitini qo‘llab-quvvatlash;

ta’lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy ta’minot, kommunal xizmat ko‘rsatish sohasida va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning boshqa sohalarida aholi uchun adolatli shart-sharoitlarni hamda teng imkoniyatlarni yaratish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga yo‘l qo‘ymaslik;

nodavlat tashkilotlarda korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali mexanizmlarini joriy etish.

Qonunchilikda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va tadbirkorlik sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir boshqa chora-tadbirlar ham nazarda tutilishi mumkin.

21-modda. Manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish va uni bartaraf etishga doir chora-tadbirlar

Davlat organlarining xodimlari mansab yoki xizmat majburiyatlarini bajarish chog‘ida manfaatlar to‘qnashuviga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo‘lgan shaxsiy manfaatdorlikka yo‘l qo‘ymasligi kerak.

Manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelgan taqdirda, davlat organlarining xodimlari o‘zining bevosita rahbarini darhol xabardor qilishi kerak. Manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligi to‘g‘risida ma’lumotlar olgan rahbar bu to‘qnashuvning oldini olish yoki uni bartaraf etish yuzasidan o‘z vaqtida choralar ko‘rishi shart.

Davlat organlarining maxsus bo‘linmalari yoki odob komissiyalari manfaatlar to‘qnashuvini hal etish qoidalariga rioya etilishi yuzasidan monitoringni amalga oshiradi.

Davlat organlarining manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish yoki uni bartaraf etish talablari buzilishiga yo‘l qo‘ygan xodimlari, shuningdek ularning rahbarlari qonunchilikka muvofiq javobgar bo‘ladi.

22-modda. Ma’muriy tartib-taomillar sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar

Ma’muriy tartib-taomillar sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar quyidagilardan iborat:

qonuniylik va adolatlilik prinsiplarini ta’minlash, ma’muriy-boshqaruv jarayonining beg‘arazligi kafolatlarini yaratish, ushbu jarayonning shaffofligini, tashqi va ichki nazorat uchun ochiqligini oshirish;

o‘z ixtiyoricha harakat qilish vakolatlarini cheklagan holda ma’muriy tartib-taomillarni batafsil tartibga solish, byurokratik rasmiyatchilikka yo‘l qo‘ymaslik;

soddalashtirilgan ma’muriy tartib-taomillarni joriy etish;

davlat organlarining qarorlari ustidan shikoyat qilishning va yetkazilgan zarar o‘rnini qoplashning samarali mexanizmlarini belgilash.

Qonunchilikda ma’muriy tartib-taomillar sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir boshqa chora-tadbirlar ham nazarda tutilishi mumkin.

23-modda. Davlat xaridlarini amalga oshirish sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar

Davlat xaridlarini amalga oshirish sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar quyidagilardan iborat:

davlat xaridlarini amalga oshirish tartib-taomillari to‘g‘risidagi axborotning shaffofligi va ochiqligini ta’minlash;

adolatli raqobatni va qarorlar qabul qilish chog‘ida xolisona mezonlardan foydalanilishini ta’minlash;

ichki nazoratning samarali tizimini, shuningdek davlat xaridlarini o‘tkazish natijalari yuzasidan shikoyat qilish va nizolashishning samarali tartib-taomilini yaratish;

davlat elektron savdolarining samarali ishlashini ta’minlash.

Qonunchilikda davlat xaridlarini amalga oshirish sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir boshqa chora-tadbirlar ham nazarda tutilishi mumkin.

24-modda. Normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi

Normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi:

korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etish imkoniyatini yaratadigan, korrupsiyaga sabab bo‘ladigan omillarni aniqlashga;

korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etish imkoniyatini yaratadigan loyihani qabul qilish oqibatlarini umumiy baholashga;

normativ-huquqiy hujjatlarni qo‘llash jarayonida korrupsiya xususiyatiga ega xavflarning yuzaga kelishi ehtimolini prognoz qilishga;

korrupsiyaga sabab bo‘lgan, aniqlangan omillarni bartaraf etishga qaratilgan tavsiyalarni ishlab chiqishga va choralar ko‘rishga yo‘naltirilgan jarayondan iborat bo‘ladi.

Normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi “Normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunida belgilangan tartibda o‘tkaziladi.

5-bob. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni aniqlash, ularga chek qo‘yish, javobgarlikning muqarrarligi

25-modda. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o‘z vaqtida aniqlash va ularga chek qo‘yishga, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta’minlashga doir chora-tadbirlar

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o‘z vaqtida aniqlash va ularga chek qo‘yishga, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta’minlashga doir chora-tadbirlar quyidagilardan iborat:

korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlarining korrupsiyaning holatini va tendensiyalarini tizimli tahlil qilishga asoslangan samarali ishini tashkil etish, ularning faoliyatida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga yo‘l qo‘ymaslik;

korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga qarshi kurashning zamonaviy shakllari va usullaridan foydalanish, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning texnik ta’minoti darajasini oshirish, ularning ishiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

sudlarning mustaqilligi va erkinligini, ular faoliyatining ochiqligini ta’minlash;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlari o‘rtasida muvofiqlashtirishni va hamkorlikni ta’minlash;

jismoniy va yuridik shaxslarning korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar faktlariga doir murojaatlari to‘liq, xolisona va o‘z vaqtida ko‘rib chiqilishini ta’minlash;

korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to‘g‘risida axborot bergan shaxslarning himoya qilinishini ta’minlash;

korrupsiyaga qarshi kurashning samarali jinoyat-huquqiy va jinoyat-protsessual mexanizmlarini yaratish.

26-modda. Davlat organlari xodimlarining korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar faktlari to‘g‘risida xabar qilish majburiyati

Davlat organlarining xodimlari ularni korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etishga ko‘ndirish maqsadida biror-bir shaxs o‘zlariga murojaat etganligiga doir barcha hollar to‘g‘risida, shuningdek davlat organlarining boshqa xodimlari tomonidan sodir etilgan shunga o‘xshash huquqbuzarliklarning o‘zlariga ma’lum bo‘lib qolgan har qanday faktlari haqida o‘z rahbarini yoxud huquqni muhofaza qiluvchi organlarni xabardor etishi shart.

Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan majburiyatning davlat organlarining xodimlari tomonidan bajarilmaganligi qonunchilikka muvofiq javobgarlikka sabab bo‘ladi.

27-modda. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlik

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etganlik qonunchilikka muvofiq javobgarlikka sabab bo‘ladi.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir etgan shaxslar sudning qaroriga ko‘ra muayyan huquqlardan, shu jumladan muayyan lavozimlarni egallash huquqidan qonunga muvofiq mahrum etilishi mumkin.

Yuridik shaxslar korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun qonunda belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik natijasida tuzilgan bitimlarni haqiqiy emas deb topish qonunda belgilangan tartibda, vakolatli davlat organining, manfaatdor shaxsning arizasiga asosan sud tomonidan amalga oshiriladi.

27^1-modda. Korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etishda aybdor deb topilgan shaxslarning elektron reyestri

Korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etishda aybdor deb topilgan shaxslar Korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etishda aybdor deb topilgan shaxslarning elektron reyestriga (bundan buyon matnda elektron reyestr deb yuritiladi) kiritiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etishda aybdor deb topilgan shaxslarga nisbatan ayblov hukmi (ajrim) qonuniy kuchga kirgan paytdan e’tiboran uch ish kuni ichida elektron reyestrga shaxs haqidagi ma’lumotlarni kiritadi.

Elektron reyestrda korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etishda aybdor deb topilgan shaxslar to‘g‘risidagi ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida belgilangan sudlanganlik muddati davomida saqlanadi.

Elektron reyestrga kiritilgan shaxslarga nisbatan quyidagi cheklovlar belgilanadi:

davlat xizmatiga kirish va davlat mukofotlari bilan taqdirlanish;

saylanadigan va alohida tartibda tayinlanadigan lavozimlarga nomzodining ko‘rsatilishi;

davlat organlari huzuridagi jamoatchilik kengashlari hamda idoralararo kollegial organlarning a’zosi bo‘lish;

o‘zi ta’sis etgan va (yoki) ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushining 50 foizidan ko‘proq qismiga o‘zi egalik qiladigan tadbirkorlik subyektlarining davlat xaridlarida va davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi bitimda ishtirokchi (ijrochi) sifatida qatnashish;

davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan tashkilotlarda va davlat ta’lim muassasalarida rahbarlik lavozimlarida faoliyat yuritish.

Elektron reyestr Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi bilan hamkorlikda yuritiladi.

Elektron reyestrdan ma’lumot olish tartibi, korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etishda aybdor deb topilgan shaxslarni Elektron reyestrdan chiqarish asoslari va tartibi, shuningdek davlat organlarining Elektron reyestrni yuritish borasidagi hamkorligi qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

28-modda. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi axborotni xabar qiluvchi shaxslarni va ularning yaqin qarindoshlarini himoya qilish

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi axborotni xabar qiluvchi shaxslar va ularning yaqin qarindoshlari davlat himoyasida bo‘ladi.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to‘g‘risida xabar qiluvchi shaxslar to‘g‘risidagi ma’lumotlar xizmat sirini tashkil etadi hamda faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va shaxsning o‘zining, shuningdek korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi organ rahbarining yozma ruxsati asosida oshkor etiladi.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to‘g‘risida xabar qiluvchi shaxslarning hamda ularning yaqin qarindoshlarining hayotiga va sog‘lig‘iga haqiqiy tahdidni, ularga nisbatan zo‘rlik ishlatilganligini, ularning mol-mulki yo‘q qilinganligini yoki shikastlantirilganligini tasdiqlovchi yetarli asoslar mavjud bo‘lgan taqdirda, korrupsiyaga qarshi kurashishni amalga oshiruvchi organlar “Jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarini himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq ularni himoya qilish bo‘yicha zarur choralar ko‘rishi shart.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi axborotni xabar qiluvchi shaxslarning va ularning yaqin qarindoshlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to‘g‘risida xabar qilganligi sababli tajovuz qilishga, shuningdek ish beruvchi tomonidan ularning mehnatga oid huquqlari buzilishiga yo‘l qo‘yilmaydi hamda bu qonunga ko‘ra javobgarlikka sabab bo‘ladi.

O‘zi mehnat faoliyatini olib borayotgan davlat organida korrupsiyaga oid jinoyat to‘g‘risida asosli xabar bergan shaxsga nisbatan O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligini oldindan xabardor etmagan holda ikki yil davomida intizomiy jazo choralarini qo‘llashga yo‘l qo‘yilmaydi.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to‘g‘risida xabar qiluvchi shaxslarni rag‘batlantirish davlat tomonidan kafolatlanadi.

Rag‘batlantirish bir martalik pul mukofoti, tashakkurnoma, esdalik sovg‘asi shaklida yoki qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa shakllarda amalga oshirilishi mumkin.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to‘g‘risida xabar qiluvchi shaxslarni rag‘batlantirish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Ushbu moddaning qoidalari korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to‘g‘risida bila turib yolg‘on axborotni xabar qilgan shaxslarga nisbatan tatbiq etilmaydi, ular bunday huquqbuzarlik uchun qonunga muvofiq javobgar bo‘ladi.

28[1]-modda. Davlat organlari va tashkilotlari komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari xodimlarining xavfsizlik kafolatlari

Davlat organlari va tashkilotlarining komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari xodimlari davlat himoyasidadir.

Davlat organlari va tashkilotlarining komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari xodimlarining turar joyiga yoki xizmat xonasiga, foydalanadigan transportiga kirish, ularni ko‘zdan kechirish, ularda tintuv o‘tkazish yoki ulardan ashyoni olish, ularning telefondagi so‘zlashuvlarini eshitish, xodimlarni ko‘zdan kechirish va ularni shaxsiy tintuv qilish, shuningdek ularning xat-xabarlarini, ularga tegishli ashyolar va hujjatlarni ko‘zdan kechirish, olib qo‘yish yoxud olish faqat O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining yozma ruxsati bilan, belgilangan tartibda amalga oshirilishi mumkin.

Davlat organlari va tashkilotlarining komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari xodimini, shu jumladan u bilan mehnat shartnomasi tugatilganidan yoki xizmatdan bo‘shatilganidan keyin ikki yil ichida sobiq xodimini guvoh yoki gumon qilinuvchi sifatida so‘roq qilishga, ularga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llashga va ushlab turishga O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori xabardor etilgan holda, belgilangan tartibda yo‘l qo‘yiladi.

Davlat organlari va tashkilotlarining komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari xodimlariga nisbatan jinoyat ishi faqat O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan qo‘zg‘atilishi mumkin.

Davlat organlari va tashkilotlarining komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari xodimlari qonunchilikda belgilangan tartibda huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilinadi.

29-modda. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar natijasida qabul qilingan qarorlarni bekor qilish yoki o‘zgartirish

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar natijasida qabul qilingan qarorlar manfaatdor shaxsning arizasiga ko‘ra vakolatli davlat organi, boshqa tashkilot yoki mansabdor shaxs tomonidan bekor qilinishi yoxud o‘zgartirilishi yoki sud tartibida haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etilganligi natijasida qabul qilingan qaror bekor qilingan, o‘zgartirilgan yoki haqiqiy emas deb topilgan taqdirda, uning qabul qilinishi natijasida jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan zararning o‘rni qonunchilikda belgilangan tartibda qoplanishi lozim.

6-bob. Yakunlovchi qoidalar

30-modda. Korrupsiya sohasidagi tadqiqotlar

Korrupsiyaning holatini, xususiyatini, miqyoslarini, o‘zgarishlarini va tendensiyalarini, shuningdek korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining amalga oshirilish samaradorligini o‘rganish davlat organlari tomonidan fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va boshqa tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari, shuningdek fuqarolar bilan hamkorlikda sotsiologik, maxsus, ilmiy tadqiqotlar hamda boshqa turdagi tadqiqotlar o‘tkazish yo‘li bilan doimiy asosda amalga oshiriladi.

Sotsiologik tadqiqotlar korrupsiyaga eng ko‘p duchor bo‘lgan tarmoqlar va sohalarni, uning yuzaga kelishi sabablari va shart-sharoitlarini aniqlash, shuningdek mazkur faoliyatga jalb etilgan ijtimoiy guruhlarni aniqlash maqsadida sotsiologik so‘rovlar o‘tkazish va boshqa usullardan foydalanish yo‘li bilan jamoatchilik fikrini tizimli o‘rganishni o‘z ichiga oladi.

Maxsus tadqiqotlar huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyati natijalarini, korrupsiyaga oid jinoyatchilikning holatini, korrupsiya ko‘rsatkichlarining statistika hisobini muntazam ravishda tizimli tahlil qilishni, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning xususiyati va miqyoslarini, o‘zgarishlari va tendensiyalarini o‘rganishni o‘z ichiga oladi.

Ilmiy tadqiqotlar korrupsiyaga qarshi kurashish muammolari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar o‘tkazishni, ilmiy uslubiyotlar va tavsiyalar ishlab chiqishni, ularni amaliyotga oqilona joriy etishni, korrupsiyaga qarshi kurashishda qo‘llanilayotgan shakllar va usullar samaradorligini prognoz qilish hamda ilmiy tahlil etishni o‘z ichiga oladi.

Davlat korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlaydi va rag‘batlantiradi.

31-modda. Axborot olish

Har kim davlat organlarining tashkil etilishi va faoliyat ko‘rsatishi to‘g‘risida, shu shaxsning o‘ziga yoki shaxslar guruhiga taalluqli bo‘lgan hujjatlarning qabul qilinish jarayonlari haqida axborot olish huquqiga ega.

Davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va boshqa tashkilotlar korrupsiya bilan bog‘liq bo‘lgan, jamiyat uchun ahamiyatga molik voqealar, faktlar, hodisalar va jarayonlar to‘g‘risidagi xabarlarni qonunchilikda belgilangan tartibda ommaviy axborot vositalariga taqdim etadi.

Axborot olish faqat qonunga muvofiq cheklanishi mumkin.

32-modda. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlik

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlik O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligi va xalqaro shartnomalariga muvofiq amalga oshiriladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari chet davlatlarning vakolatli organlariga zarur axborotni taqdim etish to‘g‘risida so‘rovlar yuborish va ularning so‘rovlariga javob berish huquqiga ega.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar natijasida olingan mol-mulkni O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligi va xalqaro shartnomalariga muvofiq qaytarish choralarini ko‘radi.

33-modda. Qonunchilikni ushbu Qonunga muvofiqlashtirish

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin;

davlat boshqaruvi organlari ushbu Qonunga zid bo‘lgan o‘z normativ-huquqiy hujjatlarini ko‘rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta’minlasin.

34-modda. Ushbu Qonunning kuchga kirishi

Ushbu Qonun rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2017-yil 3-yanvar,
O‘RQ-419-son

ILG5739

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

MANFAATLAR TO‘QNASHUVI TO‘G‘RISIDA

Qonunchilik palatasi tomonidan 2022-yil 25-oktabrda qabul qilingan
Senat tomonidan 2023-yil 1-iyunda ma’qullangan

1-bob. Umumiy qoidalar

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi va amal qilish sohasi

Ushbu Qonunning maqsadi manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Ushbu Qonunning amal qilishi davlat organlariga va mahalliy davlat hokimiyati organlariga, davlat muassasalariga, davlat unitar korxonalariga, davlat maqsadli jamg‘armalariga, shuningdek ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz miqdorda va undan ortiq bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatlariga (bundan buyon matnda davlat organlari yoki boshqa tashkilotlar deb yuritiladi) nisbatan tatbiq etiladi.

Ushbu Qonunning amal qilishi:

o‘z ustav fondida (ustav kapitalida) davlat organlarining yoki boshqa tashkilotlarning ulushi jami 50 foiz miqdorda va undan ortiq bo‘lgan yuridik shaxslarga nisbatan;

o‘z ustav fondida (ustav kapitalida) ushbu modda uchinchi qismining ikkinchi xatboshisida ko‘rsatilgan tashkilotlarning ulushi jami 50 foiz miqdorda va undan ortiq bo‘lgan yuridik shaxslarga nisbatan faqat ularning davlat xaridlari sohasidagi munosabatlariga tatbiq etiladi.

2-modda. Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi qonunchilik

Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Jinoyat ishlari bo‘yicha sudga qadar ish yuritishni, shuningdek sud ishini yuritish chog‘ida yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga soluvchi qonunlarda manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solishga oid boshqa qoidalar belgilanishi mumkin.

Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O‘zbekiston Respublikasining manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.

3-modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimi — davlat organlarida yoki boshqa tashkilotlarda mehnat shartnomasi (kontrakt) asosida yoxud saylab qo‘yiladigan yoki tayinlanadigan lavozimlarda mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshirayotgan boshqaruv xodimi;

manfaatlar to‘qnashuvi — shaxsning shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorligi uning o‘z lavozim yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir ko‘rsatayotgan yoxud ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari, qonuniy manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan (mavjud manfaatlar to‘qnashuvi) yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan (ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi) vaziyat;

manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish bo‘yicha maxsus bo‘linma (bundan buyon matnda maxsus bo‘linma deb yuritiladi) — davlat organlarining yoki boshqa tashkilotlarning korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalari (va) yoki kadrlar bo‘linmalari;

shaxsiy manfaatdorlik — davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimi yoxud u bilan aloqador shaxslar ushbu xodim tomonidan bevosita yoki bilvosita qaror qabul qilinishi yoki

xodimning ushbu jarayonda boshqacha tarzda ishtirok etishi natijasida olishi mumkin bo‘lgan har qanday naf yoki afzallik;

yaqin qarindoshlar — ota-onalar, aka-ukalar, opa-singillar, o‘g‘illar, qizlar, er-xotinlar, shuningdek er-xotinlarning ota-onalari, aka-ukalari, opa-singillari va farzandlari.

4-modda. Manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solishning asosiy prinsiplari

Manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solishning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

qonuniylik;

fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning va davlatning qonuniy manfaatlari ustuvorligi;

ochiqlik va shaffoflik;

xolislik;

korrupsiyaga nisbatan murosasizlik.

5-modda. Davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimiga aloqador shaxslar

Quyidagi shaxslar davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimiga aloqador shaxslar deb e’tirof etiladi:

davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimining yaqin qarindoshlari;

davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimi va (yoki) uning yaqin qarindoshlari qaysi yuridik shaxsning ustav fondi (ustav kapitali) aksiyalariga yoki ulushlariga egalik qilsa, o‘sha yuridik shaxs;

davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimi yoxud uning yaqin qarindoshlari qaysi yuridik shaxsda boshqaruv organining rahbari yoki a’zosi bo‘lsa, o‘sha yuridik shaxs.

6-modda. Davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimining manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solish chog‘idagi huquq va majburiyatlari

Davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimi manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solish chog‘ida:

maxsus bo‘linmaga maslahat so‘rab murojaat etish;

ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyada ko‘rsatilishi kerak bo‘lgan ma’lumotlardan tashqari qo‘shimcha ma’lumotlarni elektron yoki yozma shaklda taqdim etish huquqiga ega.

Davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimi:

o‘z lavozim majburiyatlarini yoki xizmat vakolatlarini vijdonan bajarishi va ularning bajarilishiga ta’sir ko‘rsatadigan yoki ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan o‘z shaxsiy manfaatlari bilan bog‘liq har qanday harakatlardan o‘zini tiyishi;

lavozim majburiyatlarini yoki xizmat vakolatlarini bajarish chog‘ida manfaatlar to‘qnashuviga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo‘lgan shaxsiy manfaatdorlikka yo‘l qo‘ymasligi;

mavjud manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelgan taqdirda, o‘z ish yurituvidagi hujjatlar bo‘yicha qaror qabul qilinguniga qadar o‘zining bevosita rahbarini (tashkilot rahbari — yuqori turuvchi rahbarni) yoki maxsus bo‘linmani xabardor qilishi;

o‘zining bevosita bo‘ysunuvidagi xodimlarni yoki boshqa xodimlarni bevosita yoki bilvosita o‘zining shaxsiy manfaatlarini ko‘zlovchi harakatlarga (harakatsizlikka) majburlamasligi;

o‘zi mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshirayotgan davlat organi yoki boshqa tashkilot nazorati ostidagi tashkilotdan yoki uning tarkibiy bo‘linmasidan ishga qabul qilish to‘g‘risida takliflar kelib tushganligi holati haqida bir ish kuni ichida xabar berishi;

boshqa xodimlarga nisbatan o‘ziga ma’lum bo‘lgan manfaatlar to‘qnashuvi hollari to‘g‘risida xabar berishi;

ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish maqsadida maxsus bo‘linmaning so‘roviga ko‘ra ma’lumotlar taqdim etishi shart.

Davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimi qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ega bo‘lishi va uning zimmasida boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

7-modda. Davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimiga aloqador shaxslarning manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solish chog‘idagi huquq va majburiyatlari

Davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimiga aloqador shaxslar mazkur xodim mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshirayotgan davlat organi yoki boshqa tashkilot bilan munosabatlarga kirishganda:

manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish uchun maxsus bo‘linmadan bepul maslahat olish;

davlat organining yoki boshqa tashkilotning manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish bo‘yicha harakatlari (harakatsizligi) yoki qarorlari ustidan shikoyat qilish huquqiga ega.

Davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimiga aloqador shaxslar mazkur xodim mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshirayotgan davlat organi yoki boshqa tashkilot bilan munosabatlarga kirishganda:

shaxsiy manfaatlarini ko‘zlab manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymasligi;

ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyani elektron yoki yozma shaklda to‘ldirishi, unga bila turib yolg‘on va noto‘g‘ri ma’lumotlarni kiritmasligi shart.

Davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimi bilan aloqador shaxslar tomonidan ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyada bila turib yolg‘on yoki noto‘g‘ri ma’lumotlar taqdim etilganligi ushbu Qonunda belgilangan huquqiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

8-modda. Davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimining faoliyatida manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish bo‘yicha cheklovlar

Manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish maqsadida davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimi:

xizmat mavqeyini suiiste’mol qilish orqali shaxsiy naf olishga;

manfaatlar to‘qnashuvi haqidagi axborotni oshkor etish chog‘ida ma’lumotlarni yashirishga yoxud bila turib yolg‘on yoki noto‘g‘ri axborot taqdim etishga;

biri boshqasiga bo‘ysunuvchi yoki biri boshqasining nazoratidagi tashkilotlarda o‘rindoshlik bo‘yicha ishlashga, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno;

tijorat tashkilotlarining ta’sischisi (aksiyadori, ishtirokchisi) bo‘lishga, bundan aksiyadorlik jamiyatlarining erkin muomalada bo‘lgan aksiyalarining o‘n foizigacha egalik qilish hollari mustasno;

o‘zi mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshirayotgan davlat organi yoki boshqa tashkilotning nazoratida bo‘lgan tadbirkorlik faoliyati subyektining aksiyalariga yoki ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlariga egalik qilishga, shuningdek ushbu tadbirkorlik faoliyati subyektlarining boshqaruv organi a’zosi bo‘lishga, bundan O‘zbekiston Respublikasi qonunlarida hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlarida nazarda tutilgan yoki bu faoliyat qonunchilikka muvofiq lavozim majburiyatlari hisoblanadigan hollar mustasno. Bunda davlat organi yoki boshqa tashkilot nazoratida bo‘lgan tadbirkorlik faoliyati subyektlarining aksiyalariga yoki ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlariga egalik qilgan yoxud mazkur tadbirkorlik faoliyati subyektlarining boshqaruv organlari a’zosi bo‘lgan shaxs mazkur davlat organida yoki boshqa tashkilotda xodim lavozimini egallagan hollarda, u qonunchilikda belgilangan tartibda ushbu aksiyalarni yoki ulushlarni bir oy ichida realizatsiya qilishi, boshqaruv organlarining a’zoligidan chiqishi kerak;

o‘zi mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshirayotgan davlat organlarida yoki boshqa tashkilotlarda o‘ziga taalluqli bo‘lgan ishlarni ko‘rib chiqishda yoki o‘ziga aloqador shaxslarga taalluqli bo‘lgan ishlarni ko‘rib chiqishda vakil sifatida ishtirok etishga, agar u qonunchilikka muvofiq qonuniy vakil bo‘lmasa;

o‘zi mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshirayotgan tashkilotning mol-mulkini sotib olishda yoki ijaraga olishda o‘zi ishtirok etishga haqli emas.

Davlat organining yoki boshqa tashkilotning o‘zi bilan mehnat shartnomasi tugatilgan yoki xizmatdan bo‘shatilgan xodimi ikki yil ichida oxirgi ish joyida o‘zi bevosita yoki bilvosita nazoratni amalga oshirgan tashkilotlar yoki ularning tarkibiy bo‘linmalari tomonidan ishga ushbu xodim mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshirgan tashkilotlarning korrupsiyaga qarshi nazorat bo‘linmasi vazifasini amalga oshiruvchi mansabdor shaxslarning xulosasiga asosan qabul qilinadi.

Ushbu modda birinchi qismining beshinchi xatboshisida ko‘rsatilgan cheklov faqat davlat organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, davlat maqsadli jamg‘armalarining xodimlariga, davlat muassasalarining va davlat unitar korxonalarining, o‘z ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz miqdorda va undan ortiq bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatlarining rahbarlariga nisbatan tatbiq etiladi.

Ushbu modda birinchi qismining sakkizinchi xatboshisida ko‘rsatilgan cheklov davlat organi yoki boshqa tashkilotning xodimiga aloqador shaxslarga nisbatan ham qo‘llaniladi.

Ushbu Qonunning maqsadlarini nazarda tutgan holda mazkur moddada “nazorat” deganda davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimining tegishli tashkilot faoliyatini shaxsan yoki o‘zining bo‘ysunuvidagi shaxs orqali tekshirish yoxud unga nisbatan qonunchilikda belgilangan har qanday imtiyozlarni (preferensiyalarni) qo‘llash yoki uni har qanday javobgarlikka tortish (javobgarlikka tortish bo‘yicha tashabbus ko‘rsatish) yoxud unga litsenziya va ruxsat etish xususiyatiga ega boshqa hujjatlarni berish (xabarnomani qabul qilish) huquqi tushuniladi.

Davlat organlari yoki boshqa tashkilotlar xodimi lavozim majburiyatlarining yoki xizmat vakolatlarining o‘ziga xos xususiyati hisobga olingan holda, unga nisbatan qonunchilikda belgilangan boshqa cheklovlar qo‘llanilishi mumkin.

2-bob. Manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq munosabatlarni davlat tomonidan tartibga solish

9-modda. O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solish sohasidagi vakolatlari

O‘zbekiston Respublikasining Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solish sohasidagi maxsus vakolatli davlat organidir (bundan buyon matnda maxsus vakolatli davlat organi deb yuritiladi).

Maxsus vakolatli davlat organi:

manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq axborotni va materiallarni davlat organlaridan yoki boshqa tashkilotlardan so‘rab oladi va o‘rganadi;

davlat organlarining yoki boshqa tashkilotlarning manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtiradi;

davlat organlarining yoki boshqa tashkilotlarning manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solish sohasidagi faoliyatini, shu jumladan jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari asosida o‘rganadi;

manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq holatlar aniqlanganda, bitimni bekor qilish, qarorni hamda boshqa hujjatni o‘zgartirish yoki bekor qilish to‘g‘risida davlat organlariga yoki boshqa tashkilotlarga taqdimnoma kiritadi yoxud ularni haqiqiy emas deb topish haqida sudga da’vo kiritadi;

Manfaatlar to‘qnashuvini hisobga olish reyestrining, mavjud manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi xabarnomaning hamda ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyaning namunaviy shakllarini tasdiqlaydi;

davlat organlari yoki boshqa tashkilotlar uchun manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish bo‘yicha uslubiy tavsiyalarni e’lon qiladi;

manfaatlar to‘qnashuvi natijasida fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning manfaatlariga yetkazilgan zararning o‘rni to‘liq qoplanishiga erishilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

maxsus bo‘linmalar xodimlarining tizimli ravishda malakasini oshirishni, ularda tegishli ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan o‘qitishni tashkil etadi;

ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga rioya etmaganlik bilan bog‘liq ma’muriy huquqbuzarlik haqida bayonnomani tuzadi va uni ko‘rib chiqish uchun sudga yuboradi.

Maxsus vakolatli davlat organi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

10-modda. Davlat organlarining yoki boshqa tashkilotlarning manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solish sohasidagi vakolatlari

Davlat organlari yoki boshqa tashkilotlar manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solish sohasida:

xodimlar tomonidan mavjud manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida xabardor qilish tizimini tashkil etadi;

ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyaning va mavjud manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi xabarnomaning belgilangan shaklini o‘zining rasmiy veb-saytlariga joylashtiradi;

manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘yilgan holda qabul qilingan qarorlarni belgilangan tartibda o‘zgartiradi yoki bekor qiladi;

manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘yilgan holda tuzilgan bitimlarni o‘zgartiradi yoki bekor qiladi yoxud bunday bitimlarni haqiqiy emas deb topish to‘g‘risida belgilangan tartibda sudga da’volar bilan murojaat etadi;

odob-axloq komissiyalarining va maxsus bo‘linmalarning manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solish bo‘yicha faoliyatini tashkil etadi;

davlat organlarida yoki boshqa tashkilotlarda manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish bo‘yicha ichki idoraviy tartibni belgilaydi;

aniqlangan manfaatlar to‘qnashuvi bo‘yicha xizmat tekshiruvining xolisona tashkil etilishini va uning natijalari odob-axloq komissiyalari tomonidan ko‘rib chiqilishini ta’minlaydi;

manfaatlar to‘qnashuvining oldini olishda o‘rnak bo‘layotgan xodimlarni rag‘batlantirish choralarini ko‘radi;

manfaatlar to‘qnashuvi natijasida fuqarolarga, tashkilotlarga, jamiyatga yoki davlatga yetkazilgan zararning o‘rni qoplanishini ta’minlash, shuningdek aholining tegishli davlat organiga yoki boshqa tashkilotga bo‘lgan ishonchini tiklash choralarini ko‘radi.

Davlat organlari yoki boshqa tashkilotlar qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

11-modda. Davlat organlari yoki boshqa tashkilotlar odob-axloq komissiyasining manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solish sohasidagi vakolatlari

Davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimi tomonidan ushbu Qonun talablariga rioya etilishi ustidan nazorat ushbu davlat organida yoki boshqa tashkilotda tuzilgan odob-axloq komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

Odob-axloq komissiyasi:

davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimi tomonidan ushbu Qonunda belgilangan talablarga rioya etilishini ta’minlash choralarini ko‘radi;

manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish yuzasidan ko‘rilayotgan choralarning yetarliligi (to‘g‘riligi) haqidagi masalalarni ko‘rib chiqadi;

mavjud manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq hollar ustidan kollegial nazoratni amalga oshiradi;

ushbu Qonunda belgilangan talablarning davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimlari tomonidan buzilishlari mavjudligi (mavjud emasligi) to‘g‘risida xizmat tekshiruvi natijalariga ko‘ra xulosa chiqaradi;

manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida xabar qilmagan, bila turib yolg‘on yoki noto‘g‘ri axborot taqdim etgan yoxud bunday axborotni yashirgan xodimni javobgarlikka tortish haqida davlat organining yoki boshqa tashkilotning rahbariga taklif kiritadi.

Odob-axloq komissiyasi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

ILG5739

12-modda. Maxsus bo‘linmaning manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solish sohasidagi vakolatlari

Maxsus bo‘linma:

davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimi tomonidan aniqlangan manfaatlar to‘qnashuvi hollari to‘g‘risidagi axborotni umumlashtiradi;

davlat organining yoki boshqa tashkilotning ushbu Qonun talablarini buzgan xodimiga nisbatan xizmat tekshiruvini o‘tkazadi;

davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimlari o‘rtasida manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish yuzasidan qonunchilikka muvofiq tushuntirish ishlarini amalga oshiradi;

ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyalarni, shuningdek mavjud manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi xabarnomani ko‘rib chiqadi, ularning natijalariga ko‘ra odob-axloq komissiyasiga takliflar kiritadi;

davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimining manfaatlar to‘qnashuvi haqidagi xabarlari munosabati bilan manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligi yoki mavjud emasligi to‘g‘risida xulosa beradi;

davlat organlarida yoki boshqa tashkilotlarda aniqlangan manfaatlar to‘qnashuvi hollarini tahlil qiladi hamda ularni tartibga solish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqadi;

davlat organlarida yoki boshqa tashkilotlarda ushbu Qonun talablariga rioya etilishi holati to‘g‘risidagi har yilgi hisobotlarni tayyorlaydi hamda hisobotlar uning rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlaydi.

Maxsus bo‘linma qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

3-bob. Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi axborotni oshkor etishga va manfaatlar to‘qnashuvini aniqlashga doir choralar

13-modda. Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi axborotni oshkor etish

Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi axborotni oshkor etish davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimi tomonidan mavjud manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida xabarnoma hamda ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida deklaratsiya taqdim etish orqali amalga oshiriladi.

Davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimiga aloqador shaxslar tomonidan manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi axborotni oshkor etish ularning ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyani taqdim etishi orqali amalga oshiriladi.

14-modda. Mavjud manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi xabarnoma

Mavjud manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi xabarnomada quyidagi ma’lumotlar ko‘rsatilishi kerak:

mavjud manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida xabar berayotgan davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimining familiyasi, ismi, otasining ismi va lavozimi, shuningdek jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami;

davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimining manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelayotgan yaqin qarindoshining familiyasi, ismi, otasining ismi, jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami (mavjud bo‘lgan taqdirda) yoxud davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimiga aloqador shaxsning nomi va soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami;

mavjud manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi axborot.

Mavjud manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi xabarnoma manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish bo‘yicha ko‘rilgan choralarni o‘z ichiga olishi, davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimining va (yoki) uning bevosita rahbarining (ayrim hollarda, uning o‘rinbosarining) o‘z qo‘li bilan qo‘yilgan imzosi yoki elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlanishi kerak.

15-modda. Mavjud manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi xabarnomani taqdim etish tartibi

Davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimi quyidagi hollarda mavjud manfaatlar to‘qnashuvi o‘ziga ma’lum bo‘lib qolgan paytdan e’tiboran bir ish kuni ichida mavjud

manfaatlar to‘qnashuvi haqidagi belgilangan shakldagi xabarnomani to‘ldirishi va o‘zining bevosita rahbariga (tashkilot rahbariga — yuqori turuvchi rahbarga) yoki maxsus bo‘linmaga taqdim etishi shart, agar:

yaqin qarindoshlari bevosita xodimning bo‘ysunuvidagi ishga qabul qilingan bo‘lsa (davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining siyosiy guruhiga kiruvchi lavozimga ishga qabul qilingan hollar bundan mustasno) yoki xodimning ishiga fuqarolik-huquqiy shartnoma asosida o‘ziga aloqador shaxslar jalb etilgan bo‘lsa;

u o‘ziga aloqador shaxslarga taalluqli masalalar bo‘yicha qarorlar qabul qilishda ishtirok etayotgan bo‘lsa;

yaqin qarindoshi tekshiruv o‘tkazilayotgan obyektda (yuridik shaxsda) tekshiruv yo‘nalishi bo‘yicha mas’ul mansabdor shaxs sifatida ishlayotgan bo‘lsa yoki mazkur tekshiruv obyekti (yuridik shaxs) unga aloqador shaxs bo‘lsa;

boshqa har qanday mavjud manfaatlar to‘qnashuvi o‘ziga ma’lum bo‘lib qolsa.

16-modda. Mavjud manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi xabarnomani ko‘rib chiqish tartibi

Davlat organining yoki boshqa tashkilotning rahbar xodimi hamda maxsus bo‘linmaning rahbari manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish uchun mas’ul hisoblanadi.

Davlat organlari yoki boshqa tashkilotlar tarkibiy bo‘linmasining rahbari mavjud manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish bo‘yicha o‘z vakolatlari doirasida ko‘rilgan choralar to‘g‘risida maxsus bo‘linmaga bir ish kuni ichida axborot taqdim etishi shart.

Maxsus bo‘linma ko‘rilgan choralarning yetarliligi (to‘g‘riligi) to‘g‘risidagi masalani ko‘rib chiqish uchun axborotni uch ish kuni ichida odob-axloq komissiyasiga taqdim etadi.

17-modda. Ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiya

Ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyada quyidagi ma’lumotlar ko‘rsatilishi kerak:

davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimining lavozimi hamda uning familiyasi, ismi, otasining ismi, shuningdek uning jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami;

davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimi yaqin qarindoshlarining familiyasi, ismi va otasining ismi, ularning jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami (mavjud bo‘lgan taqdirda), shuningdek ish joyi va lavozimi;

davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimi yoki uning yaqin qarindoshlari aksiyador bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatining rasmiy nomi va uning soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami;

davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimining yaqin qarindoshi muassis (ishtirokchi), boshqaruv organi a’zosi bo‘lgan yuridik shaxsning rasmiy nomi, shuningdek uning soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami.

Ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiya uni to‘ldirgan davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimining o‘z qo‘li bilan qo‘yilgan imzosi yoki elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlangan bo‘lishi kerak.

18-modda. Ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyani taqdim etish tartibi

Davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimi shaxsga doir ma’lumotlari o‘zgargan taqdirda, ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyani to‘ldirishi va har yili 15-yanvardan kechiktirmay maxsus bo‘linmaga taqdim etishi kerak.

Davlat organiga yoki boshqa tashkilotga ishga qabul qilinayotgan nomzod, shuningdek boshqa ishga o‘tkazilgan xodim ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi belgilangan shakldagi deklaratsiyani to‘ldirishi va taqdim etishi kerak.

Maxsus bo‘linma:

ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi har yilgi deklaratsiyani har yili 15-fevralgacha umumlashtiradi va tahlil qiladi;

ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish bo‘yicha choralarning yetarliligini (to‘g‘riligini) ta’minlash uchun har yili 1-martga qadar odob-axloq komissiyasiga taklif kiritadi;

odob-axloq komissiyasi tomonidan qabul qilingan xulosaga asosan ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish yuzasidan choralar ko‘rish to‘g‘risida davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimining bevosita rahbariga yoxud davlat organining yoki boshqa tashkilotning yuqori turuvchi rahbariga taklif kiritadi.

Davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimligiga nomzod ishga qabul qilinayotganda yoxud davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimi boshqa ishga o‘tkazilayotganda, ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyani taqdim etganidan keyin maxsus bo‘linma ushbu moddaning uchinchi qismida nazarda tutilgan ishlarni besh kunlik muddatda amalga oshiradi.

19-modda. Davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimiga aloqador shaxslar tomonidan taqdim etiladigan ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiya

Davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimiga aloqador shaxslar tomonidan taqdim etiladigan ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyada quyidagi ma’lumotlar ko‘rsatilishi kerak:

davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimiga aloqador shaxs hisoblangan jismoniy shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi, shaxsiy identifikatsiya raqami yoxud yuridik shaxsning nomi va soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami;

davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimining familiyasi, ismi va otasining ismi, lavozimi;

davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimi bilan qarindoshlik to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

yuridik shaxsning davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimiga aloqadorligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar.

Ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiya uni to‘ldirgan jismoniy shaxsning yoki yuridik shaxs vakilining (ishonchli shaxsining) o‘z qo‘li bilan qo‘yilgan imzosi yoki elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlangan bo‘lishi kerak.

20-modda. Manfaatlar to‘qnashuvini aniqlash

Manfaatlar to‘qnashuvini aniqlash quyidagi manbalardan olingan ma’lumotlarni o‘rganish orqali amalga oshiriladi:

ushbu Qonunning 17-moddasida nazarda tutilgan ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyadan;

davlat xaridlari jarayonida olingan takliflardan, xarid komissiyasi majlislarining bayonnomalaridan, tuzilgan shartnomalardan;

jismoniy va yuridik shaxslarning davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimining faoliyatidagi mavjud manfaatlar to‘qnashuvi yoki ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi murojaatlaridan yoki xabarlaridan;

tijorat tashkilotlarining affillangan shaxslari va yakuniy naf oluvchilari (benefitsiarlari) ro‘yxatlaridan;

O‘zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalining tadbirkorlik subyektlarini ro‘yxatdan o‘tkazish modulidan;

“FHDY Yagona elektron arxivi” axborot tizimidan;

“Yagona milliy mehnat tizimi” idoralararo apparat-dasturiy majmuidan;

Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysidan;

maxsus vakolatli davlat organi tomonidan o‘tkazilgan o‘rganish natijalari bo‘yicha kiritilgan taqdimnomadan.

Ushbu modda birinchi qismining beshinchi — to‘qqizinchi xatboshilarida ko‘rsatilgan manbalardan ma’lumotlar olish maxsus bo‘linma rahbarining so‘rovi bo‘yicha amalga oshiriladi.

Davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimining ommaviy axborot vositalariga, shu jumladan Internet jahon axborot tarmog‘iga joylashtirilgan mavjud manfaatlar to‘qnashuvi yoki ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi holatlari ular to‘g‘risidagi ma’lumotlarni to‘plash va o‘rganish orqali aniqlanadi.

Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan ma’lumotlarni o‘rganish maxsus bo‘linma tomonidan amalga oshiriladi.

4-bob. Manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish bo‘yicha ko‘rilgan choralarni ko‘rib chiqish va tekshirish

21-modda. Manfaatlar to‘qnashuviga oid hollarga nisbatan ko‘riladigan choralar

Manfaatlar to‘qnashuvi hollarini tartibga solish uchun ularning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi choralardan biri ko‘rilishi kerak:

o‘ziga nisbatan manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelgan rahbarning bevosita bo‘ysunuvidagi davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimini manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelmaydigan boshqa rahbarning bo‘ysunuviga o‘tkazish;

davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimini manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan kollegial organ tarkibidan ixtiyoriy ravishda o‘zini o‘zi rad etishi orqali yoki majburan chetlashtirish;

davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimining lavozim majburiyatlari yoki xizmat vakolatlari doirasini qayta ko‘rib chiqish;

davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimining davlat organining yoki boshqa tashkilotning manfaatlar to‘qnashuviga olib kelishi mumkin bo‘lgan axborotidan va hujjatlaridan foydalanishiga cheklovlar belgilash;

davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimining yakka tartibda qarorlar qabul qilishga doir vakolatlarini qonunchilikka muvofiq amalga oshirishi ustidan kollegial nazoratni ta’minlash;

davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimiga o‘zidagi shaxsiy manfaatdorlikni qonunchilikka muvofiq bartaraf etishi to‘g‘risida takliflar taqdim etish;

xodim tomonidan o‘zi mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshirayotgan davlat organining yoki boshqa tashkilotning manfaatlariga zid bo‘lgan shaxsiy manfaatdorligidan voz kechishi;

davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimining shaxsiy manfaatdorligini bartaraf etish choralarini ko‘rish mumkin bo‘lmagan taqdirda, xodimning roziligi asosida uni avvalgi lavozimiga teng boshqa lavozimga o‘tkazish yoki mehnat shartnomasini (kontraktni) umumiy asoslarda bekor qilish.

Manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish bo‘yicha choralar davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimining roziligi bilan ko‘rilishi kerak.

Davlat organlari yoki boshqa tashkilotlar tomonidan manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solishga doir choralarni ko‘rish chog‘ida biror-bir shaxslarga, guruhlarga yoki tashkilotlarga afzallik, ustunlik berishga yoxud davlat organlarining yoki boshqa tashkilotlarning xodimlarini, shuningdek fuqarolarni kamsitishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Davlat organlari yoki boshqa tashkilotlar o‘z xodimi bilan o‘zaro kelishuvga ko‘ra, manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish yuzasidan qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa choralarni ham ko‘rishi mumkin.

22-modda. Manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq hujjatlarning maxfiyligini ta’minlash

Manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish va aniqlashda ishtirok etadigan xodimlarga ishonib topshirilgan yoxud ularga kasbiy, xizmat yoki mehnat majburiyatlarini bajarishi munosabati bilan ma’lum bo‘lib qolgan shaxslarning shaxsga doir ma’lumotlarini oshkor etishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimining faoliyatidagi manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish chog‘ida shaxsga doir ma’lumotlarni muhofaza qilish shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi.

23-modda. Jismoniy va yuridik shaxslarning manfaatlar to‘qnashuvi hollari to‘g‘risidagi murojaatlari va xabarlarini ko‘rib chiqish

ILG5739

Jismoniy va yuridik shaxslarning xodimdagi mavjud yoki ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida davlat organlariga va boshqa tashkilotlarga kelib tushgan har bir murojaati yoki xabari qonunchilikda belgilangan tartibda va muddatlarda ko‘rib chiqiladi hamda tekshiriladi.

Tekshirish davomida aniqlangan manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘yilganligi bilan bog‘liq hollar to‘g‘risidagi ma’lumotlar odob-axloq komissiyasi tomonidan maxsus bo‘linma taqdim etganidan keyin o‘n ish kuni ichida ko‘rib chiqiladi.

Odob-axloq komissiyasi davlat organining yoki boshqa tashkilotning rahbariga manfaatlar to‘qnashuvini bartaraf etish bo‘yicha choralarni ko‘rish yoxud xodimni tegishli javobgarlikka tortish to‘g‘risida taklif kiritadi.

24-modda. Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi axborotning hisobini yuritish

Davlat organlari yoki boshqa tashkilotlar Manfaatlar to‘qnashuvini hisobga olish reyestrini yuritadi.

Mavjud yoki ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvlari Manfaatlar to‘qnashuvini hisobga olish reyestriga quyidagi asoslarga ko‘ra kiritiladi:

davlat organlariga yoki boshqa tashkilotlarga ishga qabul qilishda nomzod tomonidan taqdim etilgan deklaratsiya asosida mavjud manfaatlar to‘qnashuvi aniqlanganda;

davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimi boshqa ishga o‘tkazilgan taqdirda, o‘zidagi mavjud manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi axborotni xabar qilganda;

davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimi tomonidan taqdim etiladigan ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi har yilgi deklaratsiya asosida mavjud manfaatlar to‘qnashuvi aniqlanganda;

mavjud manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida xabarnoma taqdim etilganda;

ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida deklaratsiya taqdim etilganda;

rasmiy elektron ma’lumotlar bazalari orqali davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimida manfaatlar to‘qnashuvi aniqlanganda;

kelib tushgan murojaatga yoki xabarga asosan davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimida manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligi tasdiqlanganda;

qonunchilikda belgilangan tartibda o‘tkaziladigan xizmat hamda boshqa turdagi tekshiruvlar natijasida davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimida manfaatlar to‘qnashuvi aniqlanganda.

Manfaatlar to‘qnashuvini hisobga olish reyestriga ushbu moddaning ikkinchi qismida ko‘rsatilgan asoslardan tashqari quyidagi ma’lumotlar kiritiladi:

mavjud yoki ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvlarini tartibga solish yuzasidan ko‘rilgan choralar to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

manfaatlar to‘qnashuvini oshkor etish chog‘ida bila turib yolg‘on yoki noto‘g‘ri axborotni taqdim etgan yoxud bunday axborotni yashirgan davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimiga nisbatan ko‘rilgan ta’sir choralari to‘g‘risidagi ma’lumotlar.

Maxsus bo‘linma aniqlangan manfaatlar to‘qnashuvi hollarining hisobi o‘z vaqtida va to‘liq yuritilishi uchun javobgardir.

25-modda. Manfaatlar to‘qnashuvi hollarini tartibga solish uchun ko‘rilgan choralarni ko‘rib chiqish

Davlat organlarining yoki boshqa tashkilotlarning odob-axloq komissiyasi mavjud yoki ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvlari to‘g‘risida har yarim yilda xulosa qabul qiladi hamda ularni tartibga solish bo‘yicha ko‘rilgan choralarning yetarliligini (to‘g‘riligini) ko‘rib chiqadi.

Davlat organlarining yoki boshqa tashkilotlarning odob-axloq komissiyasi aniqlangan manfaatlar to‘qnashuvi hollarini maxsus bo‘linma bilan birgalikda tahlil qiladi va davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimlari o‘rtasida tushuntirish ishlarini olib boradi.

5-bob. Yakunlovchi qoidalar

26-modda. Manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘yilgan holda qarorlar qabul qilish yoki bitimlar tuzish

Manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘yilgan holda qabul qilingan qarorlar yoki tuzilgan bitimlar sud tartibida haqiqiy emas deb topiladi.

Manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘yilgan holda qabul qilingan qaror yoki tuzilgan bitim haqiqiy emas deb topilgan taqdirda, ushbu qaror qabul qilinganligi yoki bitim tuzilganligi natijasida olingan foyda bitim bo‘yicha olingan hamma narsani qaytarib berish to‘g‘risida talab qo‘yilmagan holda, sud tartibida davlat daromadiga o‘tkaziladi. Bunda haqiqiy emas deb topilgan bunday bitimning ijrosi bilan bog‘liq xarajatlarning o‘rni manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ygan shaxsning hisobidan qoplanadi.

Manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘yilgan holda qabul qilingan qaror yoki tuzilgan bitim haqiqiy emas deb topilganligi natijasida jismoniy yoki yuridik shaxslarga, shu jumladan davlat organlariga yoki boshqa tashkilotlarga yetkazilgan zarar davlat organining yoki boshqa tashkilotning aybdor xodimlaridan regress tartibida undirib olinishi mumkin.

27-modda. Davlat organlarining yoki boshqa tashkilotlarning manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish bo‘yicha qabul qilingan qarorlari ustidan shikoyat qilish

Davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimi manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish yuzasidan davlat organlari yoki boshqa tashkilotlar tomonidan qabul qilingan qarorlar ustidan bo‘ysunuv tartibida yuqori turuvchi tashkilotga, maxsus vakolatli davlat organiga yoki sudga shikoyat qilishga haqli.

28-modda. Nizolarni hal etish

Davlat organlarining yoki boshqa tashkilotlarning faoliyatidagi manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solish sohasida yuzaga keladigan nizolar qonunchilikda belgilangan tartibda hal etiladi.

29-modda. Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik

Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.

30-modda. O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish

1. O‘zbekiston Respublikasining 1994-yil 22-sentabrda qabul qilingan 2015-XII-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1995-yil, № 3, 6-modda; O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995-yil, № 9, 193-modda, № 12, 269-modda; 1996-yil, № 5-6, 69-modda, № 9, 144-modda; 1997-yil, № 2, 56-modda, № 4-5, 126-modda, № 9, 241-modda; 1998-yil, № 3, 38-modda, № 5-6, 102-modda, № 9, 181-modda; 1999-yil, № 1, 20-modda, № 5, 124-modda, № 9, 229-modda; 2000-yil, № 5-6, 153-modda, № 7-8, 217-modda; 2001-yil, № 1-2, 23-modda, № 9-10, 165, 182-moddalar; 2002-yil, № 1, 20-modda, № 9, 165-modda; 2003-yil, № 1, 8-modda, № 5, 67-modda, № 9-10, 149-modda; 2004-yil, № 1-2, 18-modda, № 5, 90-modda, № 9, 171-modda; 2005-yil, № 1, 18-modda; O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2005-yil, № 9, 312-modda, № 12, 413, 417, 418-moddalar; 2006-yil, № 6, 261-modda, № 9, 498-modda, № 10, 536-modda, № 12, 656, 659-moddalar; 2007-yil, № 4, 158, 159, 164, 165-moddalar, № 9, 416, 421-moddalar, № 12, 596, 604, 607-moddalar; 2008-yil, № 4, 181, 189, 192-moddalar, № 9, 486, 488-moddalar, № 12, 640, 641-moddalar; 2009-yil, № 1, 1-modda, № 9, 334, 335, 337-moddalar, № 10, 380-modda, № 12, 462, 468, 470, 472, 474-moddalar; 2010-yil, № 5, 175, 179-moddalar, № 6, 231-modda, № 9, 335, 339, 341-moddalar, № 10, 380-modda, № 12, 468, 473, 474-moddalar; 2011-yil, № 1, 1-modda, № 4, 104, 105-moddalar, № 9, 247, 252-moddalar, № 12/2, 365-modda; 2012-yil, № 4, 108-modda, № 9/1, 242-modda, № 12, 336-modda; 2013-yil, № 4, 98-modda, № 10, 263-modda; 2014-yil, № 1, 2-modda, № 5, 130-modda, № 9, 244-modda, № 12, 341, 343-moddalar; 2015-yil, № 6, 228-modda, № 8, 310, 312-moddalar, № 12, 452-modda; 2016-yil, № 1, 2-modda, № 4, 125-modda, № 9, 276-modda, № 12, 383, 385-moddalar; 2017-yil, № 4, 137-modda, № 6, 300-modda, № 9, 510-modda, № 10, 605-modda; 2018-yil, № 1, 1, 4, 5-moddalar, № 4, 224-modda, № 7, 430, 431, 432-moddalar, № 10, 671, 673, 679-moddalar; 2019-yil, № 1, 1, 3, 5-moddalar, № 2, 47-modda, № 3,

161, 165, 166-moddalar, № 5, 259, 261, 267, 268-moddalar, № 7, 386-modda, № 8, 469, 471-moddalar, № 9, 591, 592-moddalar, № 10, 674, 676-moddalar, № 11, 787, 791-moddalar, № 12, 880, 891-moddalar; 2020-yil, № 1, 4-modda, № 3, 203, 204-moddalar, № 7, 449-modda, № 9, 539, 540-moddalar, № 10, 593, 596-moddalar, № 11, 651-modda, № 12, 691-modda; 2021-yil, № 1, 5, 7, 12, 13, 14-moddalar, № 2, 142-modda, № 3, 217-modda, № 4, 290, 293-moddalar, 4-songa ilova, № 8, 800, 802, 803-moddalar, № 9, 903-modda, № 10, 966, 967, 968, 973-moddalar, № 11, 1066-modda; 2022-yil, № 1, 1, 2-moddalar, № 2, 80, 81-moddalar, № 3, 215, 216-moddalar, № 4, 337-modda, № 5, 464, 465, 466, 467-moddalar, № 8, 787-modda) quyidagi o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritilsin:

1) 175^{8}-moddaning to‘rtinchi qismidagi “va manfaatlar to‘qnashuvi” degan so‘zlar chiqarib tashlansin;

2) quyidagi mazmundagi 193^{4}-modda bilan to‘ldirilsin:

“193^{4}-modda. Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi qonunchilik talablarini bajarmaslik

Davlat organining yoki boshqa tashkilotning mansabdor shaxsi yoki xodimi tomonidan manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligi haqida xabar bermaslik, —

bazaviy hisoblash miqdorining uch baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Xuddi shunday huquqbuzarlik ma’muriy jazo chorasi qo‘llanilganidan keyin bir yil davomida takroran sodir etilgan bo‘lsa, —

bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o‘n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Davlat organining yoki boshqa tashkilotning mansabdor shaxsiga ma’lum bo‘lib qolgan, manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan mavjud yoki ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish yuzasidan choralar ko‘rmaslik, —

bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o‘n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Ushbu moddaning uchinchi qismida nazarda tutilgan huquqbuzarlik ma’muriy jazo chorasi qo‘llanilganidan keyin bir yil davomida takroran sodir etilgan bo‘lsa, —

bazaviy hisoblash miqdorining o‘n baravaridan o‘n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Ushbu moddaning birinchi va uchinchi qismlarida nazarda tutilgan huquqbuzarliklar davlat xaridlari sohasida sodir etilgan bo‘lsa, —

mansabdor shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan o‘ttiz baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi”;

3) 245-moddaning birinchi qismi “193^{3}” raqamidan keyin “193^{4}” raqami bilan to‘ldirilsin;

4) 245^{10}-moddaning birinchi qismidagi “215^{7}-moddasida” degan so‘zlar “193^{4} va 215^{7}-moddalarida” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining 1995-yil 21-dekabrda qabul qilingan 163-I-sonli va 1996-yil 29-avgustda qabul qilingan 256-I-sonli qonunlari bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996-yil, 2-songa ilova, № 11-12; 1997-yil, № 2, 56-modda, № 9, 241-modda; 1998-yil, № 5-6, 102-modda; 1999-yil, № 1, 20-modda, № 9, 229-modda; 2001-yil, № 1-2, 23-modda, № 9-10, 182-modda; 2002-yil, № 1, 20-modda, № 9, 165-modda; 2003-yil, № 1, 8-modda, № 5, 67-modda; 2004-yil, № 1-2, 18-modda, № 5, 90-modda, № 9, 171-modda; O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2006-yil, № 4, 154-modda, № 9, 494, 498-moddalar; 2007-yil, № 1, 3, 5-moddalar, № 4, 156, 164-moddalar, № 8, 367-modda, № 9, 416 -modda, № 12, 598, 608-moddalar; 2008-yil, № 4, 192-modda, № 12, 640-modda; 2009-yil, № 9, 337-modda; 2010-yil, № 9, 335, 337, 340-moddalar; 2011-yil, № 12/2, 363, 364, 365-moddalar; 2012-yil, № 4, 106, 109-moddalar, № 12, 336-modda; 2013-yil, № 10, 263-modda; 2014-yil, № 5,

130-modda, № 12, 343-modda; 2015-yil, № 8, 310, 312-moddalar; 2016-yil, № 4, 125-modda; 2017-yil, № 4, 137-modda, № 9, 510-modda, № 12, 773-modda; 2018-yil, № 1, 4-modda, № 4, 224-modda, № 7, 433-modda, № 10, 673-modda; 2019-yil, № 3, 161, 166-moddalar, № 5, 267-modda, № 10, 671-modda, № 12, 880, 886-moddalar; 2020-yil, № 1, 3, 4-moddalar, № 10, 593-modda; 2021-yil, 4-songa ilova, № 8, 801-modda, № 10, 968-modda; 2022-yil, № 2, 79-modda, № 3, 217, 218-moddalar, № 4, 3-modda, № 5, 46-modda, № 6, 570, 577-moddalar) quyidagi qo‘shimchalar kiritilsin:

1) 114-modda quyidagi mazmundagi uchinchi va to‘rtinchi qismlar bilan to‘ldirilsin:

“Manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘yilgan holda tuzilgan bitim haqiqiy emas deb topilgan taqdirda, ushbu bitimni tuzish natijasida olingan foyda bitim bo‘yicha olingan hamma narsani qaytarib berish to‘g‘risida talab qo‘yilmagan holda, sud tartibida davlat daromadiga o‘tkaziladi. Bunday bitimni ijro etish bilan bog‘liq xarajatlarning o‘rni manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ygan shaxsning hisobidan qoplanadi.

Korrupsiyaga yo‘l qo‘yilgan holda tuzilgan bitim haqiqiy emas deb topilgan taqdirda, bunday bitimni tuzish natijasida jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan zararning o‘rni aybdor shaxslar tomonidan sud tartibida qoplanadi”;

2) 116-modda quyidagi mazmundagi ikkinchi qism bilan to‘ldirilsin:

“Korrupsiyaga, shu jumladan manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘yilgan holda tuzilgan bitim sud tartibida haqiqiy emas deb topiladi”.

3. O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvarda qabul qilingan “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘RQ-419-sonli Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2017-yil, № 1, 1-modda; 2019-yil, № 1, 5-modda, № 5, 267-modda; 2021-yil, 4-songa ilova) 3-moddasining to‘rtinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“**manfaatlar to‘qnashuvi —** shaxsning shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorligi uning o‘z lavozim yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir ko‘rsatayotgan yoxud ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari, qonuniy manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan (mavjud manfaatlar to‘qnashuvi) yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan (ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi) vaziyat”.

31-modda. Ushbu Qonunning ijrosini, yetkazilishini, mohiyati va ahamiyati tushuntirilishini ta’minlash

O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Adliya vazirligi va boshqa manfaatdor tashkilotlar ushbu Qonunning ijrosini, ijrochilarga yetkazilishini hamda mohiyati va ahamiyati aholi o‘rtasida tushuntirilishini ta’minlasin.

32-modda. Qonunchilikni ushbu Qonunga muvofiqlashtirish

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin;

respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari ushbu Qonunga zid bo‘lgan o‘z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko‘rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta’minlasin.

33-modda. Ushbu Qonunning kuchga kirishi

Ushbu Qonun rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran olti oy o‘tgach kuchga kiradi.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2024-yil 5-iyun,
O‘RQ-931-son

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

DAVLAT FUQAROLIK XIZMATI TO‘G‘RISIDA

Qonunchilik palatasi tomonidan 2022-yil 2-martda qabul qilingan
Senat tomonidan 2022-yil 28-mayda ma’qullangan

1-bob. Umumiy qoidalar

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi

Ushbu Qonunning maqsadi davlat fuqarolik xizmati sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

2-modda. Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risidagi qonunchilik

Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Davlat fuqarolik xizmatchilarining ushbu Qonun bilan tartibga solinmagan mehnatga oid munosabatlari O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi bilan tartibga solinadi.

3-modda. Ushbu Qonunning qo‘llanilish sohasi

Ushbu Qonunning amal qilishi Davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining davlat reyestriga kiritilgan lavozimlardagi davlat fuqarolik xizmatchilarining faoliyatiga nisbatan tatbiq etiladi.

Ushbu Qonunning amal qilishi:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlarining va Senati a’zolarining, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi hamda boshqa mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senati devonlari xodimlarining, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi a’zolarining, sudyalarning va sud tizimi xodimlarining, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi a’zolarining, prokuratura, ichki ishlar, mudofaa ishlari, favqulodda vaziyatlar, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, Davlat bojxona xizmati, Davlat xavfsizlik xizmati va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat xavfsizlik xizmati organlarida xizmatni o‘tayotgan davlat xizmatchilarining, shu jumladan harbiy xizmatchilarning;

davlat organlarining texnik, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish xodimlarining faoliyatiga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Ushbu Qonunning 24 va 43-moddalari diplomatiya xizmati xodimlariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Ushbu Qonunning 43-moddasi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki xodimlariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

4-modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

davlat organi — Davlat fuqarolik xizmati tatbiq qilinadigan davlat organlari va tashkilotlari ro‘yxatiga kiritilgan davlat hokimiyat vakolatlariga ega bo‘lgan tashkiliy jihatdan alohida tuzilma;

davlat fuqarolik xizmati — davlat xizmatining bir turi bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining davlat fuqarolik xizmati lavozimlaridagi davlat organlari vakolatlari amalga oshirilishini ta’minlashga doir haq to‘lanadigan kasbiy faoliyatini ifodalaydi;

davlat fuqarolik xizmatchisining kasbiy kompetensiyasi — davlat organining vakolatlarini lozim darajada amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilimlar, malakalar va ko‘nikmalar majmui;

davlat fuqarolik xizmati lavozimi — davlat organining vakolatlarini amalga oshirish uchun Davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining davlat reyestriga kiritilgan lavozim;

Davlat fuqarolik xizmatchilarining odob-axloq qoidalari — davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan rioya etilishi shart bo‘lgan odob-axloq normalari majmui;

malaka talablari — davlat fuqarolik xizmatining muayyan malaka darajasi berilishi va (yoki) davlat fuqarolik xizmatining muayyan lavozimini egallash uchun talabgor bo‘layotgan nomzodlarga nisbatan davlat organi tomonidan belgilanadigan, ish tajribasiga va kasbiy kompetensiyasiga doir talablar.

5-modda. Davlat fuqarolik xizmatining asosiy prinsiplari

Davlat fuqarolik xizmatining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

davlat fuqarolik xizmati tizimining yagonaligi va barqarorligi;

qonuniylik;

adolatlilik;

xalqqa xizmat qilish;

davlat organlarining va mansabdor shaxslarning jamiyat hamda fuqarolar oldida mas’ulligi;

inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi;

ochiqlik va shaffoflik;

xolislik, professionallik va kompetentlik;

davlat fuqarolik xizmatiga kirishda O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarning teng huquqliligi;

davlat fuqarolik xizmatchilarining huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilinishi.

2-bob. Davlat fuqarolik xizmati sohasida davlat boshqaruvi

6-modda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat fuqarolik xizmati sohasidagi vakolatlari

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti:

davlat fuqarolik xizmatini rivojlantirish va takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilaydi;

davlat fuqarolik xizmatini tashkil etish bilan bog‘liq tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni belgilaydi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolatlariga taalluqli davlat fuqarolik xizmati lavozimiga shaxslarni tayinlaydi va lavozimidan ozod qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qonunga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

7-modda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining davlat fuqarolik xizmati sohasidagi vakolatlari

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

vazirliklarning va boshqa davlat boshqaruvi organlarining davlat fuqarolik xizmati sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtiradi;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining vakolatlariga taalluqli davlat fuqarolik xizmati lavozimiga shaxslarni tayinlaydi va lavozimidan ozod qiladi;

davlat fuqarolik xizmati sohasidagi davlat dasturlari va loyihalarining moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlari ishlab chiqilishini o‘z vakolatlari doirasida ta’minlaydi hamda ularni tasdiqlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

8-modda. Maxsus vakolatli davlat organining davlat fuqarolik xizmati sohasidagi vakolatlari

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi davlat fuqarolik xizmati sohasidagi maxsus vakolatli davlat organidir (bundan buyon matnda maxsus vakolatli davlat organi deb yuritiladi).

Maxsus vakolatli davlat organi:

davlat fuqarolik xizmati sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshiradi;

davlat fuqarolik xizmati sohasidagi davlat dasturlari va loyihalarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

davlat organlarining kadrlar siyosati sohasidagi faoliyatini o‘z vakolatlari doirasida muvofiqlashtiradi;

davlat fuqarolik xizmatini rivojlantirish jarayonlari va istiqbollarining monitoringi hamda tahlilini amalga oshiradi, shuningdek mazkur sohani takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqadi;

davlat organlari rahbarlariga davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risidagi qonunchilikning aniqlangan buzilishlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish to‘g‘risida ko‘rib chiqilishi majburiy bo‘lgan taqdimnomalar kiritadi;

davlat fuqarolik xizmati sohasida kadrlarni boshqarish va inson resurslarini rivojlantirishning innovatsion usullarini joriy etadi;

davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyati samaradorligini baholashning (eng muhim ko‘rsatkichlariga oid) o‘lchanadigan indikatorlar tizimini joriy etadi va ularning natijalarini tahlil qiladi, jamoatchilik fikrini o‘rganadi hamda davlat organlari rahbarlarining ochiq reytingini shakllantirishda ishtirok etadi;

kadrlarni davlat fuqarolik xizmatiga tanlov asosida qabul qilishni tashkillashtiradi;

davlat fuqarolik xizmati sohasiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etadi va ularni izchil takomillashtirib boradi, davlat fuqarolik xizmatchilarining shaxsiga doir ma’lumotlarning xavfsizligini ta’minlagan holda ular to‘g‘risidagi ma’lumotlar bazasini shakllantiradi;

davlat fuqarolik xizmatchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga, shuningdek ularning mehnat faoliyati va ijtimoiy jihatdan himoya qilinishi uchun tegishli shart-sharoitlar yaratishga ko‘maklashadi;

davlat fuqarolik xizmati sohasida chet davlatlarning davlat organlari va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni amalga oshiradi, mazkur sohada O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarini tuzishda ishtirok etadi.

Maxsus vakolatli davlat organi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

9-modda. Davlat organlarining davlat fuqarolik xizmati sohasidagi vakolatlari

Davlat organlari:

davlat organlarida davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risidagi qonunchilikning ijrosini ta’minlaydi;

kadrlarni saralash va tanlash, davlat fuqarolik xizmatchilariga davlat fuqarolik xizmati lavozimlari malaka darajalari berish hamda xizmat tekshiruvlari o‘tkazish bo‘yicha komissiyalarning faoliyatini tashkil etadi;

davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan xizmat majburiyatlarining bajarilishini va davlat fuqarolik xizmatini o‘tash bilan bog‘liq bo‘lgan cheklovlarga rioya etilishini nazorat qiladi;

davlat fuqarolik xizmatchilarini qayta tayyorlashni, ularning malakasi oshirilishini va ta’lim olishini muntazam ravishda tashkil etadi.

Davlat organlari qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan vakolatlarni amalga oshirish maqsadida davlat organlarida kadrlar bo‘linmalari faoliyat yuritadi.

3-bob. Davlat fuqarolik xizmatchisining huquqiy maqomi

10-modda. Davlat fuqarolik xizmatchisi

Davlat fuqarolik xizmati lavozimida o‘z faoliyatini amalga oshirayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi davlat fuqarolik xizmatchisidir.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi davlat fuqarolik xizmati lavozimiga tayinlangan paytdan e’tiboran davlat fuqarolik xizmatchisining huquqiy maqomiga ega bo‘ladi va davlat fuqarolik xizmatchisining faoliyati tugatilishi munosabati bilan uni yo‘qotadi.

Qarindoshining sudlanganligi va bundan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar davlat fuqarolik xizmatiga qabul qilish va uni o‘tash chog‘ida O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining huquqlarini cheklash uchun asos bo‘lishi mumkin emas.

Davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining siyosiy guruhiga taalluqli davlat fuqarolik xizmatchilarining huquqiy maqomi bilan bog‘liq bo‘lgan qo‘shimcha huquqlar, majburiyatlar va cheklovlar alohida qonunchilik bilan belgilanadi.

11-modda. Davlat fuqarolik xizmatchisining huquqlari

Davlat fuqarolik xizmatchisi quyidagi huquqlarga ega:

o‘z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarning o‘ziga xos xususiyati va murakkabligiga, bajarilgan ishlarning miqdori hamda sifatiga muvofiq o‘z vaqtida va to‘liq hajmda ish haqi olish;

kasbiy kompetensiyalari va alohida xizmatlari uchun rag‘batlantirilish;

davlat organining mablag‘lari hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa mablag‘lar hisobidan muntazam ravishda malakasini oshirib borish;

mehnat to‘g‘risidagi qonunchilikda belgilangan tartibda hamda shartlarda mehnat shartnomasiga o‘zgartishlar kiritish va shartnomani bekor qilish;

o‘z mansab vakolatlarini, xizmat majburiyatlarini va javobgarligini belgilovchi lavozim yo‘riqnomasi va boshqa hujjatlar bilan tanishish;

mehnatni muhofaza qilish talablariga muvofiq bo‘lgan ish o‘rniga ega bo‘lish;

ish vaqti davomiyligining chegarasini, ayrim davlat fuqarolik xizmatchilari uchun qisqartirilgan ish vaqtini belgilash, har haftalik dam olish kunlari, ishlanmaydigan bayram kunlari, shuningdek yillik mehnat ta’tillari berish orqali ta’minlanadigan tarzda dam olish;

qonunchilikka muvofiq huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilinish, shuningdek davlat pensiya ta’minotini olish;

davlat organining qonunga xilof qarorlari va uning mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilish;

davlat organi rahbariyatining noqonuniy topshiriq va talablarini bajarishdan bosh tortish;

davlat fuqarolik xizmatidagi korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar faktlari to‘g‘risida xabar bergan taqdirda, davlat himoyasi bilan ta’minlanish;

xizmatga oid masalalar yuzasidan davlat organining rahbariyatiga o‘z fikrini bildirish, o‘zi davlat fuqarolik xizmatini o‘tayotgan davlat organining faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha takliflar kiritish;

o‘zining sha’ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro‘si davlat organining rahbariyati hamda boshqa mansabdor shaxslar tomonidan hurmat qilinishi;

davlat organi tomonidan qayta tayyorlash va malaka oshirishga yuborilgan taqdirda, shuningdek qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa hollarda davlat fuqarolik xizmati lavozimining va ish haqining saqlanib qolishi;

qonunchilikda belgilangan tartibda davlat fuqarolik xizmatini o‘tash vaqtida yetkazilgan moddiy zararning o‘rni qoplanishi va ma’naviy ziyonning kompensatsiya qilinishi;

o‘zining mehnat huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilish;

davlat fuqarolik xizmati masalalari yuzasidan maxsus vakolatli davlat organiga murojaat qilish;

o‘zining shaxsiy hujjatlari to‘plami bilan tanishish.

Davlat fuqarolik xizmatchisi qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

12-modda. Davlat fuqarolik xizmatchisining majburiyatlari

Davlat fuqarolik xizmatchisi:

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari va boshqa qonunchilik hujjatlariga rioya etishi;

o‘z xizmat majburiyatlarini vijdonan bajarishi, davlat organi tomonidan belgilangan odob-axloq qoidalariga, xizmatga oid axborot bilan ishlash tartibiga, shuningdek davlat fuqarolik xizmatini o‘tash bilan bog‘liq boshqa qoidalarga rioya etishi;

ushbu Qonunda belgilangan, davlat fuqarolik xizmatini o‘tash bilan bog‘liq bo‘lgan cheklovlarga rioya etishi;

manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymasligi, beg‘araz va xolis bo‘lishi;

davlat organining nufuzini tushirishga olib kelishi yoki uning o‘z xizmat majburiyatlarini vijdonan bajarishiga shubha tug‘dirishi mumkin bo‘lgan harakatlardan (harakatsizlikdan), shu jumladan o‘z xizmat majburiyatlarini bajarayotganda har qanday shakldagi kamsitishdan, noxolislikdan yoki kimgadir nisbatan alohida munosabatda bo‘lishdan tiyilishi;

o‘z xizmat mavqeyidan shaxsiy va boshqa g‘ayriqonuniy maqsadlarda foydalanmasligi, shuningdek o‘z xizmat faoliyatiga, davlat organlari, ularning mansabdor shaxslari va fuqarolarning faoliyatiga qonunga xilof ta’sir ko‘rsatilishiga yo‘l qo‘ymasligi;

davlat sirlarini yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi ma’lumotlarni muhofaza qilish to‘g‘risidagi talablarga rioya etishi, shuningdek o‘z xizmat majburiyatlarini bajarishi chog‘ida olingan mazkur ma’lumotlarni oshkor qilmasligi, shu jumladan davlat fuqarolik xizmatchisining faoliyati tugaganidan keyin oshkor etmasligi;

qonunda belgilangan muddatlarda va tartibda daromadlari va mol-mulki to‘g‘risidagi deklaratsiyani taqdim etishi;

davlat mulkining but saqlanishini ta’minlashi, o‘ziga ishonib topshirilgan davlat mulkidan faqat xizmat maqsadlarida foydalanishi;

o‘zining kasbiy kompetensiyasini muntazam ravishda oshirib borishi shart.

Davlat fuqarolik xizmatchilarining zimmasida qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

13-modda. Davlat fuqarolik xizmatini o‘tash bilan bog‘liq cheklovlar

Davlat fuqarolik xizmatchisi quyidagilarga haqli emas:

o‘zaro yaqin qarindoshlikda yoki quda tomondan qarindosh bo‘lgan shaxslar bilan (ota-onalar, aka-ukalar, opa-singillar, o‘g‘illar, qizlar, er-xotinlar, shuningdek er-xotinlarning ota-onalari, aka-ukalari, opa-singillari va farzandlari) aynan bitta davlat organida birga xizmat qilishi, agar ularning birga xizmat qilishi ulardan birining ikkinchisiga bevosita bo‘ysunishiga yoki uning nazorati ostida bo‘ladigan davlat fuqarolik xizmati lavozimini egallashga, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno;

pedagogik, ilmiy va ijodiy faoliyatdan tashqari haq to‘lanadigan boshqa faoliyat bilan shug‘ullanishga, O‘zbekiston Respublikasi qonunlarida hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlarida nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno;

tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishga;

tadbirkorlik faoliyati subyektlarini tashkil etishga, ularning muassisi (ishtirokchisi) bo‘lishga, tadbirkorlik faoliyati subyektida tashkiliy-boshqaruv, ma’muriy-xo‘jalik vazifalarini bajarishga, bundan aksiyadorlik jamiyatlarining erkin muomalada bo‘lgan aksiyalariga qonunchilikda belgilangan talablar doirasida egalik qilish hollari mustasno;

o‘zi xizmat qilayotgan davlat organi nazorati ostidagi yoki u bilan aloqalar va manfaatlarga ega bo‘lgan tashkilotlardagi ulushlarni, paylarni va aksiyalarni bevosita yoki vakillar orqali olishga;

o‘z xizmat vakolatlarini jismoniy va yuridik shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab bajarish yoki bajarmaslik evaziga ulardan biron-bir mukofot, foyda yoki sovg‘alar olishga;

chet davlat fuqaroligini olishga;

qonunchilikda nazarda tutilmagan imtiyozlar, preferensiyalar yoki afzalliklardan o‘z xizmat mavqeyi bilan bog‘liq holda foydalanishga;

O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida hisobvaraqlar ochishga va ularga ega bo‘lishga, ko‘chmas mulkka va boshqa mol-mulkka egalik qilishga, bundan chet davlatda ta’lim olish, stajirovka o‘tash va tibbiy xizmatlardan foydalanish maqsadida ochilgan hisobvaraqlar, shuningdek davlat fuqarolik xizmatiga kirishdan oldin olingan va oshkor qilingan mol-mulk mustasno;

o‘zining vakolatlarini siyosiy partiyalarning, boshqa jamoat birlashmalarining va ular organlarining manfaatlarini ko‘zlab amalga oshirishga.

Tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanib kelayotgan shaxs davlat fuqarolik xizmatiga qabul qilingandan so‘ng tadbirkorlik faoliyatini to‘xtatib turish tartibi qonunchilik hujjatlari bilan belgilanadi.

Davlat fuqarolik xizmatchisi shug‘ullanishi mumkin bo‘lmagan haq to‘lanadigan faoliyat turlari ro‘yxati korrupsiyaga qarshi kurashish va davlat fuqarolik xizmati bo‘yicha maxsus vakolatli davlat organlari tomonidan belgilanadi.

Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan cheklovlarga rioya etmaganlik davlat fuqarolik xizmatchisini qonunga muvofiq intizomiy va boshqa javobgarlikka tortish uchun asos bo‘ladi.

14-modda. Davlat fuqarolik xizmatchisining javobgarligi

Davlat fuqarolik xizmatchisining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi), shuningdek xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarmaganligi qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo‘ladi.

Davlat fuqarolik xizmatchisining harakatlari (harakatsizligi) o‘zining huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilishiga sabab bo‘ldi deb hisoblovchi jismoniy yoki yuridik shaxs bunday harakatlar (harakatsizlik) ustidan yuqori turuvchi organga yoki sudga shikoyat qilishga haqli.

Davlat fuqarolik xizmatchisining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) tufayli jismoniy yoki yuridik shaxslarga yetkazilgan zararning o‘rni qonunchilikda belgilangan tartibda davlat organi tomonidan qoplanib, ushbu zarar keyinchalik aybdor bo‘lgan davlat fuqarolik xizmatchisidan undirib olinadi.

Davlat organi rahbarining yoki mansabdor shaxslarning qonunga xilof topshirig‘ini bajarish natijasida davlat fuqarolik xizmatchisi tomonidan yetkazilgan zararning o‘rni qonunchilikda belgilangan tartibda davlat organi tomonidan qoplanadi. Zarar miqdori qonunga xilof topshiriqni bergan davlat organi rahbaridan yoki mansabdor shaxsidan regress tartibida undiriladi.

4-bob. Davlat fuqarolik xizmati sohasida korrupsiyaga qarshi kurashish

15-modda. Davlat fuqarolik xizmati sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar

Davlat fuqarolik xizmati sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar quyidagilardan iborat:

davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga yo‘l qo‘yilmasligi;

Davlat fuqarolik xizmatchilarining odob-axloq qoidalariga rioya etilishini ta’minlash;

davlat fuqarolik xizmatchisining manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish va hal qilishning tashkiliy-huquqiy asoslarini yaratish, ularga rioya etilishi ustidan monitoring va nazorat o‘tkazilishini ta’minlash;

davlat fuqarolik xizmatchisining daromadlari va mol-mulkini deklaratsiyalash tizimini joriy etish;

davlat fuqarolik xizmatchisi tomonidan sovg‘alar olish va berish tartibini belgilash;

davlat fuqarolik xizmatchisining ijtimoiy jihatdan himoya qilinishini, moddiy ta’minot olishini va rag‘batlantirilishini ta’minlash.

Qonunchilikda davlat fuqarolik xizmati sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir boshqa chora-tadbirlar ham nazarda tutilishi mumkin.

16-modda. Davlat fuqarolik xizmatchisining korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabati

Davlat fuqarolik xizmatchisi korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatda bo‘lishi va korrupsiyaga olib kelishi mumkin bo‘lgan harakatlarning (harakatsizlikning) oldini olishi shart.

Agar davlat fuqarolik xizmatchisi korrupsiya faktlari to‘g‘risidagi axborotga ega bo‘lsa, u korrupsiyaning oldini olish uchun zarur choralar ko‘rishi, shu jumladan yuqori turuvchi davlat organini (mansabdor shaxsini) yoki korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha maxsus vakolatli

davlat organini darhol xabar qilishi yoxud huquqni muhofaza qiluvchi organga murojaat etishi kerak.

Korrupsiya faktlari to‘g‘risida xabar bergan davlat fuqarolik xizmatchisiga qonunchilikda belgilangan tartibda davlat himoyasi ta’minlanadi.

17-modda. Davlat fuqarolik xizmatchilarining odob-axloq qoidalari

Davlat fuqarolik xizmatchilarining odob-axloq qoidalarida quyidagilar belgilanadi:

rahbarlar, bo‘ysunuvdagilar va boshqa davlat fuqarolik xizmatchilari o‘rtasidagi o‘zaro axloqiy munosabatlar;

davlat fuqarolik xizmatchisining ishchanlik obro‘siga va davlat fuqarolik xizmatining nufuziga putur yetkazishi mumkin bo‘lgan harakatlar (harakatsizlik);

davlat fuqarolik xizmatchisining xizmat faoliyatidagi va xizmatdan tashqaridagi xulq-atvorining asosiy qoidalari.

Davlat fuqarolik xizmatchilarining odob-axloq qoidalarini buzish ularni qonunga muvofiq intizomiy va boshqa javobgarlikka tortish uchun asos bo‘ladi.

Davlat fuqarolik xizmatchilarining odob-axloq qoidalariga rioya etilishi ustidan nazorat davlat organlarining kadrlar bo‘linmalari yoki odob-axloq komissiyalari, shuningdek maxsus vakolatli davlat organi tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat fuqarolik xizmatchilarining odob-axloq qoidalari qonunchilikda belgilanadi. Har bir davlat organi Davlat fuqarolik xizmatchilarining odob-axloq qoidalari asosida faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘zining ichki odob-axloq qoidalarini tasdiqlaydi.

18-modda. Davlat fuqarolik xizmatida sovg‘alarga nisbatan munosabatda bo‘lish shartlari

Davlat fuqarolik xizmatida davlat fuqarolik xizmatchisiga (uning oila a’zolariga) bepul berilgan, moddiy qimmatga ega bo‘lgan mol-mulk yoki davlat fuqarolik xizmatchisiga (uning oila a’zolariga) beg‘araz ko‘rsatilgan xizmat sovg‘a hisoblanadi.

Davlat fuqarolik xizmatchisining xizmat vakolatlarini jismoniy va yuridik shaxslar manfaatlarini ko‘zlab bajarish yoki bajarmaslik evaziga ulardan har qanday sovg‘alar olish taqiqlanadi. Bundan davlat fuqarolik xizmatchisi tomonidan alohida xizmatlari uchun davlat organining tegishli qarori asosida olingan sovg‘alar, shuningdek musobaqalar va tanlovlarda erishgan yutuqlari, davlat bayramlari, nishonlanadigan sanalar hamda boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan mukofotlash natijasida olingan sovg‘alar mustasno.

Davlat fuqarolik xizmatchilari xizmat safarlari vaqtida, shuningdek xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan sovg‘alar olishi mumkin.

Davlat fuqarolik xizmatchisi tomonidan xizmat safarlari, xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan olinishi mumkin bo‘lgan sovg‘a qiymati, shuningdek uni tasarruf etish tartibi korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha maxsus vakolatli davlat organi tomonidan belgilanadi.

19-modda. Manfaatlar to‘qnashuvi

Manfaatlar to‘qnashuvi davlat fuqarolik xizmatchisining shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorligi uning o‘z xizmat vakolatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir ko‘rsatadigan yoxud ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda fuqarolarning, jamiyatning yoki davlat organining shaxsiy manfaatdorligi va huquqlari, qonuniy manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga keladigan yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan vaziyatdir.

Manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelgan taqdirda, davlat fuqarolik xizmatchisi o‘zining rahbariga yoki yuqori turuvchi davlat organiga darhol yozma shaklda xabar qilishi kerak.

Manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligi to‘g‘risida ma’lumotlar olgan davlat organining rahbari yoki yuqori turuvchi davlat organi ushbu to‘qnashuvni bartaraf etish yuzasidan o‘z vaqtida choralar ko‘rishi shart.

Manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish va hal etish tartibi qonun bilan belgilanadi.

20-modda. Davlat fuqarolik xizmatchisi tomonidan daromadlari va mol-mulkini deklaratsiyalash

Davlat fuqarolik xizmatchisi qonunda belgilangan muddatlarda va tartibda daromadlari hamda mol-mulki to‘g‘risida deklaratsiya taqdim etishi shart.

5-bob. Davlat fuqarolik xizmatini tashkil etish

21-modda. Davlat fuqarolik xizmati tizimi

Davlat fuqarolik xizmati tizimi davlat fuqarolik xizmatchilarini markazlashtirilgan tarzda tanlab olish, hisobga olish, joy-joyiga qo‘yish, ularning mehnatiga haq to‘lash, kasbiy kompetensiyasini oshirish va xizmatda lavozim bo‘yicha ko‘tarish mexanizmlarining yagona tashkiliy-huquqiy majmuidir.

Belgilangan malaka talablariga muvofiq bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasining barcha fuqarolariga davlat fuqarolik xizmatiga kirish uchun teng imkoniyatlar kafolatlanadi.

Zimmasiga yuklatilgan vazifalarni samarali amalga oshirish uchun kasbiy kompetensiyasini shakllantirish davlat fuqarolik xizmatchisini qayta tayyorlashni, uning malakasini oshirishni, ta’lim olishini tashkil etish hisobidan ta’minlanadi.

Davlat fuqarolik xizmatchisini tegishli ravishda rag‘batlantirish va xizmatda lavozim bo‘yicha ko‘tarish uning kasbiy kompetensiyalarini hamda alohida xizmatlarini xolisona va adolatli baholash asosida ta’minlanadi.

22-modda. Davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining davlat reyestri

Davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining davlat reyestri davlat organi darajasidan (milliy, respublika, hududiy va tuman) kelib chiqqan holda, malaka talablariga muvofiq birxillashtirilgan va tasniflangan davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining guruhlari hamda toifalaridan, shuningdek davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining malaka darajalaridan iborat bo‘ladi.

Davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining davlat reyestri O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi hamda maxsus vakolatli davlat organi tomonidan yuritiladi.

Davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining davlat reyestri, shuningdek unga kiritilgan o‘zgartish va qo‘shimchalar maxsus vakolatli davlat organining rasmiy veb-saytida e’lon qilinadi.

23-modda. Davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining guruhlari va toifalari

Davlat fuqarolik xizmati lavozimlari siyosiy, boshqaruv va yordamchi lavozim guruhlaridan iboratdir. Bunda mazkur guruhlarga tegishli lavozimlarning toifalari Davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining davlat reyestrida belgilanadi.

Davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining siyosiy guruhiga taalluqli davlat fuqarolik xizmatchilarini lavozimga tayinlash va lavozimidan ozod qilish tartibi alohida qonunlar hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari bilan belgilanadi.

Davlat fuqarolik xizmatchilari davlat fuqarolik xizmatining boshqaruv va yordamchi guruhlariga taalluqli davlat fuqarolik xizmati lavozimlariga tanlov asosida tayinlanadi hamda davlat organi rahbari tomonidan lavozimidan ozod qilinadi.

24-modda. Davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining malaka darajalari

Davlat fuqarolik xizmatchilariga davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining guruhlari va toifalaridan kelib chiqqan holda davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining quyidagi malaka darajalari beriladi:

Davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining guruhlari	Davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining toifalari	Davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining malaka darajalari
Siyosiy	**Rahbar kadrlar**	Oliy darajali maslahatchi
		1-darajali maslahatchi
		2-darajali maslahatchi
		3-darajali maslahatchi
Boshqaruv	**Boshqaruv kadrlari**	1-darajali xizmatchi
		2-darajali xizmatchi
		3-darajali xizmatchi
Yordamchi	**Mutaxassislar**	4-darajali xizmatchi

5-darajali xizmatchi
6-darajali xizmatchi

Davlat fuqarolik xizmatchilariga davlat fuqarolik xizmati lavozimlari malaka darajalari (bundan buyon matnda malaka darajalari deb yuritiladi), qoida tariqasida, izchil tartibda, oliy ma’lumotga va muayyan ish stajiga, malaka oshirish kurslarini tugatganligi to‘g‘risidagi sertifikatga, malaka komissiyasining ijobiy xulosasiga ega bo‘lgan taqdirda beriladi.

Davlat fuqarolik xizmatchilariga malaka darajalarini berish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanadi.

25-modda. Milliy kadrlar zaxirasi

Milliy kadrlar zaxirasi davlat fuqarolik xizmatchilarining rahbarlik lavozimlarini malakali kadrlar bilan to‘ldirish maqsadida davlat fuqarolik xizmatchilarini markazlashtirilgan holda saralab olish, tayyorlash, qayta tayyorlash va uzluksiz malakasini oshirish tizimidir.

Milliy kadrlar zaxirasi davlat fuqarolik xizmatining rahbar kadrlar tarkibini barqaror ta’minlash va uning sifatini yaxshilash, davlat fuqarolik xizmatchisining kasbiy kompetensiyasini oshirish hamda xizmatda lavozim bo‘yicha ko‘tarish maqsadida shakllantiriladi.

Milliy kadrlar zaxirasini shakllantirish va yuritish O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanadigan tartibda maxsus vakolatli davlat organi tomonidan amalga oshiriladi.

26-modda. Davlat fuqarolik xizmati sohasidagi monitoring

Davlat fuqarolik xizmati tizimida yagona tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni qo‘llashning bir xil amaliyotini ta’minlash maqsadida maxsus vakolatli davlat organi tomonidan davlat organida monitoring o‘tkaziladi.

Monitoring davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risidagi qonunchilikning davlat organi tomonidan ijro etilishini o‘rganish yo‘li bilan o‘tkaziladi.

Monitoring natijasida davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risidagi qonunchilik buzilganligi aniqlangan taqdirda, maxsus vakolatli davlat organi tegishli davlat organi rahbariga davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risidagi qonunchilikning aniqlangan buzilishlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish haqida ko‘rib chiqilishi majburiy bo‘lgan taqdimnomalar kiritadi.

Monitoring o‘tkazish tartibi maxsus vakolatli davlat organi tomonidan belgilanadi.

6-bob. Davlat fuqarolik xizmatiga kirish tartibi va shartlari

27-modda. Davlat fuqarolik xizmatiga kirish

Davlat fuqarolik xizmatiga kirish tanlov asosida nomzodni davlat fuqarolik xizmati lavozimiga tayinlash orqali amalga oshiriladi, bundan davlat fuqarolik xizmati lavozimlarini qonunchilikda nazarda tutilgan boshqacha tartib bo‘yicha egallash mustasno.

28-modda. Davlat fuqarolik xizmatiga qabul qilish shartlari

Davlat fuqarolik xizmatiga davlat tilini biladigan, davlat fuqarolik xizmati lavozimlarini egallash uchun tegishli malaka talablariga va boshqa talablarga javob beradigan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari qabul qilinadi.

Chet el mutaxassislari va ekspertlari davlat fuqarolik xizmati lavozimlarini qonunchilikda belgilangan tartibda egallashi mumkin. Chet el mutaxassislari va ekspertlarining xizmatni o‘tash tartibi hamda shartlari tegishli shartnoma asosida belgilanadi.

Quyidagilar davlat fuqarolik xizmatiga qabul qilinishi mumkin emas:

o‘n sakkiz yoshga to‘lmagan shaxslar, agar davlat fuqarolik xizmati lavozimiga doir malaka talablarida boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa;

sud tomonidan muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan shaxslar;

sudning qarori bilan muayyan muddatga davlat fuqarolik xizmati lavozimlarini egallash huquqidan mahrum qilingan shaxslar;

korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etishda sud tomonidan aybdor deb topilgan shaxslar;

og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlarni sodir etganlik uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki olib tashlanmagan shaxslar;

tibbiy xulosaga asosan sog‘lig‘ining holati davlat fuqarolik xizmati lavozimini egallash imkonini bermaydigan shaxslar;

davlat fuqarolik xizmatini o‘tash bilan bog‘liq bo‘lgan, ushbu Qonun 13-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan cheklovlarga rioya etishni rad qilgan shaxslar.

29-modda. Davlat fuqarolik xizmati lavozimini egallash

Davlat fuqarolik xizmati lavozimini egallash tanlov asosida amalga oshiriladi, bundan qonunchilik bilan belgilangan kafolatlarga muvofiq oldingi lavozimni yoki unga teng bo‘lgan lavozimni taqdim etish hollari, shuningdek ushbu Qonunning 39 va 41-moddalarida nazarda tutilgan holatlar mustasno.

Davlat fuqarolik xizmati lavozimini egallash uchun nomzodlarga jinsi, irqi, millati, tili, dini, e’tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeyidan qat’i nazar, huquqlarining tengligi kafolatlanadi.

Davlat fuqarolik xizmatining bo‘sh turgan (vakant) lavozimini egallash maxsus vakolatli davlat organining axborot tizimi orqali o‘tkaziladigan ichki va tashqi tanlovlar asosida amalga oshiriladi.

Ichki tanlovlarda faqat davlat fuqarolik xizmatchilari, tashqi tanlovlarda esa tegishli malaka talablariga javob beradigan barcha O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari ishtirok etish huquqiga ega.

Tanlov o‘tkaziladigan davlat fuqarolik xizmati lavozimlari va tanlov o‘tkazish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanadi.

30-modda. Mehnat shartnomasi

Davlat fuqarolik xizmatiga kirayotgan shaxs bilan mehnat shartnomasi mehnat qonunchiligi asosida muayyan yoki nomuayyan muddatga yozma shaklda tuziladi.

Davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining siyosiy guruhiga kiruvchi davlat fuqarolik xizmatchilari bilan mehnat shartnomasi tuzilmaydi.

Mehnat shartnomasida davlat fuqarolik xizmatini o‘tashning asoslari va shartlari, davlat fuqarolik xizmatchisining huquqlari, majburiyatlari hamda javobgarligi, davlat fuqarolik xizmatini o‘tash bilan bog‘liq cheklovlar, shuningdek uni huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilishga taalluqli qoidalar ko‘rsatiladi.

Davlat fuqarolik xizmatchisi bilan tuziladigan mehnat shartnomasiga doir namunaviy talablar maxsus vakolatli davlat organi tomonidan belgilanadi.

31-modda. Davlat fuqarolik xizmatchisining shaxsiy hujjatlari to‘plami

Davlat fuqarolik xizmatchisining shaxsiy hujjatlari to‘plami uning shaxsga doir ma’lumotlardan va u tomonidan davlat fuqarolik xizmatini o‘tash to‘g‘risidagi axborotdan iboratdir.

Davlat fuqarolik xizmatchisining shaxsiy hujjatlari to‘plami davlat organining kadrlar bo‘linmasi tomonidan yuritiladi.

Davlat fuqarolik xizmatchisining shaxsiy hujjatlari to‘plami elektron shaklda yuritiladi.

Davlat fuqarolik xizmatchisining shaxsiy hujjatlari to‘plamiga davlat fuqarolik xizmatini o‘tash bilan bog‘liq bo‘lmagan axborotni kiritish, shuningdek shaxsiy hujjatlar to‘plamidagi axborotni uchinchi shaxslarga davlat fuqarolik xizmatchisining roziligisiz berish taqiqlanadi, bundan qonunchilikda belgilangan hollar mustasno.

32-modda. Davlat fuqarolik xizmatchisining xizmat guvohnomasi

Davlat fuqarolik xizmatchisiga maxsus vakolatli davlat organi tomonidan belgilangan shakldagi xizmat guvohnomasi beriladi.

Xizmat guvohnomasida davlat fuqarolik xizmatchisi egallagan lavozimi, uning malaka darajasi, davlat organining to‘liq nomi, guvohnoma berilgan sana va uning amal qilish muddati ko‘rsatiladi.

Xizmat guvohnomasi davlat fuqarolik xizmatchisi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tasdiqlaydigan identifikatsiyalovchi karta ko‘rinishida ham berilishi mumkin.

Xizmat guvohnomasini boshqa shaxslarga berish mumkin emas.

Xizmat guvohnomasining amal qilish muddati o‘tgan yoki davlat fuqarolik xizmatchisi lavozimdan ozod etilgan taqdirda, shuningdek qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa hollarda xizmat guvohnomasi uni bergan davlat organiga qaytariladi.

7-bob. Davlat fuqarolik xizmatini o‘tash tartibi

33-modda. Davlat fuqarolik xizmatini o‘tash

Davlat fuqarolik xizmatini o‘tash muddati davlat fuqarolik xizmati lavozimiga tayinlangan paytdan e’tiboran to davlat fuqarolik xizmatchisining faoliyati ushbu Qonunning 50-moddasida nazarda tutilgan asoslarga ko‘ra tugatilgan sanaga qadar bo‘lgan davrni qamrab oladi.

Davlat fuqarolik xizmatini o‘tash mehnat shartnomasi asosida amalga oshiriladi va quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

davlat fuqarolik xizmatchisining ish vaqtini;

davlat fuqarolik xizmatchisining lavozim yo‘riqnomasini;

davlat fuqarolik xizmatchisining faoliyat samaradorligini baholashni;

davlat fuqarolik xizmatida lavozim bo‘yicha ko‘tarilishni;

boshqa davlat fuqarolik xizmati lavozimiga o‘tkazishni, shu jumladan rotatsiya tartibida o‘tkazishni va xizmat safarlarini;

davlat fuqarolik xizmatchisining kasbiy kompetensiyasini uzluksiz ravishda oshirishni;

davlat fuqarolik xizmatchilarining mehnatiga haq to‘lashning yagona tartibini;

davlat fuqarolik xizmatchilariga nisbatan rag‘batlantirish yoki intizomiy jazo choralarini qo‘llashni.

Davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining siyosiy guruhiga kiruvchi davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan davlat fuqarolik xizmatini o‘tash tartibi O‘zbekiston Respublikasining alohida qonunlarida va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlarida belgilanadi.

34-modda. Davlat fuqarolik xizmatchilarining ish vaqti

Davlat organida davlat fuqarolik xizmatchisi uchun besh kunlik ish haftasi belgilanadi. Bunda ish vaqtining davomiyligi haftasiga qirq soatdan oshmasligi kerak.

Uch yoshga to‘lmagan bolalari bor davlat fuqarolik xizmatchilari bo‘lgan ota-onasidan biriga (ota-onaning o‘rnini bosuvchi shaxsga) haftasiga o‘ttiz besh soatdan oshmaydigan ish vaqti davomiyligi belgilanadi.

Davlat fuqarolik xizmatchisi xizmat faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlariga qarab, ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan ish vaqtining davomiyligi hisobga olingan, ichki mehnat tartibi qoidalariga rioya etilgan holda olti kunlik ish haftasi belgilanishi mumkin.

Davlat organi tomonidan davlat fuqarolik xizmatchisi uchun o‘rnatilgan ish vaqtining davomiyligidan tashqari ish ish vaqtidan tashqari ish deb hisoblanadi.

Tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar yuz bergan taqdirda, davlat organi davlat fuqarolik xizmatchisini uning roziligisiz ish vaqtidan tashqari ishga jalb etishi mumkin.

Davlat fuqarolik xizmatchilarini ish vaqtidan tashqari hamda dam olish kunlari va ishlanmaydigan bayram kunlari ishlarga jalb etish mehnat to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga rioya etilgan holda, davlat organi rahbarining qarori asosida amalga oshiriladi.

Davlat fuqarolik xizmatchisining ish vaqtidan tashqari ishi uchun kompensatsiya ish vaqtidan tashqari haqiqatda ishlab berilgan soatlariga kamida ikki hissa miqdorida haq to‘lash yoki ortiqcha ishlagan vaqtining davomiyligiga mos bo‘lgan qo‘shimcha dam olish vaqti berish orqali amalga oshiriladi.

35-modda. Davlat fuqarolik xizmatchisining lavozim yo‘riqnomasi

Davlat fuqarolik xizmatchisining lavozim yo‘riqnomasi davlat fuqarolik xizmatchisining mansab vakolatlarini, xizmat majburiyatlarini va javobgarligini belgilaydigan hujjatdir.

Davlat fuqarolik xizmatchisining lavozim yo‘riqnomasi davlat organining rahbari tomonidan tasdiqlanadi yoki qonunchilikda belgilanadi.

Davlat fuqarolik xizmatchisi mehnat shartnomasini imzolashdan oldin davlat fuqarolik xizmatchisi lavozim yo‘riqnomasi bilan imzo qo‘ydirib tanishtirilishi kerak.

36-modda. Davlat fuqarolik xizmatchisi faoliyatining samaradorligini baholash

Davlat fuqarolik xizmatchisini rag‘batlantirish hamda xolisona va adolatli mezonlar asosida xizmatda lavozim bo‘yicha ko‘tarilishini ta’minlash uchun uning faoliyati samaradorligini eng muhim ko‘rsatkichlar asosida baholash tizimi joriy etiladi.

Davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatining samaradorligini eng muhim ko‘rsatkichlar asosida baholash uslubiyati maxsus vakolatli davlat organi tomonidan belgilanadi.

Davlat organi davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatining samaradorligini baholash uslubiyatiga muvofiq faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘z ichki tartibini belgilaydi.

37-modda. Davlat fuqarolik xizmati bo‘yicha ko‘tarilish

Davlat fuqarolik xizmati bo‘yicha ko‘tarilish davlat fuqarolik xizmatchisining o‘z kasbiy kompetensiyasini uzluksiz ravishda oshirib borishi hisobiga xizmat faoliyatining natijadorligi asosida yuqoriroq lavozimga tayinlash yoki yuqoriroq malaka darajasini berish orqali amalga oshiriladi.

38-modda. Boshqa davlat fuqarolik xizmati lavozimiga o‘tkazish

Davlat fuqarolik xizmatchisini boshqa davlat fuqarolik xizmati lavozimiga o‘tkazish uning yozma roziligi bilan amalga oshiriladi.

Tibbiy xulosaga asosan sog‘lig‘ining holatiga ko‘ra, o‘z egallab turgan lavozimi bo‘yicha xizmat majburiyatlarini bajara olmaydigan davlat fuqarolik xizmatchisiga uning yozma roziligi bilan kasbiy kompetensiyalariga mos bo‘lgan va sog‘lig‘ining holati bo‘yicha qarshi ko‘rsatma mavjud bo‘lmagan boshqa davlat fuqarolik xizmati lavozimi beriladi.

39-modda. Davlat fuqarolik xizmatchisining rotatsiyasi

Davlat fuqarolik xizmatchisining rotatsiyasi uning shaxsiy va kasbga oid sifatlarini rivojlantirish, faoliyatining samaradorligini oshirish, rahbar kadrlar zaxirasini shakllantirish hamda korrupsiyaviy xavf-xatarlarning oldini olish maqsadida amalga oshiriladi.

Davlat fuqarolik xizmatchisining rotatsiyasi uni egallab turgan davlat fuqarolik xizmati lavozimiga teng bo‘lgan boshqa lavozimga o‘z roziligi bilan o‘tkazish orqali amalga oshiriladi.

Davlat fuqarolik xizmatida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida majburiy ravishda rotatsiya qilinishi lozim bo‘lgan davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining ro‘yxati belgilanadi. Ushbu lavozimlarni egallab turgan davlat fuqarolik xizmatchilarining rotatsiyasi ularning roziligisiz amalga oshiriladi.

Quyidagi davlat fuqarolik xizmatchilari rotatsiya qilinmaydi:

tayyorlash, qayta tayyorlashdan va malaka oshirishdan o‘tayotgan;

homilador ayollar, shuningdek uch yoshga to‘lmagan bolalari bor ayollar;

tibbiy xulosaga asosan o‘zlarining yoki ular bilan birga yashovchi oila a’zolari sog‘lig‘ining holati rotatsiya o‘tkazilayotgan davlat fuqarolik xizmati lavozimi bo‘yicha xizmat majburiyatlarini amalga oshirish imkoniyatini bermaydiganlar.

Davlat fuqarolik xizmatchisining rotatsiyasi shartlari mehnat shartnomasida nazarda tutiladi.

Davlat fuqarolik xizmatchisi rotatsiya to‘g‘risidagi qarordan norozi bo‘lgan taqdirda yuqori turuvchi davlat organiga yoki maxsus vakolatli davlat organiga yoxud sudga shikoyat qilishga haqli.

Davlat fuqarolik xizmatida rotatsiya qilish tartibi, majburiy ravishda rotatsiya qilinishi lozim bo‘lgan davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining ro‘yxati, shuningdek rotatsiya qilinadigan lavozimlarda bo‘lish muddati O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanadi.

40-modda. Davlat fuqarolik xizmatchisining xizmat safarlari

Davlat fuqarolik xizmatchisi xizmat vazifasini bajarish uchun davlat organining qaroriga muvofiq muayyan muddatga xizmat safariga yuboriladi. Xizmat safari O‘zbekiston Respublikasi hududida yoki uning hududidan tashqarida amalga oshirilishi mumkin.

Davlat fuqarolik xizmatchisining xizmat safari davomiyligi davlat organi rahbari tomonidan xizmat vazifasining hajmi, murakkabligi va boshqa jihatlari hisobga olingan holda belgilanadi.

Davlat fuqarolik xizmatchisini xizmat safariga yuborish chog‘ida uning lavozimi va o‘rtacha ish haqi saqlanadi, yashash bilan bog‘liq xarajatlar, transport xarajatlari, shuningdek xizmat safari bilan bog‘liq boshqa xarajatlarning o‘rni davlat organi tomonidan qoplanadi.

Davlat fuqarolik xizmatchisining xorijiy mamlakatlarga xizmat safarini tashkil etish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanadi.

41-modda. Davlat fuqarolik xizmatchisini boshqa davlat organiga vaqtincha xizmat safariga yuborish

Davlat fuqarolik xizmatchisi boshqa davlat organining davlat fuqarolik xizmati lavozimiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarish uchun bir yildan ko‘p bo‘lmagan muddatga vaqtincha xizmat safariga yuborilishi mumkin. Bunda davlat fuqarolik xizmatchisining mehnatiga haq to‘lash u vaqtincha xizmat safariga yuborilgan davlat organi bilan alohida tuziladigan muddatli mehnat shartnomasi asosida amalga oshiriladi. Avvalgi xizmat joyi bo‘yicha tuzilgan mehnat shartnomasining amal qilishi davlat fuqarolik xizmatchisi vaqtincha xizmat safariga yuborilgan muddat tugaguniga qadar to‘xtatib turiladi.

Davlat fuqarolik xizmatchisiga haqiqatda bajarilgan ishiga qarab, o‘zining asosiy lavozimidagidan kam bo‘lmagan miqdorda ish haqi to‘lanadi. Davlat organining davlat fuqarolik xizmatchisini boshqa davlat organiga vaqtincha xizmat safariga yuborish bilan bog‘liq xarajatlarining o‘rni vaqtincha xizmat safariga yuborilgan davlat fuqarolik xizmatchisini qabul qilgan davlat organi tomonidan qoplanadi.

Davlat fuqarolik xizmatchisini boshqa davlat organining davlat fuqarolik xizmati lavozimiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarish uchun vaqtincha xizmat safariga yuborish faqat uning yozma roziligi bilan amalga oshirilishi mumkin.

Davlat fuqarolik xizmatchisini boshqa davlat organiga vaqtincha xizmat safariga yuborishga quyidagi hollarda yo‘l qo‘yilmaydi:

kasbiy kompetensiyalariga to‘g‘ri kelmaydigan davlat fuqarolik xizmati lavozimlariga;

tibbiy xulosaga asosan o‘zining yoki u bilan birga istiqomat qiladigan oila a’zosining sog‘lig‘i davlat fuqarolik xizmatchisi vaqtincha xizmat safariga yuboriladigan davlat fuqarolik xizmati lavozimi bo‘yicha xizmat majburiyatlarini amalga oshirish imkonini bermasa.

Agar boshqa davlat organidagi mehnatga haq to‘lash yoki dam olish shartlari, qo‘shimcha kafolatlar va imtiyozlar davlat fuqarolik xizmatchisini vaqtincha xizmat safariga yuborgan davlat organidagidan farq qilsa, xizmatchiga nisbatan qulayroq shartlar qo‘llaniladi.

42-modda. Davlat fuqarolik xizmatchisining kasbiy kompetensiyasini uzluksiz ravishda oshirish

Davlat fuqarolik xizmatchisining kasbiy kompetensiyasini uzluksiz ravishda oshirishdan maqsad uning samarali faoliyat yuritishi uchun zarur bo‘lgan bilimlar, ko‘nikmalar va malakalarni egallashi uchun shart-sharoitlar yaratishdan iboratdir.

Davlat fuqarolik xizmatchisining kasbiy kompetensiyasi darajasi uning bilimlari, ko‘nikmalari va malakalari darajasini aniqlash imkonini beruvchi axborot tizimlari orqali davlat organi tomonidan muntazam ravishda baholab boriladi.

Qayta tayyorlash, malaka oshirish va mustaqil ta’lim olish davlat fuqarolik xizmatchisining kasbiy kompetensiyasini uzluksiz ravishda oshirishning asosiy shakllaridir.

Qayta tayyorlash davlat fuqarolik xizmatchisining samarali faoliyati uchun zarur bo‘lgan qo‘shimcha kasbiy bilimlar, ko‘nikmalar va malakalarni egallashi maqsadida tashkil etilgan ta’lim jarayonidir.

Malaka oshirish davlat fuqarolik xizmatchisining kasbiy kompetensiyasini oshirishga va muntazam ravishda yangilab borishga qaratilgan ta’lim jarayonidir.

Mustaqil ta’lim davlat fuqarolik xizmatchisining yangi bilimlar va tajribaga ega bo‘lish bo‘yicha ishdan bo‘sh vaqtida kasbiy kompetensiyasini oshirish jarayonidir.

Davlat fuqarolik xizmatchisining kasbiy kompetensiyasini uzluksiz ravishda oshirish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanadi.

43-modda. Davlat fuqarolik xizmatchisining mehnatiga haq to‘lash

Davlat fuqarolik xizmatchisining mehnatiga haq to‘lash quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

bazaviy lavozim maoshi;

ko‘p yillik xizmat uchun qo‘shimcha to‘lov;

malaka darajasi uchun qo‘shimcha to‘lov;

davlat fuqarolik xizmatchisi faoliyatining eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlariga erishganlik uchun qo‘shimcha ustama;

hisobot davri yakunlari bo‘yicha rag‘batlantirish to‘lovlari.

Davlat fuqarolik xizmatchisining mehnat sharoitlari, u alohida muhim topshiriqlar va murakkab vazifalarni bajarganligi, boshqa shartlar munosabati bilan uning bazaviy lavozim maoshiga qonunchilikda belgilangan rag‘batlantiruvchi qo‘shimcha to‘lovlar va ustamalar to‘lanishi mumkin.

Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan to‘lovlarni hisoblash tartibi va ularning miqdorlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanadi.

44-modda. Davlat fuqarolik xizmatchisini rag‘batlantirish

Davlat fuqarolik xizmatchisiga quyidagi rag‘batlantirish choralari qo‘llanilishi mumkin:

lavozim maoshiga qo‘shimcha ustamalar;

pul mukofoti;

navbatdan tashqari malaka darajasini berish;

minnatdorchilik e’lon qilish;

qimmatbaho sovg‘a, esdalik yoki ko‘krak nishoni yoxud yorliq bilan mukofotlash.

Davlat fuqarolik xizmatchisi alohida xizmatlari uchun qonunchilikda belgilangan tartibda davlat mukofotlariga taqdim etilishi mumkin.

45-modda. Davlat fuqarolik xizmatchisiga nisbatan rag‘batlantirish choralarining qo‘llanilishi

Davlat fuqarolik xizmatchisiga nisbatan rag‘batlantirish choralarini qo‘llash davlat organining rahbari tomonidan yoki uning tavsiyasiga ko‘ra amalga oshiriladi.

Davlat fuqarolik xizmatchisiga nisbatan rag‘batlantirish choralarini qo‘llash to‘g‘risidagi masalani hal etish chog‘ida quyidagilar e’tiborga olinadi:

oy, chorak, yarim yil, yil yakunlari bo‘yicha faoliyatning eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlarini bajarganlik va oshirib bajarganlik;

o‘ta muhim vazifalarni bajarganlik;

zimmasiga yuklatilgan vazifaning murakkabligi va muhimligi, shuningdek uning faoliyatida erishilgan yuqori natijalar;

bayram kunlari, yubileylar, nishonlanadigan sanalar va pensiyaga chiqish.

46-modda. Davlat fuqarolik xizmatchisining intizomiy javobgarligi

Davlat fuqarolik xizmatchisi tomonidan lavozim yo‘riqnomasiga va Davlat fuqarolik xizmatchilarining odob-axloq qoidalariga, shuningdek ushbu Qonunning 13-moddasida belgilangan cheklovlarga rioya etmaganlik unga nisbatan intizomiy jazo choralarini qo‘llash uchun asos bo‘ladi.

Davlat fuqarolik xizmatchisiga nisbatan quyidagi intizomiy jazo choralari qo‘llaniladi:

hayfsan;

o‘rtacha oylik ish haqining o‘ttiz foizidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda jarima;

malaka darajasini pasaytirish;

davlat fuqarolik xizmati lavozimini pasaytirish;

egallab turgan davlat fuqarolik xizmati lavozimidan ozod qilish.

Davlat fuqarolik xizmatchisiga nisbatan ushbu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilmagan boshqa intizomiy jazo choralarini qo‘llash taqiqlanadi.

47-modda. Davlat fuqarolik xizmatchisiga nisbatan intizomiy jazo choralarining qo‘llanilishi

Intizomiy jazo choralari davlat organining rahbari tomonidan qo‘llaniladi. Har bir intizomiy qilmish uchun faqat bitta intizomiy jazo chorasi qo‘llanilishi mumkin. Intizomiy jazo chorasini tanlash huquqi davlat organining rahbariga tegishlidir. Intizomiy jazo chorasini qo‘llash

chog‘ida qilmishning og‘ir-yengilligi, uning holatlari va davlat fuqarolik xizmatchisining xulq-atvori hisobga olinadi.

Davlat fuqarolik xizmatchisiga nisbatan intizomiy jazo chorasini qo‘llash davlat organi rahbarining tegishli qarori bilan rasmiylashtiriladi.

Davlat organi rahbarining davlat fuqarolik xizmatchisiga nisbatan intizomiy jazo chorasini qo‘llash to‘g‘risidagi qarori ushbu qaror qabul qilingan kundan e’tiboran uch ish kuni ichida, davlat fuqarolik xizmatchisi ishda yo‘q bo‘lgan vaqt hisobga olinmasdan, unga jazoni qo‘llash sabablari ko‘rsatilgan holda imzo qo‘ydirib e’lon qilinadi.

O‘ziga nisbatan intizomiy jazo chorasini qo‘llash to‘g‘risidagi qaror bilan tanishtirilmagan davlat fuqarolik xizmatchisi intizomiy jazoga tortilmagan deb hisoblanadi.

Davlat fuqarolik xizmatchisining o‘ziga nisbatan intizomiy jazo chorasini qo‘llash to‘g‘risidagi qaror bilan tanishishni rad etganligi bunda hozir bo‘lgan guvohlar ko‘rsatilgan holda dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi. Bunday holda davlat fuqarolik xizmatchisi qaror bilan tanishtirilgan deb hisoblanadi.

Davlat fuqarolik xizmatchisining intizomiy javobgarlikka tortilishi unga nisbatan rag‘batlantirish choralari qo‘llanilishini bekor qilmaydi.

Ushbu Qonun 46-moddasi ikkinchi qismining uchinchi, to‘rtinchi va beshinchi xatboshilarida nazarda tutilgan intizomiy jazo choralari davlat fuqarolik xizmatchisiga nisbatan o‘tkazilgan xizmat tekshiruvining xulosasiga asosan, shuningdek amalda intizomiy jazo chorasi mavjud bo‘lganda qo‘llaniladi.

Davlat fuqarolik xizmatchisi o‘ziga nisbatan qo‘llanilgan intizomiy jazo chorasi ustidan yuqori turuvchi davlat organiga yoki maxsus vakolatli davlat organiga yoxud sudga shikoyat qilishga haqli.

48-modda. Intizomiy jazo choralarini qo‘llash muddatlari

Intizomiy jazo chorasi darhol, biroq intizomiy qilmish aniqlangan kundan e’tiboran bir oydan kechiktirmay qo‘llaniladi.

Intizomiy jazo choralari:

davlat fuqarolik xizmatchisi vaqtincha mehnatga qobiliyatsiz bo‘lgan davrda;

davlat fuqarolik xizmatchisi ta’tilda yoki xizmat safarida bo‘lgan davrda;

davlat fuqarolik xizmatchisi favqulodda vaziyat yoki harbiy xizmatni o‘tashi bilan bog‘liq bo‘lgan majburiyatlarni amalga oshirayotgan vaqtga o‘z xizmat majburiyatlarini bajarishdan ozod etilgan davrda;

davlat fuqarolik xizmatchisi qayta tayyorlashda, malaka oshirishda bo‘lgan va ta’lim olayotgan davrda qo‘llanilishi mumkin emas.

Intizomiy jazo chorasini qo‘llash muddati ushbu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan muddatlar o‘tguniga qadar to‘xtatib turiladi.

Intizomiy jazo chorasi intizomiy qilmish sodir etilgan kundan e’tiboran olti oydan kechiktirmay, taftish yoki moliya-xo‘jalik faoliyatini tekshirish yoxud auditorlik tekshiruvi natijalariga ko‘ra esa — qilmish sodir etilgan kundan e’tiboran ikki yildan kechiktirmay qo‘llanilishi mumkin. Ko‘rsatilgan muddatlarga jinoyat ishi bo‘yicha ish yuritish vaqti kiritilmaydi.

Intizomiy jazo chorasi jazo qo‘llanilgan kundan boshlab bir yil davomida amal qiladi. Agar mazkur muddat ichida davlat fuqarolik xizmatchisiga yangi intizomiy jazo chorasi qo‘llanilmagan bo‘lsa, u intizomiy jazoga tortilmagan deb hisoblanadi. Bunda intizomiy jazo chorasining muddati davlat organi rahbarining tegishli qarori chiqarilmagan holda, avtomatik tarzda tugaydi.

Davlat organi rahbari intizomiy jazo chorasini o‘z tashabbusiga ko‘ra, davlat fuqarolik xizmatchisining bevosita rahbarining, kasaba uyushmasining (mavjud bo‘lgan taqdirda) iltimosnomasiga binoan, shuningdek davlat fuqarolik xizmatchisining iltimosiga ko‘ra muddatidan ilgari olib tashlash huquqiga ega.

49-modda. Xizmat tekshiruvi

Xizmat tekshiruvi mehnat to‘g‘risidagi qonunchilikda belgilangan tartibda davlat organi rahbarining qaroriga ko‘ra o‘tkaziladi. Davlat fuqarolik xizmatchisi o‘ziga nisbatan asossiz ayblovlar qo‘yilgan yoki xulosalar chiqarilgan deb hisoblaganda ham uning yozma arizasi asosida xizmat tekshiruvidan o‘tkazilishi mumkin.

Xizmat tekshiruvi davomida quyidagilar aniqlanishi zarur:

intizomiy qilmishga sabab bo‘lgan holatlar va shart-sharoitlar;

davlat fuqarolik xizmatchisini intizomiy qilmishda ayblashning asosliligi yoki asossizligi;

intizomiy qilmish natijasida yetkazilgan zararning o‘ziga xos xususiyati va miqdori;

davlat fuqarolik xizmatchisining tushuntirishlari va yozma ravishda bergan talablarida ko‘rsatilgan vajlar.

Davlat organidagi xizmat tekshiruvi davlat organining kadrlar bo‘linmasi, yuridik xizmati va boshqa bo‘linmalari, shuningdek kasaba uyushmasi (mavjud bo‘lgan taqdirda) vakillaridan iborat bo‘lgan xizmat tekshiruvini o‘tkazish bo‘yicha komissiya tomonidan o‘tkaziladi. Xizmat tekshiruvini o‘tkazish bo‘yicha komissiya tarkibiga davlat organining rahbari hamda xizmat tekshiruvi natijasidan manfaatdor bo‘lgan shaxslar kirishi mumkin emas.

Xizmat tekshiruvini o‘tkazish zarur bo‘lgan hollarda, davlat organining rahbari davlat fuqarolik xizmatchisini xizmat tekshiruvi o‘tkazish mobaynida xizmat majburiyatlarini bajarishdan uning o‘rtacha ish haqini saqlab qolgan holda vaqtincha chetlatish to‘g‘risida qaror qabul qilishi mumkin.

Xizmat tekshiruvini o‘tkazish muddati o‘n besh ish kunidan oshmasligi kerak. Davlat organining rahbari xizmat tekshiruvini o‘tkazish bo‘yicha komissiyaning asoslantirilgan vajlari asosida xizmat tekshiruvini o‘tkazish muddatini yana o‘n besh ish kunigacha uzaytirishga haqli.

Xizmat tekshiruvi natijasiga ko‘ra xizmat tekshiruvini o‘tkazish bo‘yicha komissiyaning dalolatnomasi tuziladi va davlat fuqarolik xizmatchisiga nisbatan intizomiy jazo chorasini qo‘llash yoki qo‘llamaslik to‘g‘risidagi xulosa tayyorlanadi. Xizmat tekshiruvini o‘tkazish bo‘yicha komissiyaning xulosasi davlat organi rahbari tomonidan rad etilishi yoki davlat fuqarolik xizmatchisiga nisbatan intizomiy jazo chorasini qo‘llash uchun asos bo‘lishi mumkin.

8-bob. Davlat fuqarolik xizmatchisi faoliyatining tugatilishi

50-modda. Davlat fuqarolik xizmatchisi faoliyatini tugatish asoslari

Davlat fuqarolik xizmatchisi faoliyatini tugatish uchun quyidagilar asos bo‘ladi:

mehnat to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq mehnat shartnomasining bekor qilinganligi;

O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligining davlat fuqarolik xizmatchisi tomonidan yo‘qotilganligi;

davlat fuqarolik xizmatchisi faoliyatini davom ettirish imkoniyatini istisno etuvchi jazoga tortilganligiga doir sud hukmining qonuniy kuchga kirganligi, shuningdek unga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llash to‘g‘risidagi sudning ajrimi;

davlat fuqarolik xizmatchisining davlat fuqarolik xizmati lavozimini egallashi uchun ahamiyatga ega bo‘lgan yolg‘on axborot taqdim etilganligi;

davlat fuqarolik xizmatchisi tomonidan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir etilganligi;

davlat fuqarolik xizmatini o‘tash bilan bog‘liq cheklovlarga davlat fuqarolik xizmatchisi tomonidan rioya etilmaganligi.

Davlat fuqarolik xizmatchisi faoliyatining tugatilganligi davlat fuqarolik xizmatchisi huquqiy maqomining yo‘qotilishiga sabab bo‘ladi.

51-modda. Davlat fuqarolik xizmatchisi faoliyatining qonunga xilof ravishda tugatilishi oqibatlari

Davlat fuqarolik xizmatchisi faoliyatining qonunga xilof ravishda tugatilganligi aniqlangan taqdirda davlat fuqarolik xizmatchisi avvalgi davlat fuqarolik xizmati lavozimiga tiklanadi, buning imkoni bo‘lmaganda esa (davlat organining tugatilganligi, shtatlar qisqartirishga sabab bo‘ladigan tarzda o‘zgartirilganligi yoki ushbu xizmatchini avvalgi davlat fuqarolik xizmati

lavozimiga tiklashga monelik qiladigan, qonunda nazarda tutilgan boshqa asoslar mavjud bo‘lganda) avvalgi lavozimiga teng bo‘lgan boshqa davlat fuqarolik xizmati lavozimiga tayinlanadi.

Davlat fuqarolik xizmati lavozimiga tiklangan davlat fuqarolik xizmatchisiga uning faoliyati qonunga xilof ravishda tugatilganligi tufayli yetkazilgan zararning o‘rni O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan qoplanadi.

Davlat fuqarolik xizmatchisi faoliyatining qonunga xilof ravishda tugatilishida aybdor bo‘lgan shaxs qonunda belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi. Davlat fuqarolik xizmatchisi faoliyatining qonunga xilof ravishda tugatilishi bilan bog‘liq zararning miqdori aybdor shaxsdan regress tartibida undiriladi.

9-bob. Davlat fuqarolik xizmatchisini huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilish

52-modda. Davlat fuqarolik xizmatchisini huquqiy jihatdan himoya qilish

Davlat fuqarolik xizmatchisi davlat organining qonunga xilof qarorlari, shuningdek ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) ustidan yuqori turuvchi davlat organiga yoki maxsus vakolatli davlat organiga yoxud sudga shikoyat qilishga haqli.

Davlat organining qonunga xilof qarorlari, shuningdek ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) natijasida davlat fuqarolik xizmatchisining buzilgan, nizolashilayotgan huquqlarini, erkinliklarini va qonuniy manfaatlarini himoya qilish O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Davlat fuqarolik xizmatchisiga yetkazilgan moddiy zararning o‘rnini qoplash va ma’naviy ziyonni kompensatsiya qilish bilan bog‘liq nizolar fuqarolik protsessual qonunchilik bilan belgilangan tartibda hal etiladi.

53-modda. Davlat fuqarolik xizmatchisini ijtimoiy jihatdan himoya qilish

Davlat fuqarolik xizmatchisini ijtimoiy jihatdan himoya qilish davlat tomonidan quyidagilar orqali ta’minlanadi:

mehnat ta’tili va ijtimoiy ta’tillar berish;

hayoti va sog‘lig‘ini majburiy sug‘urta qilish;

hayotiga, sog‘lig‘iga va mol-mulkiga yetkazilgan zararning o‘rnini qoplash;

davlat pensiya ta’minoti.

Davlat fuqarolik xizmatchisiga quyidagi ijtimoiy himoya choralari kafolatlanadi:

tibbiy xizmat ko‘rsatish;

rotatsiya tartibida boshqa davlat fuqarolik xizmati lavozimiga o‘tkazilishi bilan bog‘liq xarajatlarning, shu jumladan yashash va transport xarajatlarining o‘rnini qoplash;

xizmat uy-joylari, xizmat transporti bilan yoki uy-joy va transport xarajatlari uchun pulli kompensatsiya bilan qonunchilikda belgilangan hollarda hamda tartibda ta’minlash.

Davlat fuqarolik xizmatchisiga qonunchilikka muvofiq boshqa ijtimoiy himoya choralari ham qo‘llanilishi mumkin.

Davlat fuqarolik xizmatchisiga nisbatan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolariga qonunchilikda belgilangan asoslarda va miqdorlarda to‘lanadigan barcha turdagi ijtimoiy nafaqalar tatbiq etiladi.

Ijtimoiy nafaqalarni to‘lash O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetining mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi, bundan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladigan to‘lovlar mustasno.

54-modda. Davlat fuqarolik xizmatchisining mehnat va ijtimoiy ta’tillari

Davlat fuqarolik xizmatchisiga davomiyligi yigirma yetti kalendar kunidan kam bo‘lmagan yillik asosiy ta’til beriladi.

Davlat fuqarolik xizmatchisiga ko‘p yillik xizmati va alohida mehnat sharoitlari uchun yillik qo‘shimcha mehnat ta’tillari beriladi.

Ko‘p yillik xizmati va alohida mehnat sharoitlari uchun yillik qo‘shimcha mehnat ta’tillarini berish tartibi hamda ularning davomiyligi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Davlat fuqarolik xizmati lavozimining toifasiga qarab qonunchilikda yillik asosiy va qo‘shimcha mehnat ta’tillarining boshqacha davomiyligi belgilanishi mumkin.

Davlat fuqarolik xizmatchisiga ijtimoiy ta’tillar berish mehnat to‘g‘risidagi qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

55-modda. Davlat fuqarolik xizmatchisining hayoti va sog‘lig‘ini majburiy sug‘urta qilish

Davlat fuqarolik xizmatchisining hayoti va sog‘lig‘i davlatning muhofazasida bo‘ladi hamda qonunchilikda belgilangan tartibda majburiy sug‘urta qilinadi.

56-modda. Davlat fuqarolik xizmatchisining hayotiga, sog‘lig‘iga va mol-mulkiga yetkazilgan zararning o‘rnini qoplash

Davlat fuqarolik xizmatchisining hayoti yoki sog‘lig‘iga mehnatda mayib bo‘lishi, kasb kasalligiga chalinganligi yoki sog‘lig‘i o‘z xizmat majburiyatlarini bajarishi chog‘ida boshqacha tarzda shikastlanganligi tufayli yetkazilgan zararning o‘rni qonunda belgilangan tartibda davlat organi tomonidan qoplanadi.

Davlat fuqarolik xizmatchisi xizmat majburiyatlarini bajarayotganda vafot etgan taqdirda, uning qaramog‘ida bo‘lgan oila a’zolariga davlat organi tomonidan vafot etgan shaxsning o‘rtacha yillik ish haqining olti baravaridan kam bo‘lmagan miqdorda bir yo‘la to‘lanadigan nafaqa ularning soniga teng taqsimlangan holda beriladi.

Xizmat majburiyatlarini bajarish bilan bog‘liq holda davlat fuqarolik xizmatchisining mol-mulkiga yetkazilgan zararning o‘rni O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetining mablag‘lari hisobidan to‘liq hajmda qoplanadi, ushbu summa miqdori keyinchalik aybdor shaxslardan regress tartibida undiriladi.

Ushbu moddaning birinchi va ikkinchi qismlarida nazarda tutilgan ziyonning, zararning o‘rnini qoplash bo‘yicha to‘lovlar O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetining mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

57-modda. Davlat pensiya ta’minoti

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolariga tayinlanadigan barcha turdagi davlat pensiyalari davlat fuqarolik xizmatchisiga nisbatan qonunda belgilangan asoslarga ko‘ra qo‘llaniladi.

Vafot etgan davlat fuqarolik xizmatchisining qaramog‘ida bo‘lgan mehnatga qobiliyatsiz oila a’zolari boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasini olish huquqiga ega.

Davlat fuqarolik xizmatchisining davlat pensiya ta’minoti O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

Davlat fuqarolik xizmatchilariga pensiyalarni tayinlash, hisoblab chiqarish tartibi, ularning miqdorlari hamda davlat pensiya ta’minoti bo‘yicha qo‘shimcha ijtimoiy kafolatlar fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risidagi qonunchilikda belgilanadi.

10-bob. Yakunlovchi qoidalar

58-modda. Davlat fuqarolik xizmati sohasidagi tadbirlarni moliyalashtirish

Davlat fuqarolik xizmati sohasidagi tadbirlarni moliyalashtirish O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetining mablag‘lari va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

59-modda. Xalqaro hamkorlik

Davlat fuqarolik xizmati sohasidagi xalqaro hamkorlik xalqaro huquqning umume’tirof etilgan prinsiplari va normalariga, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligiga hamda xalqaro shartnomalariga muvofiq amalga oshiriladi.

60-modda. Nizolarni hal etish

Davlat fuqarolik xizmati sohasidagi nizolar qonunchilikda belgilangan tartibda hal etiladi.

61-modda. Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik

Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.

62-modda. Ushbu Qonunning ijrosini, yetkazilishini, mohiyati va ahamiyati tushuntirilishini ta’minlash

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi, O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Adliya vazirligi va boshqa manfaatdor tashkilotlar ushbu Qonunning ijrosini, ijrochilarga yetkazilishini hamda mohiyati va ahamiyati aholi o‘rtasida tushuntirilishini ta’minlasin.

63-modda. Qonunchilikni ushbu Qonunga muvofiqlashtirish

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin;

davlat boshqaruvi organlari ushbu Qonunga zid bo‘lgan o‘z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko‘rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta’minlasin.

64-modda. Ushbu Qonunning kuchga kirishi

Ushbu Qonun rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran uch oy o‘tgach kuchga kiradi.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2022-yil 8-avgust,
O‘RQ-788-son

ILG5739

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING AYRIM QONUN HUJJATLARIGA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHGA, KORRUPSIYAGA OID JINOYATLAR UCHUN JAVOBGARLIK MUQARRARLIGINI TA’MINLASHGA QARATILGAN QO‘SHIMCHA VA O‘ZGARTIRISHLAR KIRITISH TO‘G‘RISIDA

Qonunchilik palatasi tomonidan 2026-yil 25-mayda qabul qilingan
Senat tomonidan 2026-yil 13-iyunda ma’qullangan

Keyingi yillarda mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, davlat boshqaruvida samarali va ta’sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilib, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olishga qaratilgan tizim shakllantirildi.

Biroq ko‘rilayotgan tizimli choralarga qaramay, bir qator sohalarda korrupsiya holatlari yuqoriligicha saqlanib qolayotganligi korrupsiyaga qarshi kurashish ishlari samaradorligini oshirish, korrupsiyaga oid jinoyatlar sodir etganlik uchun javobgarlik muqarrarligini ta’minlash, shuningdek yoshlarni korrupsiyaga nisbatan murosasizlik ruhida tarbiyalash zaruriyatini yuzaga keltirmoqda.

Ushbu Qonun bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun javobgarlik va jazo choralarini kuchaytirishga, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha milliy va hududiy kengashlar, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyatining samaradorligini yanada oshirishga, korrupsiyaga oid jinoyatlarning aniq ro‘yxatini belgilashga, korrupsiya haqida xabar bergan shaxslarning xavfsizligini ta’minlashga, davlat xaridlarini amalga oshirishda korrupsiyaviy omillarni qisqartirishga, shuningdek yoshlarda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabat shakllantirilishini yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilashga qaratilgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritilmoqda.

Mazkur Qonun korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun javobgarlik muqarrarligini ta’minlashga, korrupsiyaga qarshi kurashish orqali fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilishga xizmat qiladi.

1-modda. O‘zbekiston Respublikasining 1994-yil 22-sentabrda qabul qilingan 2012-XII-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1995-yil, № 1, 3-modda; O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996-yil, № 9, 144-modda; 1997-yil, № 2, 56-modda, № 9, 241-modda; 1998-yil, № 5-6, 102-modda, № 9, 181-modda; 1999-yil, № 1, 20-modda, № 5, 124-modda, № 9, 229-modda; 2000-yil, № 5-6, 153-modda; 2001-yil, № 1-2, 23-modda, № 9-10, 165-modda; 2002-yil, № 9, 165-modda; 2003-yil, № 1, 8-modda, № 9-10, 149-modda; 2004-yil, № 1-2, 18-modda, № 9, 171-modda; O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2005-yil, № 9, 314-modda, № 12, 417, 418-moddalar; 2006-yil, № 6, 261-modda, № 12, 656-modda; 2007-yil, № 4, 158, 166-moddalar, № 6, 248-modda, № 9, 416, 422-moddalar, № 12, 607-modda; 2008-yil, № 4, 187, 188, 189-moddalar, № 7, 352-modda, № 9, 485, 487, 488-moddalar, № 12, 640, 641-moddalar; 2009-yil, № 1, 1-modda, № 4, 128-modda, № 9, 329, 334, 335, 337-moddalar, № 12, 470-modda; 2010-yil, № 5, 176, 179-moddalar, № 9, 341-modda, № 12, 471, 477-moddalar; 2011-yil, № 1, 1-modda; 2012-yil, № 4, 108-modda, № 9/1, 242-modda, № 12, 336-modda; 2013-yil, № 4, 98-modda, № 10, 263-modda; 2014-yil, № 1, 2-modda, № 5, 130-modda, № 9, 244-modda, № 12, 343-modda; 2015-yil, № 6, 228-modda, № 8, 310, 312-moddalar, № 12, 452-modda; 2016-yil, № 4, 125-modda, № 9, 276-modda, № 12, 383, 385-moddalar; 2017-yil, № 3, 47-modda, № 6, 300-modda, № 9, 506, 510-moddalar; 2018-yil, № 1, 4-modda, № 4, 218, 224-moddalar, № 7, 430-modda, № 10, 679-modda; 2019-yil, № 1, 3, 5-moddalar, № 3, 161-modda, № 5, 259, 267, 268-moddalar, № 7, 386-modda, № 8, 471-modda, №

9, 592-modda, № 11, 787-modda, № 12, 880-modda; 2020-yil, № 1, 4-modda, № 3, 204-modda, № 7, 449-modda, № 10, 593-modda, № 11, 651-modda, № 12, 691-modda; 2021-yil, № 1, 5, 14-moddalar, № 2, 142, 144-moddalar, № 3, 217-modda, 4-songa ilova, № 8, 800, 803-moddalar, № 10, 966, 968, 973-moddalar, № 12, 1193-modda; 2022-yil, № 2, 81-modda, № 3, 215, 216-moddalar, № 4, 337-modda, № 5, 464, 466-moddalar, № 6, 575-modda, № 10, 981-modda; 2023-yil, № 3, 184, 185, 187, 188-moddalar, № 4, 265-modda, № 5, 319-modda, № 10, 798-modda, № 11, 921-modda; 2024-yil, № 1, 8-modda, № 2, 111-modda, № 3, 245-modda, № 8, 818-modda, № 9, 954, 964-moddalar, № 10, 1070, 1071, 1073, 1077, 1079, 1083-moddalar, № 11, 988-modda, № 12, 1280, 1287-moddalar; 2025-yil, № 2, 196-modda, № 3, 376, 377-moddalar, № 5, 643, 647-moddalar, № 8, 968-modda, № 9, 1042-modda, № 10, 1156-modda, № 11, 1236-modda; 2026-yil, № 1, 5-modda, № 3, 249, 250, 253-moddalar, № 4, 353, 354, 361-moddalar) quyidagi qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritilsin:

1) 73-moddaning to‘rtinchi qismi:

quyidagi mazmundagi “v[1]” band bilan to‘ldirilsin:

“v[1]) o‘zlashtirish yoki rastrata qilish yo‘li bilan talon-toroj qilganlik, shuningdek firibgarlik uchun hukm qilingan va sodir etgan jinoyati tufayli yetkazilgan zararning o‘rnini to‘liq qoplamagan shaxsga”;

“g” bandi “O‘zbekiston Respublikasiga, tinchlikka va insoniyat xavfsizligiga qarshi jinoyat sodir etganlik” degan so‘zlardan keyin “takroran yoki xavfli retsidivist tomonidan yoxud juda ko‘p miqdorda pora olish, pora berish, pora olish-berishda vositachilik qilganlik” degan so‘zlar bilan to‘ldirilsin;

2) 167-modda:

ikkinchi qismi dispozitsiyasining “v” va “g” bandlari quyidagi mazmundagi “v” band bilan almashtirilsin:

“v) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bo‘lsa”;

uchinchi qismi dispozitsiyasining “g” bandi quyidagi mazmundagi “g” va “d” bandlar bilan almashtirilsin:

“g) kompyuter texnikasi vositalaridan foydalanib;

d) mansab mavqeyini suiiste’mol qilish yo‘li bilan sodir etilgan bo‘lsa”;

3) 168-modda:

uchinchi qismi:

dispozitsiyasining “v” va “g” bandlari quyidagi mazmundagi “v” band bilan almashtirilsin:

“v) axborot tizimidan, shu jumladan axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etilgan bo‘lsa”;

sanksiyasidagi “muayyan huquqdan mahrum etilgan holda” degan so‘zlar chiqarib tashlansin;

to‘rtinchi qismi:

dispozitsiyasining “v” bandi quyidagi mazmundagi “v” va “g” bandlar bilan almashtirilsin:

“v) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko‘zlab;

g) xizmat mavqeyidan foydalanib sodir etilgan bo‘lsa”;

sanksiyasi “jarima yoki” degan so‘zlardan keyin “muayyan huquqdan mahrum etilgan holda” degan so‘zlar bilan to‘ldirilsin;

4) 192[10]-modda:

birinchi qismining sanksiyasi “bir yilgacha axloq tuzatish ishlari” degan so‘zlardan keyin “yoki bir yilgacha ozodlikni cheklash yoxud bir yilgacha ozodlikdan mahrum qilish” degan so‘zlar bilan to‘ldirilsin;

ikkinchi qismining sanksiyasi “bir yilgacha axloq tuzatish ishlari” degan so‘zlardan keyin “yoki bir yilgacha ozodlikni cheklash yoxud bir yilgacha ozodlikdan mahrum qilish” degan so‘zlar bilan to‘ldirilsin;

5) 192[11]-modda ikkinchi qismi dispozitsiyasining “b” bandi quyidagi mazmundagi “b” va “v” bandlar bilan almashtirilsin:

“b) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko‘zlab;

v) g‘arazgo‘ylik niyatlarida sodir etilgan bo‘lsa”;

6) 205-modda ikkinchi qismi dispozitsiyasining “b” bandi quyidagi mazmundagi “b” va “v” bandlar bilan almashtirilsin:

“b) uyushgan guruh manfaatlarini ko‘zlab;

v) g‘arazgo‘ylik niyatlarida sodir etilgan bo‘lsa”;

7) 206-modda ikkinchi qismi dispozitsiyasining “b” bandi quyidagi mazmundagi “b” va “v” bandlar bilan almashtirilsin:

“b) uyushgan guruh manfaatlarini ko‘zlab;

v) g‘arazgo‘ylik niyatlarida sodir etilgan bo‘lsa”;

8) 208-modda quyidagi mazmundagi ikkinchi qism bilan to‘ldirilsin:

“Hokimiyat harakatsizligi g‘arazgo‘ylik niyatlarida sodir etilgan bo‘lsa, —

bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan olti yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki muayyan huquqdan mahrum qilib, uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi”;

9) 209-modda:

birinchi qismining dispozitsiyasidagi “g‘arazgo‘ylik yoki boshqa manfaatlarni ko‘zlab” degan so‘zlar chiqarib tashlansin;

ikkinchi qismi dispozitsiyasining “b” bandi quyidagi mazmundagi “b” va “v” bandlar bilan almashtirilsin:

“b) uyushgan guruh manfaatlarini ko‘zlab;

v) g‘arazgo‘ylik niyatlarida sodir etilgan bo‘lsa”;

10) 213-modda:

birinchi qismining sanksiyasi “ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari” degan so‘zlardan keyin “yoki bir yilgacha ozodlikni cheklash yoxud bir yilgacha ozodlikdan mahrum qilish” degan so‘zlar bilan to‘ldirilsin;

ikkinchi qismining sanksiyasidagi “uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish” degan so‘zlar “bir yildan uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

11) 214-modda:

birinchi qismining sanksiyasi “ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari” degan so‘zlardan keyin “yoki bir yilgacha ozodlikni cheklash yoxud bir yilgacha ozodlikdan mahrum qilish” degan so‘zlar bilan to‘ldirilsin;

ikkinchi qismining sanksiyasidagi “uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish” degan so‘zlar “bir yildan uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

12) 301-modda ikkinchi qismining dispozitsiyasi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“O‘sha qilmishlar:

a) badanga o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir shikast yetkazib;

b) g‘arazgo‘ylik niyatlarida sodir etilgan bo‘lsa”;

13) Sakkizinchi bo‘lim quyidagi mazmundagi atama bilan to‘ldirilsin:

“**Korrupsiyaga oid jinoyatlar** —	1) ushbu Kodeks 167-moddasi uchinchi qismining “d” bandida, 168-moddasi to‘rtinchi qismining “g” bandida, 192[9], 192[10]-moddalarida, 192[11]-moddasi ikkinchi qismining “v” bandida, 205-moddasi ikkinchi qismining “v” bandida, 206-moddasi ikkinchi qismining “v” bandida, 208-moddasining ikkinchi qismida, 209-moddasi ikkinchi qismining “v” bandida, 210, 211, 212, 213, 214, 214[1], 214[2]-moddalarida va 301-moddasi ikkinchi qismining “b” bandida nazarda tutilgan jinoyatlar;

2) ushbu Kodeksning 243-moddasida nazarda tutilgan jinoyat, agar mazkur jinoyat korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etish natijasida olingan daromadlarni legallashtirish bilan bog‘liq holda sodir etilgan bo‘lsa”.

2-modda. O‘zbekiston Respublikasining 1994-yil 22-sentabrda qabul qilingan 2013-XII-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1995-yil, № 2, 5-modda; O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995-yil, № 12, 269-modda; 1997-yil, № 2, 56-modda, № 9, 241-modda; 1998-yil, № 5-6, 102-modda, № 9, 181-modda; 1999-yil, № 1, 20-modda, № 5, 124-modda, № 9, 229-modda; 2000-yil, № 5-6, 153-modda, № 7-8, 217-modda; 2001-yil, № 1-2, 11, 23-moddalar, № 9-10, 165, 182-moddalar; 2002-yil, № 9, 165-modda; 2003-yil, № 5, 67-modda; 2004-yil, № 1-2, 18-modda, № 9, 171-modda; O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2005-yil, № 12, 418-modda; 2006-yil, № 6, 261-modda; 2007-yil, № 4, 166-modda, № 6, 248, 249-moddalar, № 9, 422-modda, № 12, 594, 595, 607-moddalar; 2008-yil, № 4, 177, 187-moddalar, № 9, 482, 484, 487-moddalar, № 12, 636, 641-moddalar; 2009-yil, № 1, 1-modda, № 4, 136-modda, № 9, 335-modda, № 12, 469, 470-moddalar; 2010-yil, № 6, 231-modda, № 9, 334, 336, 337, 342-moddalar, № 12, 477-modda; 2011-yil, № 4, 103, 104-moddalar, № 9, 252-modda, № 12/2, 363-modda; 2012-yil, № 1, 3-modda, № 9/2, 244-modda, № 12, 336-modda; 2014-yil, № 9, 244-modda; 2015-yil, № 8, 310, 312-moddalar, № 12, 452-modda; 2016-yil, № 4, 125-modda, № 9, 276-modda, № 12, 385-modda; 2017-yil, № 3, 47-modda, № 6, 300-modda, № 9, 506, 510-moddalar, № 10, 605-modda; 2018-yil, № 1, 1, 5-moddalar, № 4, 218, 224-moddalar, № 7, 430, 431-moddalar, № 10, 679-modda; 2019-yil, № 1, 3, 5-moddalar, № 2, 47-modda, № 3, 161-modda, № 5, 259, 267-moddalar, № 7, 386-modda, № 8, 469-modda, № 9, 589, 592-moddalar, № 10, 671-modda, № 11, 787, 791-moddalar, № 12, 880, 881, 891-moddalar; 2020-yil, № 3, 204-modda, № 5, 296-modda, № 12, 689-modda; 2021-yil, № 1, 5, 11, 13, 14-moddalar, № 2, 142, 144-moddalar, 4-songa ilova, № 8, 800, 803-moddalar, № 9, 903-modda, № 10, 973-modda, № 12, 1193-modda; 2022-yil, № 2, 81-modda, № 3, 216-modda, № 4, 337-modda, № 6, 575-modda; 2023-yil, № 3, 184, 185-moddalar, № 4, 265, 269-moddalar, № 5, 319-modda, № 9, 713-modda; 2024-yil, № 1, 8-modda, № 2, 115-modda, № 9, 964-modda, № 10, 1070, 1073, 1077, 1083-moddalar, № 12, 1280, 1286, 1292-moddalar; 2025-yil, № 1, 8-modda, № 2, 196, 201-moddalar, № 3, 376-modda, № 6, 727-modda, № 8, 968, 969-moddalar, № 9, 1042-modda; 2026-yil, № 1, 5-modda, № 4, 353, 354-moddalar) 270-moddasi quyidagi mazmundagi to‘rtinchi qism bilan to‘ldirilsin:

“Ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatib o‘tilgan shaxslarni himoya qilish uchun xavfsizlik choralarini qo‘llash asoslari va tartibi qonun bilan belgilanadi”.

3-modda. O‘zbekiston Respublikasining 1994-yil 22-sentabrda qabul qilingan 2015-XII-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1995-yil, № 3, 6-modda; O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995-yil, № 9, 193-modda, № 12, 269-modda; 1996-yil, № 5-6, 69-modda, № 9, 144-modda; 1997-yil, № 2, 56-modda, № 4-5, 126-modda, № 9, 241-modda; 1998-yil, № 3, 38-modda, № 5-6, 102-modda, № 9, 181-modda; 1999-yil, № 1, 20-modda, № 5, 124-modda, № 9, 229-modda; 2000-yil, № 5-6, 153-modda, № 7-8, 217-modda; 2001-yil, № 1-2, 23-modda, № 9-10, 165, 182-moddalar; 2002-yil, № 1, 20-modda, № 9, 165-modda; 2003-yil, № 1, 8-modda, № 5, 67-modda, № 9-10, 149-modda; 2004-yil, № 1-2, 18-modda, № 5, 90-modda, № 9, 171-modda; 2005-yil, № 1, 18-modda; O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2005-yil, № 9, 312-modda, № 12, 413, 417, 418-moddalar; 2006-yil, № 6, 261-modda, № 9, 498-modda, № 10, 536-modda, № 12, 656, 659-moddalar; 2007-yil, № 4, 158, 159, 164, 165-moddalar, № 9, 416, 421-moddalar, № 12, 596, 604, 607-moddalar; 2008-yil, № 4, 181, 189, 192-moddalar, № 9, 486, 488-moddalar, № 12, 640, 641-moddalar; 2009-yil, № 1, 1-modda, № 9, 334, 335, 337-moddalar, № 10, 380-modda, № 12, 462, 468, 470, 472, 474-moddalar; 2010-yil, № 5, 175, 179-moddalar, № 6, 231-modda, № 9, 335, 339, 341-moddalar, № 10, 380-modda, № 12, 468, 473, 474-moddalar; 2011-yil, № 1, 1-modda, № 4,

104, 105-moddalar, № 9, 247, 252-moddalar, № 12/2, 365-modda; 2012-yil, № 4, 108-modda, № 9/1, 242-modda, № 12, 336-modda; 2013-yil, № 4, 98-modda, № 10, 263-modda; 2014-yil, № 1, 2-modda, № 5, 130-modda, № 9, 244-modda, № 12, 341, 343-moddalar; 2015-yil, № 6, 228-modda, № 8, 310, 312-moddalar, № 12, 452-modda; 2016-yil, № 1, 2-modda, № 4, 125-modda, № 9, 276-modda, № 12, 383, 385-moddalar; 2017-yil, № 4, 137-modda, № 6, 300-modda, № 9, 510-modda, № 10, 605-modda; 2018-yil, № 1, 1, 4, 5-moddalar, № 4, 224-modda, № 7, 430, 431, 432-moddalar, № 10, 671, 673, 679-moddalar; 2019-yil, № 1, 1, 3, 5-moddalar, № 2, 47-modda, № 3, 161, 165, 166-moddalar, № 5, 259, 261, 267, 268-moddalar, № 7, 386-modda, № 8, 469, 471-moddalar, № 9, 591, 592-moddalar, № 10, 674, 676-moddalar, № 11, 787, 791-moddalar, № 12, 880, 891-moddalar; 2020-yil, № 1, 4-modda, № 3, 203, 204-moddalar, № 7, 449-modda, № 9, 539, 540-moddalar, № 10, 593, 596-moddalar, № 11, 651-modda, № 12, 691-modda; 2021-yil, № 1, 5, 7, 12, 13, 14-moddalar, № 2, 142-modda, № 3, 217-modda, № 4, 290, 293-moddalar, 4-songa ilova, № 8, 800, 802, 803-moddalar, № 9, 903-modda, № 10, 966, 967, 968, 973-moddalar, № 11, 1066-modda; 2022-yil, № 1, 1, 2-moddalar, № 2, 80, 81-moddalar, № 3, 215, 216-moddalar, № 4, 337-modda, № 5, 464, 465, 466, 467-moddalar, № 8, 787-modda, № 10, 981, 984-moddalar, № 12, 1188-modda; 2023-yil, № 3, 184, 185, 188, 189-moddalar, № 4, 265, 266, 268-moddalar, № 5, 319, 320-moddalar, № 7, 533, 534, 535, 537, 539-moddalar, № 8, 634-modda, № 10, 798-modda, № 11, 921, 923, 924-moddalar, № 12, 1004-modda; 2024-yil, № 1, 5, 7, 8, 9-moddalar, № 2, 102, 111, 115, 116-moddalar, № 3, 243, 245-moddalar, № 6, 530, 532-moddalar, № 7, 629-modda, № 8, 826, 829, 831-moddalar, № 9, 954, 964, 965-moddalar, № 10, 1070, 1071, 1073, 1077, 1078, 1083, 1084-moddalar, № 11, 1187, 1188, 1189-moddalar, № 12, 1279, 1280, 1282, 1286, 1287-moddalar; 2025-yil, № 1, 5, 8-moddalar, № 2, 187, 188, 196, 198, 201-moddalar, № 3, 368, 376-moddalar, № 4, 517, 521-moddalar, № 5, 643, 644-moddalar, № 6, 729-modda, № 7, 828, 829, 832-moddalar, № 8, 968, 971-moddalar, № 11, 1233, 1236, 1237-moddalar, № 12, 1322, 1327, 1328, 1329-moddalar; 2026-yil, № 1, 2, 6-moddalar, № 2, 131, 133-moddalar, № 3, 249, 250, 253-moddalar, № 4, 351, 353, 354, 355, 356, 359, 361, 364-moddalar) 175^8-moddasi quyidagi mazmundagi beshinchi va oltinchi qismlar bilan to‘ldirilsin:

“Davlat xaridi predmetining boshlang‘ich narxi va uning o‘rtacha bozor narxi o‘rtasida yo‘l qo‘yiladigan tafovutning eng ko‘p miqdoriga nisbatan belgilangan talabni buzish, bundan talon-toroj qilish hollari mustasno, —

mansabdor shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining o‘ttiz baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Ushbu moddaning beshinchi qismida nazarda tutilgan huquqbuzarlikni ma’muriy jazo chorasi qo‘llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etish, —

mansabdor shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining o‘ttiz baravaridan ellik baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi”.

4-modda. O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentabrda qabul qilingan “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi O‘RQ-406-sonli Qonuniga (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2016-yil, № 9, 271-modda; 2017-yil, № 6, 300-modda; 2018-yil, № 7, 431-modda; 2021-yil, 4-songa ilova; 2022-yil, № 1, 5-modda; 2024-yil, № 9, 964-modda; 2025-yil, № 12, 1329-modda) quyidagi qo‘shimchalar kiritilsin:

1) 5-moddaning yettinchi xatboshisi “ularda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish” degan so‘zlar bilan to‘ldirilsin;

2) 12^1-modda birinchi qismining to‘qqizinchi xatboshisi “ekstremizmning yot g‘oyalariga qarshi immunitetni mustahkamlash” degan so‘zlardan keyin “hamda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish” degan so‘zlar bilan to‘ldirilsin.

5-modda. O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvarda qabul qilingan “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘RQ-419-sonli Qonuniga (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2017-yil, № 1, 1-modda; 2019-yil, № 1, 5-modda, № 2, 47-modda, № 5, 267-modda; 2021-yil, 4-songa ilova, № 11, 1061-modda; 2023-yil, № 8, 629-modda; 2024-yil, № 6, 530-modda; 2025-yil, № 2, 201-modda) quyidagi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin:

ILG5739

1) 2-bobning nomidagi “organlar hamda tashkilotlar” degan so‘zlar “organlar, tashkilotlar hamda tuzilmalar” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

2) 7-moddaning:

nomidagi “davlat organlari” degan so‘zlar “davlat organlari va tuzilmalari” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

birinchi qismi:

birinchi xatboshisidagi “davlat organlari” degan so‘zlar “davlat organlari va tuzilmalari” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

quyidagi mazmundagi uchinchi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“davlat organlari va tashkilotlarining, davlat ishtirokidagi korxonalarning komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari (bundan buyon matnda davlat organlari va tashkilotlarining komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari deb yuritiladi)”;

uchinchi — yettinchi xatboshilari tegishincha to‘rtinchi — sakkizinchi xatboshilar deb hisoblansin;

3) 8-modda:

nomi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“8-modda. O‘zbekiston Respublikasining Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha milliy kengashi”;

birinchi qismidagi “tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish” degan so‘zlar “tashkilotlarning faoliyatini huquqiy-uslubiy jihatdan muvofiqlashtirish” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

ikkinchi qismi quyidagi mazmundagi ikkinchi va uchinchi qismlar bilan almashtirilsin:

“Milliy kengash tarkibi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi va Milliy kengash raisidan, raisi o‘rinbosaridan hamda a’zolaridan tashkil topadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining raisi Milliy kengash raisi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Spikerining o‘rinbosari Milliy kengash raisining o‘rinbosari hisoblanadi”;

uchinchi va to‘rtinchi qismlari tegishincha to‘rtinchi va beshinchi qismlar deb hisoblansin;

to‘rtinchi qismining uchinchi xatboshisidagi “tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish” degan so‘zlar “tashkilotlarning faoliyatini huquqiy-uslubiy jihatdan muvofiqlashtirish” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

quyidagi mazmundagi oltinchi, yettinchi va sakkizinchi qismlar bilan to‘ldirilsin:

“Kengash faoliyatining asosiy tashkiliy shakli Kengash majlisidir. Kengash o‘z vakolatlari jumlasiga kiradigan masalalarni, qoida tariqasida, har chorakda o‘z majlisida ko‘rib boradi.

Kengash majlisi a’zolarining yarmidan ko‘pi ishtirok etgan taqdirda, vakolatli hisoblanadi.

Kengash majlislarida qabul qilinadigan qarorlarning bajarilishi davlat organlari va tashkilotlari uchun majburiydir”;

4) 8^1-modda:

quyidagi mazmundagi birinchi qism bilan to‘ldirilsin:

“O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini shakllantirish hamda amalga oshirish, davlat organlarining, ommaviy axborot vositalarining, fuqarolik jamiyati institutlarining va boshqa nodavlat sektor vakillarining birgalikdagi samarali faoliyatini tashkil etish, shuningdek mazkur sohadagi xalqaro hamkorlik bo‘yicha maxsus vakolatli organ hisoblanadi”;

birinchi va ikkinchi qismlari tegishincha ikkinchi va uchinchi qismlar deb hisoblansin;

ikkinchi qismi:

quyidagi mazmundagi uchinchi va to‘rtinchi xatboshilar bilan to‘ldirilsin:

“korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning tizimli sabablari va shart-sharoitlarini bartaraf etishga hamda korrupsiyaga qarshi kurashish choralarining samaradorligini oshirishga qaratilgan dasturlarni shakllantirish va amalga oshirishda bevosita ishtirok etadi;

mamlakatdagi korrupsiya holatini tizimli tahlil qiladi, shuningdek korrupsiyaga oid xavf-xatarlar yuqori bo‘lgan sohalarni hamda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etilishining sabablari va shart-sharoitlarini aniqlaydi”;

uchinchi — o‘n uchinchi xatboshilari tegishincha beshinchi — o‘n beshinchi xatboshilar deb hisoblansin;

o‘n to‘rtinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“vazirliklar va idoralarning korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini tahliliy va huquqiy-uslubiy jihatdan muvofiqlashtiradi, davlat organlarining, ommaviy axborot vositalarining, fuqarolik jamiyati institutlarining hamda boshqa nodavlat sektor vakillarining ushbu masalalar bo‘yicha samarali hamkorligini tashkil etadi”;

quyidagi mazmundagi o‘n oltinchi — yigirma birinchi xatboshilar bilan to‘ldirilsin:

“korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan tadbirlarga fuqarolik jamiyati institutlarining vakillarini faol jalb etish uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi, korrupsiyaning oldini olish, unga qarshi kurashish va jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish bo‘yicha ular bilan ijtimoiy sheriklik dasturlarini ishlab chiqadi hamda birgalikda amalga oshiradi;

aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga doir chora-tadbirlarni ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi;

korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish masalalariga oid axborotni tarqatish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘qitishni tashkil etish orqali jamiyatda korrupsiyaning barcha ko‘rinishlariga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

davlat organlari va tashkilotlarining komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari samarali faoliyat ko‘rsatishini hamda korrupsiyaga qarshi kurashishga doir boshqa vositalar joriy etilishini monitoring qilib boradi;

davlat xizmatiga halollik standartlarini joriy etishga hamda manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish va uni bartaraf etishga ko‘maklashadi, davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta’minlash choralarini ko‘radi;

davlat xizmatchilarining daromadlari va mol-mulkini, shuningdek manfaatlar to‘qnashuvini deklaratsiyalash tizimini ishlab chiqadi hamda uning samarali ishlashini tashkil etadi”;

5) quyidagi mazmundagi 8^2 va 8^3-moddalar bilan to‘ldirilsin:

“8^2-modda. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha hududiy kengashlari

Qoraqalpog‘iston Respublikasida, viloyatlarda va Toshkent shahrida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha hududiy kengashlar (bundan buyon matnda hududiy kengashlar deb yuritiladi) tashkil etiladi.

Hududiy kengashlar davlat organlari va tashkilotlarining hududiy tuzilmalari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari deputatlaridan, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari vakillaridan iborat tarkibda Milliy kengash qarori bilan tasdiqlanadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi Raisi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari raislari hududiy kengashlarning raislari hisoblanadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari kotibiyatlari tegishli hududiy kengashlarning ishchi organidir.

Hududiy kengashlarning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarining va boshqa dasturlarning joylarda amalga oshirilishini tashkil etish;

davlat organlari va tashkilotlari hududiy tuzilmalarining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatini huquqiy-uslubiy jihatdan muvofiqlashtirish va ularning hamkorligini ta’minlash;

davlat organlari va tashkilotlari hududiy tuzilmalari rahbarlarining korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish borasida amalga oshirilayotgan ishlar holati hamda kelgusida rejalashtirilgan chora-tadbirlar yuzasidan axborotini eshitish;

hududda aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga doir chora-tadbirlarning ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishini ta’minlash;

korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar holati, muayyan bir soha yoki hudud bo‘yicha korrupsiyaga qarshi kurashishga doir chora-tadbirlar dasturini aholining korrupsiyani idrok etish darajasidan kelib chiqqan holda ishlab chiqish va amalga oshirish;

hududdagi korrupsiyaga oid xavf-xatar yuqori bo‘lgan obyektlarda korrupsiyaviy omillarni xalq deputatlari mahalliy Kengashlari deputatlaridan, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlarining, nazorat qiluvchi organlarning, fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining va boshqa tashkilotlarning vakillaridan iborat tarkibda ishchi guruhlar tuzgan holda o‘rganish va bartaraf etish choralarini ko‘rish;

korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan vazifalarning ijrosini ta’minlashda sustkashlik va mas’uliyatsizlikka yo‘l qo‘ygan mansabdor shaxslarga nisbatan tegishli choralar ko‘rish bo‘yicha takliflar kiritish;

korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonunchilikni takomillashtirish, ushbu sohadagi ishlarni yaxshilash yuzasidan takliflar tayyorlash va Milliy kengashga kiritish.

Hududiy kengash faoliyatining asosiy tashkiliy shakli uning majlisidir. Hududiy kengash o‘z vakolatlari jumlasiga kiradigan masalalarni, qoida tariqasida, har chorakda o‘z majlisida ko‘rib boradi.

Hududiy kengash majlisi a’zolarning yarmidan ko‘pi ishtirok etgan taqdirda, vakolatli deb hisoblanadi.

Hududiy kengash majlislarida qabul qilinadigan qarorlarning bajarilishi hududdagi davlat organlari va tashkilotlari uchun majburiydir.

8^3-modda. Davlat organlari va tashkilotlarining komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari

Davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiya holatlariga hamda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga qarshi kurashish sohasidagi huquqni muhofaza qilishga doir ayrim vazifalarga ega bo‘lgan lavozim, xizmat va (yoki) bo‘linmadan iborat komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari qonunchilikda belgilangan tartibda tashkil etiladi.

Davlat organlari va tashkilotlarining komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari:

davlat organi va tashkiloti tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki siyosat amalga oshirilishi hamda ushbu sohadagi faoliyat muvofiqlashtirilishida bevosita ishtirok etadi;

davlat organi va tashkiloti faoliyatida korrupsiya holatlarining oldini olishga qaratilgan samarali mexanizmlar hamda nazorat tizimi joriy etilishini ta’minlaydi;

davlat organi va tashkiloti tizimida qonunga rioya etish, unga nisbatan hurmat ruhini mustahkamlash, korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabat muhitini yaratish va bu borada aholining ijobiy fikrini shakllantirish choralarini ko‘radi;

davlat organi va tashkiloti tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish vazifasini amalga oshiruvchi, budjet mablag‘lari aylanmasini nazorat qiluvchi bo‘linmalarning hamda shaxsiy xavfsizlik bo‘linmalarining faoliyatini muvofiqlashtiradi;

korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni tizimli tahlil qilish va baholash, bartaraf etish va ularning oldini olish bo‘yicha zarur choralarni ishlab chiqadi hamda ularning ijrosini tashkil etadi;

davlat organi va tashkiloti tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni takomillashtirib borish choralarini ko‘radi;

davlat organi va tashkiloti faoliyatida shaffoflikni ta’minlash, affillanganlik hamda manfaatlar to‘qnashuvi holatlarining oldini olishga qaratilgan korrupsiyaga qarshi nazorat tizimini amalga oshiradi;

davlat organi va tashkilotida korrupsiya holatlari hamda ularning oldini olish yuzasidan belgilangan tartibda tekshiruvlar o‘tkazilishini hamda qat’iy javobgarlik choralari ko‘rilishini tashkil etadi;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi hamda unda ishtirok etuvchi davlat organlari va tashkilotlari bilan hamkorlik qiladi.

Davlat organlari va tashkilotlarining komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari qonunchilikka muvofiq boshqa vazifalarni ham amalga oshiradi.

Davlat organlari va tashkilotlarining komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirishda quyidagi huquqlarga ega:

davlat organi va tashkiloti tizimidagi o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan axborot hamda ma’lumotlar bazalaridan foydalanish;

davlat organi va tashkilotida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning sodir etilishiga imkon yaratuvchi sabablar hamda shart-sharoitlarni bartaraf etish choralarini ko‘rish;

davlat organi va tashkiloti tizimida korrupsiyaga qarshi choralarni hamda nazorat tadbirlarini mustaqil yoki ishchi guruh tuzgan holda tashkil etish;

korrupsiyaga qarshi kurashish borasida tezkor-qidiruv, tergovga qadar tekshiruv va tergov organlari bilan hamkorlik qilish, ularni belgilangan tartibda jalb etish choralarini ko‘rish;

korrupsiyaviy omillarni aniqlash, ularning oldini olish va korrupsiya holatlariga chek qo‘yish maqsadida shaxslarning xatti-harakatlarini, hodisalarni hamda jarayonlarni bevosita yoki bilvosita kuzatish va qayd etish;

o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish uchun davlat organlaridan va boshqa tashkilotlardan, fuqarolardan ma’lumotlarni hamda boshqa zarur hujjatlarni va materiallarni so‘rash va olish;

vakolatini amalga oshirish doirasida zarurat tug‘ilganda tegishli hujjat va materiallar bilan tanishish maqsadida davlat organi va tashkilotining obyektlariga to‘sqinliksiz kirish;

davlat organi va tashkiloti tizimida aniqlangan korrupsiya holatlari bo‘yicha yuqori turuvchi komplayens xizmatlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri mustaqil ravishda xabardor qilish;

davlat organi va tashkiloti tizimida korrupsiya holatlarini aniqlash hamda ularga chek qo‘yish maqsadida muayyan shaxslar bilan belgilangan tartibda nooshkora hamkorlik o‘rnatish;

davlat organi va tashkiloti tizimida aniqlangan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik faktlari bo‘yicha to‘plangan materiallarni qonuniy chora ko‘rish uchun tegishli huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yoki bevosita ularning komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalariga taqdim etish;

davlat organi va tashkiloti tizimida qonun buzilishi hollarining oldini olish bo‘yicha ko‘rib chiqilishi majburiy bo‘lgan ko‘rsatmalar va ushbu hollarni bartaraf etish yuzasidan taqdimnomalar kiritish.

Davlat organlari va tashkilotlarining komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari qonunchilikda belgilangan boshqa huquqlarga ham ega bo‘ladi.

Davlat organi va tashkiloti birinchi rahbarlarining korrupsiyaga oid huquqbuzarliklari alomatlari aniqlanganda yoki jinoiy guruh faoliyatiga rahnamolik qilayotgan deb hisoblash uchun yetarli asoslar mavjud bo‘lganda ularning komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘yicha o‘rinbosari yuqori turuvchi komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat xizmati bilan kelishgan holda tegishli hujjatlar va ma’lumotlarni huquqni muhofaza qiluvchi organlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri taqdim etish, shuningdek kadrlar masalasi va moliyaviy xarajatlar bo‘yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish huquqini vaqtincha to‘xtatish yoki tegishli rahbarni yoxud xodimni vazifasini bajarishdan vaqtincha chetlatish borasida taklif kiritish vakolatiga ega bo‘ladi.

Davlat organlari va tashkilotlarining komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining Komplayens xizmati muvofiqlashtirib boradi”;

6) 19-moddaning birinchi qismi:

quyidagi mazmundagi o‘n ikkinchi va o‘n uchinchi xatboshilar bilan to‘ldirilsin:

“davlat organlarida xodimlarning korrupsiyaga qarshi barqarorlik darajasini diagnostikadan o‘tkazish;

davlat organlari va tashkilotlari tomonidan o‘zining korrupsiyaga oid xavf-xatar darajasi yuqori bo‘lgan vazifalari va funksiyalarini aniqlash, korrupsiyaga oid xavf-xatar yuqori bo‘lgan lavozimlar ro‘yxatini shakllantirish hamda korrupsiyaga oid xavf-xatarni bartaraf etish choralarini ko‘rish”;

o‘n ikkinchi xatboshisi o‘n to‘rtinchi xatboshi deb hisoblansin;

7) quyidagi mazmundagi 19^1 va 19^2-moddalar bilan to‘ldirilsin:

“19^1-modda. Korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni aniqlash va baholash

Davlat organlari va tashkilotlari o‘zining korrupsiyaga oid xavf-xatar darajasi yuqori bo‘lgan vazifalari hamda funksiyalarini aniqlaydi, korrupsiyaga oid xavf-xatar yuqori bo‘lgan lavozimlar ro‘yxatini shakllantiradi va korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni bartaraf etish bo‘yicha aniq va tizimli chora-tadbirlar ishlab chiqadi, shuningdek aniqlangan xavf-xatarlarni minimallashtirish maqsadida majburiy ravishda korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni baholash ishlarini amalga oshiradi. O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni baholash ishlarini amalga oshirishda davlat organlari va tashkilotlari bilan hamkorlik qiladi.

Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatida korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni aniqlash va baholash uslubiyoti O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va Adliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

19^2-modda. Korrupsiyaga oid xavf-xatarlar xaritasini shakllantirish

Davlat organlari va tashkilotlari, hududlar va sohalar kesimida korrupsiya darajasini aniqlash va uni minimallashtirish maqsadida korrupsiyaga oid xavf-xatarlar xaritasi shakllantiriladi.

Korrupsiyaga oid xavf-xatarlar xaritasi korrupsiyaga oid jinoyatchilik statistikasi, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha huquqni qo‘llash amaliyotining tahlili, aholining korrupsiyaga bo‘lgan munosabati (ijtimoiy so‘rov natijalari), korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha siyosatning samaradorligiga doir ma’lumotlar, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlarning axboroti asosida shakllantiriladi.

Korrupsiyaga oid xavf-xatarlar xaritasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan yuritiladi”;

8) 27-modda quyidagi mazmundagi to‘rtinchi qism bilan to‘ldirilsin:

“Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik natijasida tuzilgan bitimlarni haqiqiy emas deb topish qonunda belgilangan tartibda, vakolatli davlat organining, manfaatdor shaxsning arizasiga asosan sud tomonidan amalga oshiriladi”;

9) quyidagi mazmundagi 27^1-modda bilan to‘ldirilsin:

“27^1-modda. Korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etishda aybdor deb topilgan shaxslarning elektron reyestri

Korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etishda aybdor deb topilgan shaxslar Korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etishda aybdor deb topilgan shaxslarning elektron reyestriga (bundan buyon matnda elektron reyestr deb yuritiladi) kiritiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etishda aybdor deb topilgan shaxslarga nisbatan ayblov hukmi (ajrim) qonuniy kuchga kirgan paytdan e’tiboran uch ish kuni ichida elektron reyestrga shaxs haqidagi ma’lumotlarni kiritadi.

Elektron reyestrda korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etishda aybdor deb topilgan shaxslar to‘g‘risidagi ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida belgilangan sudlanganlik muddati davomida saqlanadi.

Elektron reyestrga kiritilgan shaxslarga nisbatan quyidagi cheklovlar belgilanadi:

davlat xizmatiga kirish va davlat mukofotlari bilan taqdirlanish;

saylanadigan va alohida tartibda tayinlanadigan lavozimlarga nomzodining ko‘rsatilishi;

davlat organlari huzuridagi jamoatchilik kengashlari hamda idoralararo kollegial organlarning a’zosi bo‘lish;

o‘zi ta’sis etgan va (yoki) ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushining 50 foizidan ko‘proq qismiga o‘zi egalik qiladigan tadbirkorlik subyektlarining davlat xaridlarida va davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi bitimda ishtirokchi (ijrochi) sifatida qatnashish;

davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan tashkilotlarda va davlat ta’lim muassasalarida rahbarlik lavozimlarida faoliyat yuritish.

Elektron reyestr Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi bilan hamkorlikda yuritiladi.

Elektron reyestrdan ma’lumot olish tartibi, korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etishda aybdor deb topilgan shaxslarni Elektron reyestrdan chiqarish asoslari va tartibi, shuningdek davlat organlarining Elektron reyestrni yuritish borasidagi hamkorligi qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi”;

10) 28-modda:

quyidagi mazmundagi beshinchi, oltinchi va yettinchi qismlar bilan to‘ldirilsin:

“O‘zi mehnat faoliyatini olib borayotgan davlat organida korrupsiyaga oid jinoyat to‘g‘risida asosli xabar bergan shaxsga nisbatan O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligini oldindan xabardor etmagan holda ikki yil davomida intizomiy jazo choralarini qo‘llashga yo‘l qo‘yilmaydi.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to‘g‘risida xabar qiluvchi shaxslarni rag‘batlantirish davlat tomonidan kafolatlanadi.

Rag‘batlantirish bir martalik pul mukofoti, tashakkurnoma, esdalik sovg‘asi shaklida yoki qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa shakllarda amalga oshirilishi mumkin”;

beshinchi va oltinchi qismlari tegishincha sakkizinchi va to‘qqizinchi qismlar deb hisoblansin;

11) quyidagi mazmundagi 28^1-modda bilan to‘ldirilsin:

“28^1-modda. Davlat organlari va tashkilotlari komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari xodimlarining xavfsizlik kafolatlari

Davlat organlari va tashkilotlarining komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari xodimlari davlat himoyasidadir.

Davlat organlari va tashkilotlarining komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari xodimlarining turar joyiga yoki xizmat xonasiga, foydalanadigan transportiga kirish, ularni ko‘zdan kechirish, ularda tintuv o‘tkazish yoki ulardan ashyoni olish, ularning telefondagi so‘zlashuvlarini eshitish, xodimlarni ko‘zdan kechirish va ularni shaxsiy tintuv qilish, shuningdek ularning xat-xabarlarini, ularga tegishli ashyolar va hujjatlarni ko‘zdan kechirish, olib qo‘yish yoxud olish faqat O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining yozma ruxsati bilan, belgilangan tartibda amalga oshirilishi mumkin.

Davlat organlari va tashkilotlarining komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari xodimini, shu jumladan u bilan mehnat shartnomasi tugatilganidan yoki xizmatdan bo‘shatilganidan keyin ikki yil ichida sobiq xodimini guvoh yoki gumon qilinuvchi sifatida so‘roq qilishga, ularga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llashga va ushlab turishga O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori xabardor etilgan holda, belgilangan tartibda yo‘l qo‘yiladi.

Davlat organlari va tashkilotlarining komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari xodimlariga nisbatan jinoyat ishi faqat O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan qo‘zg‘atilishi mumkin.

Davlat organlari va tashkilotlarining komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari xodimlari qonunchilikda belgilangan tartibda huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilinadi”.

6-modda. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 1-iyulda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining Hisob palatasi to‘g‘risida”gi O‘RQ-546-sonli Qonuniga (O‘zbekiston

Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2019-yil, № 7, 384-modda, № 9, 588-modda; 2021-yil, 4-songa ilova, № 8, 803, 804-moddalar, № 12, 1198-modda; 2023-yil, № 4, 272-modda, № 7, 539-modda, № 11, 923-modda; 2024-yil, № 2, 109-modda; 2025-yil, № 12, 1327-modda) quyidagi o‘zgartirishlar kiritilsin:

1) 4-moddaning o‘n to‘rtinchi xatboshisi chiqarib tashlansin;

2) 12-moddaning birinchi va ikkinchi qismlari quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Hisob palatasining raisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati ma’qullaganidan keyin lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

Hisob palatasi raisining birinchi o‘rinbosari va o‘rinbosarlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilangan tartibda lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi”;

3) 29^1-modda chiqarib tashlansin;

4) 30-moddaning o‘n sakkizinchi xatboshisidagi “shuningdek korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki nazorat tizimining joriy etilishiga hamda samarali faoliyat ko‘rsatishiga doir choralar o‘z vaqtida amalga oshirilmaganligi” degan so‘zlar chiqarib tashlansin;

5) 33-moddaning ikkinchi qismidagi “shuningdek korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki nazorat tizimining joriy etilishiga va samarali faoliyat ko‘rsatishiga doir choralar o‘z vaqtida amalga oshirilmaganligi keyingi nazorat jarayonida aniqlangan taqdirda” degan so‘zlar chiqarib tashlansin.

7-modda. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrda qabul qilingan “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi O‘RQ-595-sonli Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2019-yil, № 12, 889-modda; 2021-yil, 4-songa ilova, № 4, 290-modda, № 10, 968-modda; 2023-yil, № 3, 185-modda; 2024-yil, № 9, 958-modda; 2025-yil, № 12, 1329-modda; 2026-yil, № 2, 132-modda) 29-moddasining ikkinchi qismiga quyidagi qo‘shimcha va o‘zgartirish kiritilsin:

quyidagi mazmundagi beshinchi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“bolalarda halollik tuyg‘usini shakllantirishni, ularni qonunlarga nisbatan hurmat ruhida tarbiyalashni”;

beshinchi, oltinchi va yettinchi xatboshilar tegishincha oltinchi, yettinchi va sakkizinchi xatboshilar deb hisoblansin.

8-modda. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuniga (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2020-yil, № 9, 538-modda; 2021-yil, 4-songa ilova, № 10, 968-modda; 2023-yil, № 11, 923-modda; 2024-yil, № 1, 101-modda, № 9, 958, 964-moddalar, № 11, 1188-modda; 2025-yil, № 2, 188-modda, № 10, 1155-modda, № 12, 1329-modda) quyidagi qo‘shimchalar va o‘zgartirish kiritilsin:

1) 14^1-moddaning uchinchi qismi “boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlarni” degan so‘zlardan keyin “korrupsiyaga oid jinoyatlarni” degan so‘zlar bilan to‘ldirilsin;

2) 26-moddaning ikkinchi qismi:

quyidagi mazmundagi o‘n ikkinchi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlarini inobatga olgan holda ta’lim muassasalarida huquqiy ta’lim va tarbiyaga, mutaxassislarni kasbiy jihatdan tayyorlash sifatini oshirishga, ta’lim dasturlarini doimiy ravishda takomillashtirib borishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi”;

o‘n ikkinchi — yigirma oltinchi xatboshilari tegishincha o‘n uchinchi — yigirma yettinchi xatboshilar deb hisoblansin.

9-modda. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-aprelda qabul qilingan “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-684-sonli Qonunining (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2021-yil, № 4, 289-modda; 2024-yil, № 2, 111-modda, № 12, 1288-modda; 2025-yil, № 2, 188-modda, № 4, 519-modda, № 6, 730-modda; 2026-yil, № 3, 255-modda, № 4, 364-modda) 33-moddasi quyidagi mazmundagi uchinchi va to‘rtinchi qismlar bilan to‘ldirilsin:

“Davlat buyurtmachisi davlat xaridlarida sotib olinadigan tovarlar va xizmatlarning narxi hamda ularning o‘rtacha bozor narxi o‘rtasidagi tafovutning eng ko‘p yo‘l qo‘yiladigan aniq chegarasiga nisbatan belgilangan talablarga amal qilishi lozim.

Davlat xaridlarida sotib olinadigan tovarlar va xizmatlarning narxi hamda ularning o‘rtacha bozor narxi o‘rtasidagi tafovutning eng ko‘p yo‘l qo‘yiladigan aniq chegarasini belgilash tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi”.

10-modda. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, Oliy sudi va boshqa manfaatdor tashkilotlar ushbu Qonunning ijrosini, ijrochilarga yetkazilishini hamda mohiyati va ahamiyati aholi o‘rtasida tushuntirilishini ta’minlasin.

11-modda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

ushbu Qonunning 9-moddasida nazarda tutilgan Davlat xaridlarida sotib olinadigan tovarlar va xizmatlarning o‘rtacha bozor narxini o‘rganish va aniqlash hamda ularning boshlang‘ich narxi va o‘rtacha bozor narxi o‘rtasidagi tafovutning eng ko‘p yo‘l qo‘yiladigan aniq chegarasini, shuningdek narxlarning shakllantirilishi yuzasidan nazorat o‘rnatish tartibini ushbu Qonun rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran uch oylik muddatda ishlab chiqsin va tasdiqlasin;

hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin;

respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari ushbu Qonunga zid bo‘lgan o‘z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko‘rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta’minlasin.

12-modda. Ushbu Qonun rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2026-yil 22-iyun,
O‘RQ-1155-son

ILG5739

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING QARORI

KORRUPSIYAGA OID HUQUQBUZARLIK HAQIDA XABAR BERGAN YOKI KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHGA BOSHQA TARZDA KO‘MAKLASHGAN SHAXSLARNI RAG‘BATLANTIRISH TARTIBI TO‘G‘RISIDAGI NIZOMNI TASDIQLASH HAQIDA

“Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq, shuningdek, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish va korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini yanada oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirish asoslari va turlarini, shuningdek, korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirish masalasini ko‘rib chiqish tartibini nazarda tutuvchi Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risidagi nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Vazirliklar va idoralar o‘zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni bir oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

3. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari — O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vaziri J.A. Qo‘chqorov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV

Toshkent sh.,
2020-yil 31-dekabr,
829-son

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 829-son qaroriga
ILOVA

Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risida NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirish tartibini belgilaydi.

2. Vazirlar Mahkamasining “Fuqarolar va jamoat tashkilotlarini huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishdagi faol ishtiroki uchun rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2018-yil 8-yanvardagi 15-son qarori talablari ushbu Nizom bilan tartibga solinadigan munosabatlarga tatbiq etilmaydi.

3. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslar — fuqarolar, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar, nodavlat tijorat tashkilotining yoki boshqa nodavlat tashkilotining yoxud davlat organining, davlat ishtirokidagi tashkilotning yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi xizmatchisi;

korrupsiyaga qarshi kurashishda faol ishtirok etish — tayyorgarlik ko‘rilayotgan, sodir etilayotgan yoki sodir etilgan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar berish yoxud

korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etganligi uchun qonunchilik hujjatlariga muvofiq qidiruv e’lon qilingan shaxslarni topishda yordam ko‘rsatish;

korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashish — korrupsiyaga oid jinoyatlarni tergov qilish va uni fosh etishda ahamiyatga ega bo‘lgan dalillar haqida huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar berish yoki bunday toifadagi jinoyatlarni tergov qilish yoxud tezkor-qidiruv tadbirlarini o‘tkazishda bevosita ko‘maklashish;

korrupsiyaga oid ma’muriy huquqbuzarliklar — O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi 61^1, 193^1 va 193^2 va 193^4-moddalarida nazarda tutilgan huquqbuzarliklar;

korrupsiyaga oid jinoyatlar — O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 167-moddasining ikkinchi qismi “g” bandi, 168-moddasining uchinchi qismi “v” bandi, 192^9 va 192^{10}, 205, 209 — 214-moddalari, 243-moddasida nazarda tutilgan jinoyatlarni mansab mavqeyidan foydalangan holda sodir etish hamda 301-moddasida ko‘rsatilgan jinoyatlar;

korrupsiyaga oid jinoyatlarni aniqlash va fosh etish bilan bog‘liq tezkor-qidiruv tadbirlarini hamda protsessual harakatlarni amalga oshiruvchi organlar (keyingi o‘rinlarda — korrupsiyaga qarshi kurashuvchi organlar) — O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi, Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti.

4. Quyidagilar korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirishning (keyingi o‘rinlarda — rag‘batlantirish) asosiy vazifalari hisoblanadi:

jamiyatda korrupsiyaning barcha ko‘rinishlariga murosasiz munosabatni shakllantirish hamda ushbu sohada davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta’minlash;

korrupsiyaga oid jinoyatlarning barvaqt profilaktikasini ta’minlash, bunga imkon berayotgan shart-sharoitlarni o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etish;

aholining korrupsiyaga qarshi kurashishdagi faolligini yanada oshirish hamda ularni ushbu sohaga qo‘shayotgan hissasi uchun munosib taqdirlash.

5. Rag‘batlantirish qonuniylik, adolatlilik, xolislik, oshkoralik, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etish hamda ularning shaxsiy xavfsizligini ta’minlash va xohish-istaklarini hisobga olish prinsiplari asosida amalga oshiriladi.

6. Ushbu Nizom talablari quyidagi shaxslarga nisbatan tatbiq etilmaydi:

mansabdor shaxslar, shu jumladan, “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarga maxfiylik asosida ko‘maklashuvchi shaxslar;

qonunchilik hujjatlariga muvofiq korrupsiyaga oid jinoyatlar haqida o‘ttiz sutka mobaynida o‘z ixtiyori bilan arz qilgan yoki korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni bevosita sodir etgan shaxslar.

7. Rag‘batlantirish bir martalik pul mukofoti, tashakkurnoma yoki esdalik sovg‘a shaklida belgilanadi.

2-bob. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirish asoslari va turlari

8. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslar quyidagi asoslardan biri mavjud bo‘lganda bir martalik pul mukofoti bilan rag‘batlantiriladi:

fuqarolar yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar tomonidan o‘zlariga nisbatan pora talab qilgan shaxs haqida yoki o‘zlariga ma’lum bo‘lgan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida korrupsiyaga qarshi kurashuvchi organlarga bergan xabari asosida bunday huquqbuzarlik fosh etilishi;

nodavlat tijorat tashkilotining yoki boshqa nodavlat tashkilotining yoxud davlat organining, davlat ishtirokidagi tashkilotning yoki fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organining xizmatchisi o‘ziga nisbatan pora berishni taklif etgan yoki pora talab qilgan shaxs haqida yoxud o‘ziga ma’lum bo‘lgan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida korrupsiyaga qarshi kurashuvchi organlarga (korrupsiyaga qarshi kurashuvchi organlarning xodimlari esa bevosita o‘z rahbariga) bergan xabari asosida huquqbuzarlik fosh etilishi;

korrupsiyaga oid jinoyatni sodir etganligi uchun qidiruvda bo‘lgan shaxs to‘g‘risida huquqni muhofaza qiluvchi organlarga berilgan xabar asosida qidiruvdagi shaxs ushlanishi, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning xodimlari bundan mustasno.

9. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslar quyidagi miqdordagi bir martalik pul mukofoti bilan rag‘batlantiriladi:

a) korrupsiyaga oid ma’muriy huquqbuzarliklar haqida berilgan xabar uchun:

O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 61^1, 193^1 va 193^2-moddalarida nazarda tutilgan huquqbuzarliklar uchun — bazaviy hisoblash miqdorining uch baravari miqdorida;

O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 193^4-moddasida nazarda tutilgan huquqbuzarliklar uchun — undirilgan jarimaning ellik foizi miqdorida;

b) pora summasi yoki yetkazilgan zarar yoxud o‘zlashtirilayotgan (o‘zlashtirilgan) mulkning qiymati bazaviy hisoblash miqdorining o‘ttiz baravarigacha bo‘lsa:

ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyat uchun — bazaviy hisoblash miqdorining besh baravari miqdorida;

uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyat uchun — bazaviy hisoblash miqdorining yetti baravari miqdorida;

og‘ir jinoyat uchun — bazaviy hisoblash miqdorining o‘n baravari miqdorida;

o‘ta og‘ir jinoyat uchun — bazaviy hisoblash miqdorining o‘n besh baravari miqdorida;

v) pora summasi yoki yetkazilgan zarar yoxud o‘zlashtirilayotgan (o‘zlashtirilgan) mulkning qiymati bazaviy hisoblash miqdorining o‘ttiz baravaridan yuz baravarigacha bo‘lsa:

ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyat uchun-bazaviy hisoblash miqdorining o‘n baravari miqdorida;

uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyat uchun — bazaviy hisoblash miqdorining o‘n besh baravari miqdorida;

og‘ir jinoyat uchun — bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravari miqdorida;

o‘ta og‘ir jinoyat uchun — bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravari miqdorida;

g) pora summasi yoki yetkazilgan zarar yoxud o‘zlashtirilayotgan (o‘zlashtirilgan) mulkning qiymati bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan ko‘p bo‘lsa, quyidagi foiz hisobida hisoblanadi:

ancha miqdor uchun — pora summasi yoki yetkazilgan zarar yoxud o‘zlashtirilayotgan (o‘zlashtirilgan) mulk qiymatining o‘n besh foizi miqdorida;

ko‘p yoki juda ko‘p miqdor uchun — pora summasi yoki yetkazilgan zarar yoxud o‘zlashtirilayotgan (o‘zlashtirilgan) mulk qiymatining o‘n foizi miqdorida.

Bunda pora summasi yoki yetkazilgan zarar yoxud o‘zlashtirilayotgan (o‘zlashtirilgan) mulk qiymatini foizlarda hisoblashda qonunchilik hujjatlarida belgilangan miqdorning eng kam miqdoridan kelib chiqiladi;

d) qidiruvda bo‘lgan shaxsning yashiringan joyi haqida xabar berganligi uchun bazaviy hisoblash miqdorining besh baravari, ikki yoki undan ortiq qidiruvda bo‘lgan shaxslarning yashiringan joyi haqida bir vaqtda xabar berganligi uchun esa — bazaviy hisoblash miqdorining yetti baravari miqdorida.

10. Korrupsiyaga oid jinoyatlarni tergov qilish va uni fosh etishda ahamiyatga ega bo‘lgan dalillar haqida korrupsiyaga qarshi kurashuvchi organlarga xabar berganlik yoki bunday

toifadagi jinoyatlarni tergov qilish yoxud tezkor-qidiruv tadbirlarini o‘tkazishda bevosita ko‘maklashganlik uchun shaxs tashakkurnoma yoki esdalik sovg‘a shaklida rag‘batlantirish tarzida taqdirlanadi, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning xodimlari bundan mustasno.

Esdalik sovg‘a qiymati bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravaridan oshmasligi lozim.

11. Quyidagi holatlarda korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxs:

ikki va undan ortiq korrupsiyaga oid ma’muriy huquqbuzarlik haqida xabar berganlik uchun bazaviy hisoblash miqdorining to‘rt baravari;

har xil tasnifdagi ikki va undan ortiq korrupsiyaga oid jinoyatlar haqida xabar berganlik uchun ushbu jinoyatlarning ijtimoiy xavfliligidan kelib chiqib og‘irroq tasnifi bo‘yicha bir marta;

bir xil tasnifdagi ikki va undan ortiq korrupsiyaga oid jinoyatlar haqida xabar berganlik uchun bir marta;

korrupsiyaga oid ma’muriy huquqbuzarlik yoki jinoyat haqida yoxud qidiruvdagi shaxs to‘g‘risida ikki yoki undan ortiq shaxsning bergan xabari uchun mazkur Nizomning 9 va 11-bandlarida ko‘rsatilgan pul mukofoti miqdorining teng ulushlarida rag‘batlantiriladi.

12. Shaxs korrupsiyaga qarshi kurashishga munosib hissa qo‘shganligi uchun qonunchilik hujjatlariga muvofiq davlat mukofotiga ham tavsiya etilishi mumkin.

13. Quyidagi qarorlardan biri qabul qilingandan so‘ng rag‘batlantirish masalasi ko‘rib chiqiladi:

korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar bo‘yicha jinoyat ishlari yuzasidan sudning ayblov hukmi yoki qarori qonuniy kuchga kirganda;

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 84-moddasi birinchi qismining 1 — 3-bandlari, uchinchi qismi hamda beshinchi qismining 1-bandi asosida ayblilik to‘g‘risidagi masalani hal qilmay turib jinoyat ishini tugatish haqidagi qaror prokuror tomonidan tasdiqlanganda yoki sudning ajrimi qonuniy kuchga kirganda;

qidiruvdagi shaxsga nisbatan qidiruvning bekor qilinganligi to‘g‘risida prokurorning, surishtiruvchining, tergovchining qarori yoki sudning ajrimi qabul qilinganda.

14. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirish bilan bog‘liq xarajatlar O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

3-bob. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirish masalasini ko‘rib chiqish tartibi

15. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirish masalasi korrupsiyaga qarshi kurashuvchi organlar huzurida tuziladigan maxsus komissiyalar tomonidan ko‘rib chiqiladi.

Bunda respublika darajasidagi korrupsiyaga qarshi kurashuvchi organlar rag‘batlantirish to‘g‘risidagi taqdimnoma bilan respublika maxsus komissiyasiga, ularning hududiy bo‘linmalari tomonidan esa hududiy maxsus komissiyalarga chiqadilar.

16. Maxsus komissiyalarning tarkibi, faoliyat yuritish tartibi, raisi va a’zolarining huquq hamda majburiyatlari korrupsiyaga qarshi kurashuvchi organlar tomonidan belgilanadi.

17. Taqdimnomaga rag‘batlantirish uchun asos bo‘luvchi quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

ro‘yxatdan o‘tgan ariza nusxasi yoki og‘zaki berilgan xabarni tasdiqlovchi ma’lumotlar;

sudning qonuniy kuchga kirgan qarori yoki ayblov hukmi nusxasi;

qidiruvni bekor qilish haqida, shuningdek, ayblilik to‘g‘risidagi masalani hal qilmay turib jinoyat ishini tugatish to‘g‘risida chiqarilgan ajrim yoki qaror nusxasi;

shaxsni tasdiqlovchi hujjat nusxasi;

korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslarning shaxsiy hisobvarag‘i bo‘lgan bank rekvizitlari.

18. Korrupsiyaga qarshi kurashuvchi organlarning rag‘batlantirish bo‘yicha taqdimnomasi va unga ilova qilingan asoslovchi hujjatlar rag‘batlantirish uchun asos yuzaga kelgan kundan boshlab uch ish kuni ichida maxsus komissiyalarga taqdim etiladi.

19. Maxsus komissiyalar tomonidan rag‘batlantirishga oid hujjatlar olingan kundan boshlab besh ish kuni ichida taqdim etilgan hujjatlarning to‘liqliligi, asosliligi hamda ushbu Nizom talablariga rioya qilinganligi ko‘rib chiqiladi.

20. Rag‘batlantirish uchun taqdim etilgan hujjatlar to‘liq emasligi hamda ushbu Nizom talablariga rioya qilinmaganligi aniqlangan taqdirda, ikki ish kuni ichida qaytariladi.

Qaytarilish uchun asos bo‘lgan holatlar bartaraf etilgan taqdirda, tegishli hujjatlar ushbu Nizom talablari asosida rag‘batlantirish uchun qayta taqdim etilishi mumkin.

21. Rag‘batlantirish bo‘yicha maxsus komissiyalar tomonidan chiqarilgan qarorlar uch ish kuni ichida taqdimnomani kiritgan korrupsiyaga qarshi kurashuvchi organga ijro uchun yuboriladi.

22. Maxsus komissiyalarning raislari komissiya qarori qonuniyligi, xolisligi hamda shaxslarning shaxsiga oid ma’lumotlar oshkor etilmasligi uchun shaxsan javobgar hisoblanadi.

23. Korrupsiyaga qarshi kurashuvchi organ maxsus komissiyaning qarori asosida bir ish kuni ichida bir martalik pul mukofoti yoki esdalik sovg‘asi bilan taqdirlash haqida qaror chiqaradi.

Bir martalik pul mukofoti xarajatlar smetasiga o‘zgartirish kiritilgandan so‘ng o‘n ish kuni ichida shaxslarning shaxsiy hisobvarag‘iga o‘tkazib beriladi, esdalik sovg‘asi esa qonunchilik hujjatlariga muvofiq sovg‘a qilinadigan buyum xarid qilingandan so‘ng besh ish kuni ichida topshiriladi.

24. Tashakkurnoma shaklida rag‘batlantirish masalasi bevosita korrupsiyaga qarshi kurashuvchi organ rahbari tomonidan ko‘rib chiqiladi.

4-bob. Yakunlovchi qoidalar

25. Rag‘batlantirilgan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslarning hisobi korrupsiyaga qarshi kurashuvchi organlar taqdim etgan ma’lumot asosida O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan yuritiladi.

26. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslar, ularning oila a’zolari va yaqin qarindoshlarining xavfsizligini ta’minlash maqsadida ular haqidagi ma’lumotlar qonunchilik hujjatlarida belgilangan talablar asosida oshkor etilishi mumkin.

27. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslar, ularning oila a’zolari va yaqin qarindoshlarini himoya qilish qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

28. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirish bilan bog‘liq nizolar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

29. Ushbu Nizom talablari buzilganligida aybdor bo‘lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

ILG5739

QARORI

DAVLAT ORGANLARI VA TASHKILOTLARI FAOLIYATIDA KORRUPSIYAGA OID XAVF-XATARLARNI ANIQLASH VA BAHOLASH USLUBIYOTINI TASDIQLASH TO‘G‘RISIDA

[O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2026-yil 10-oktabrda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3952]

O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PQ-240-son “Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va Adliya vazirligi qaror qiladi:

1. Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatida korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni aniqlash va baholash uslubiyoti 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar 2-ilovaga muvofiq o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin.

3. Mazkur qaror O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi va Sog‘liqni saqlash vazirligi bilan kelishilgan.

4. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktori A. BURXANOV

Toshkent sh.,
2026-yil 10-oktabr,
104-son

Adliya vaziri A. TASHKULOV

Toshkent sh.,
2026-yil 10-oktabr,
2-son

Kelishildi:

Iqtisodiyot va moliya vaziri J. KUCHKAROV
2026-yil 29-sentabr

Bosh prokuror N. YO‘LDOSHEV
2026-yil 29-sentabr

Ichki ishlar vaziri A. TASHPULATOV
2026-yil 23-sentabr

Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vaziri B. ZOXIDOV
2026-yil 15-sentabr

Sog‘liqni saqlash vaziri E. ADILOV
2026-yil 11-sentabr

O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining 2026-yil 10 oktyabdagi 104-son va Adliya vazirligining 2026-yil 10 oktyabdagi 2-son qaroriga
1-ILOVA

Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatida korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni aniqlash va baholash

USLUBIYOTI

Mazkur Uslubiyot davlat organlari va tashkilotlari, ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan xo‘jalik jamiyatlari (bundan buyon matnda davlat organlari va tashkilotlari deb yuritiladi) faoliyatida korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni aniqlash va baholash tartibini belgilaydi.

Ushbu Uslubiyot O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senati, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi, sud, prokuratura, ichki ishlar, mudofaa ishlari, favqulodda vaziyatlar, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, Davlat xavfsizlik xizmati va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat xavfsizlik xizmati organlariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Uslubiyotda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

korrupsiyaga oid xavf-xatar — shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda mavjud sabab va sharoitlarda korrupsiyaviy xatti-harakatlarni sodir etish ehtimoli;

jarayon — davlat organlari va tashkilotlari tomonidan o‘z funksiyalari doirasida boshqaruv qarorlarini qabul qilish, davlat xizmatlarini ko‘rsatish, tekshirish va nazorat tadbirlarini o‘tkazish, resurslarni taqsimlash, hujjatlarni rasmiylashtirish, sanksiyalarni qo‘llash yoki boshqa yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan harakatlar majmui;

shubhali holatlar — davlat organlari va tashkilotlari o‘z funksiyalari doirasidagi jarayonlarni amalga oshirishda korrupsiyaviy xatti-harakatlar sodir etilishi ehtimolini ko‘rsatuvchi holatlar;

umumiy xavf — mavjud nazorat choralarining ta’siri hisobga olinmagan yoki qisman hisobga olingan holda aniqlanadigan korrupsiyaga oid xavf-xatar;

qoldiq xavf — aniqlangan korrupsiyaga oid xavf-xatarni bartaraf etish yuzasidan belgilangan choradan keyin saqlanib qoladigan xavf-xatar;

maxsus bo‘linma — davlat organlari va tashkilotlaridagi komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi;

ishchi guruh — komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi mavjud bo‘lmagan davlat organi yoki tashkilotida korrupsiyaga oid xavf-xatarni baholash uchun tuziladigan xodimlar tarkibi.

2. Korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni baholashdan maqsad davlat organlari va tashkilotlari funksiyalarini amalga oshirish jarayonlarida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etilishiga sabab bo‘lishi mumkin bo‘lgan omillarni aniqlash, korrupsiyaga oid xavf-xatar darajasini dalillar asosida baholash hamda o‘rta va yuqori xavfli jarayonlar bo‘yicha ularni kamaytirish va bartaraf etishga qaratilgan mutanosib va ustuvor chora-tadbirlarni belgilashdan iborat.

3. Korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni baholash qonuniylik, xolislik, asoslanganlik, jarayonlarga yo‘naltirilganlik, shaffoflik va hisobdorlik prinsiplari asosida amalga oshiriladi.

4. Korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni aniqlash va baholashda quyidagilar ishlab chiqilishi lozim:

jarayonlar reyestri;

korrupsiyaga oid xavf-xatarlar xaritasi;

korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni kamaytirish yoki bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi (bundan buyon matnda chora-tadbirlar dasturi deb yuritiladi);

korrupsiyaga oid xavf-xatar yuqori bo‘lgan lavozimlar ro‘yxati;

korrupsiyaga moyil bo‘lgan munosabatlar elektron reyestri;

monitoring hisoboti.

Chora-tadbirlar dasturi va korrupsiyaga oid xavf-xatar yuqori bo‘lgan lavozimlar ro‘yxati jarayonlar reyestri hamda korrupsiyaga oid xavf-xatarlar xaritasidagi ma’lumotlar asosida “E-Anticor.uz” elektron platformasida avtomatik shakllantiriladi.

5. Mazkur Uslubiyot talablari davlat sirlari yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi ma’lumotlar bilan ishlashning qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibiga rioya etilgan holda qo‘llaniladi.

2-bob. Korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni baholashni tashkil etish

6. Korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni aniqlash va baholash davlat organlari va tashkilotlarining markaziy apparati, hududiy va tarkibiy bo‘linmalarini qamrab oladi.

Bunda korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni aniqlash va baholash maxsus bo‘linma yoki ishchi guruh tomonidan amalga oshiriladi.

7. Ishchi guruh a’zolari davlat organi yoki tashkilotining tarkibiy bo‘linmalari rahbarlaridan iborat tarkibda tashkil etiladi.

Davlat organi yoki tashkilotining birinchi rahbari tomonidan ishchi guruh tarkibi tasdiqlanadi hamda uning faoliyati muvofiqlashtiriladi.

8. Davlat organi yoki tashkilotining birinchi rahbari korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni baholashni lozim darajada tashkil etish, baholash natijalarining to‘liqligi va ishonchliligini ta’minlash, shuningdek belgilangan chora-tadbirlarning o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirilishi uchun shaxsan javobgar hisoblanadi.

9. Davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni baholashning ichki uslubiyoti maxsus bo‘linma yoki ishchi guruh tomonidan ishlab chiqiladi.

10. Korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni baholash har yili 1-fevralga qadar maxsus bo‘linma yoki ishchi guruh tomonidan amalga oshiriladi hamda uning natijalari bo‘yicha ishlab chiqilgan korrupsiyaga oid xavf-xatarlar xaritasi va chora-tadbirlar dasturi “E-anticor.uz” elektron platformasi orqali har yili 1-martga qadar maxsus bo‘linma yoki ishchi guruh tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (bundan buyon matnda Agentlik deb yuritiladi) bilan kelishilgan holda tasdiqlanadi.

Bunda Agentlik korrupsiyaga oid xavf-xatarlar xaritasi va chora-tadbirlar dasturini ular kelib tushgan kundan e’tiboran o‘n ish kuni ichida ko‘rib chiqadi hamda ularni kelishadi yoki mazkur Uslubiyotga muvofiqlashtirish yuzasidan tegishli ko‘rsatmalar berishi mumkin.

11. Agentlik “E-anticor.uz” elektron platformasiga kiritilgan ma’lumotlar asosida mazkur Uslubiyotning 1-ilovasidagi shaklga muvofiq korrupsiyaga moyil bo‘lgan munosabatlar elektron reyestrini yuritadi.

12. Korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni baholash quyidagi hollarda navbatdan tashqari o‘tkaziladi:

qonunchilik hujjatlari yoki ichki hujjatlarga tegishli funksiya yoki jarayonga ta’sir qiluvchi o‘zgartirishlar kiritilganda;

yangi elektron axborot tizimi yoki davlat xizmati joriy etilganda;

davlat organlari va tashkilotlari tomonidan funksiya yoki jarayonni amalga oshirishda yangi korrupsiyaga oid xavf-xatarlar aniqlanganda;

davlat organlari va tashkilotlari tuzilmasiga o‘zgarishlar kiritilganda;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining Komplayens xizmati yoki Agentlikning tegishli ko‘rsatmasi asosida.

13. Agentlik davlat organlari va tashkilotlariga korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni baholashni tashkil etishda huquqiy-uslubiy ko‘mak ko‘rsatadi.

3-bob. Korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni baholash obyektlari

14. Korrupsiyaga oid xavf-xatarlar davlat organlari va tashkilotlarining funksiyalarini amalga oshirish bilan bog‘liq jarayonlar kesimida baholanadi.

15. Korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni baholash obyektlariga quyidagilar kiradi:

monitoring va nazoratni amalga oshirish;

davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirish;

litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish xususiyatiga ega hujjatlar, boshqa sertifikatlar va xulosalar berish;

davlat xizmatlarini ko‘rsatish;

davlat xaridlarini amalga oshirish va shartnomalar tuzish;

budjet mablag‘lari, subsidiyalar, grantlar va imtiyozlarni taqsimlash;

xodimlarni tanlash, ishga qabul qilish va lavozimga tayinlash;

davlat aktivlari va davlat ulushlarini boshqarish;

jarimalar, sanksiyalar va boshqa majburlov choralarini qo‘llash;

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaat va shikoyatlarini ko‘rib chiqish;

davlat organlari va tashkilotlari faoliyatiga xos bo‘lgan boshqa jarayonlar.

16. Har bir jarayonning huquqiy asoslari, qaror qabul qilish bosqichlari, mas’ul tarkibiy bo‘linma va lavozimlar hamda mavjud nazorat choralari aniqlanib, mazkur Uslubiyotning 2-ilovasidagi shaklga muvofiq jarayonlar reyestri maxsus bo‘linma yoki ishchi guruh tomonidan tuziladi.

4-bob. Korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni aniqlash

17. Korrupsiyaga oid xavf-xatarlar ichki va tashqi axborot manbalaridan olingan ma’lumotlar hamda shubhali holatlarni tahlil qilish asosida maxsus bo‘linma yoki ishchi guruh tomonidan aniqlanadi.

18. Ichki axborot manbalariga quyidagilar kiradi:

qonunchilik hujjatlari, ichki idoraviy hujjatlar va jarayonlarni tartibga soluvchi reglamentlar;

monitoring, nazorat, xizmat tekshiruvlari va ichki audit natijalari hamda materiallari;

odob-axloq komissiyasi faoliyatiga oid materiallar;

manfaatlar to‘qnashuviga oid ma’lumotlar;

davlat xaridlari, budjet mablag‘laridan foydalanish, kadrlarni tanlash, litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish jarayonlari hamda axborot tizimlariga oid ma’lumotlar;

murojaatlar, korrupsiya holatlari to‘g‘risida maxsus aloqa kanallari orqali kelib tushgan xabarlar;

xodimlar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnomalar va intervyular natijalari.

19. Tashqi axborot manbalariga quyidagilar kiradi:

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari;

huquqni muhofaza qiluvchi, sud va nazorat qiluvchi organlarning materiallari;

ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda e’lon qilingan ma’lumotlar;

ochiq ma’lumotlar portallarida joylashtirilgan ma’lumotlar;

jamoatchilik muhokamalari natijalari;

mustaqil audit natijalari.

20. Korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni aniqlashda quyidagi shubhali holatlar alohida tahlil qilinishi lozim:

xodimning keng diskretsion vakolatlarga egaligi;

qaror qabul qilish mezonlarining aniq belgilanmaganligi;

fuqarolar, tadbirkorlik subyektlari yoki boshqa manfaatdor shaxslar bilan bevosita muloqot qilish imkoniyati;

mustaqil nazorat mexanizmlarining yetarli emasligi;

qaror qabul qilish, xizmat ko‘rsatish yoki boshqa jarayonlarni asossiz ravishda rad etish, kechiktirish yoxud tezlashtirish imkoniyati;

bir shaxs tomonidan jarayonning bir nechta muhim bosqichlari amalga oshirilishi;

ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi holatlarining mavjudligi;

bir xil yoki o‘xshash masalalar yuzasidan takroriy shikoyatlarning mavjudligi;

qarorlarni tegishli nazoratsiz yoki asossiz yopiq tartibda qabul qilish holatlarning mavjudligi.

5-bob. Korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni baholash mezonlari

21. Korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni baholashda quyidagilar majburiy tartibda inobatga olinishi lozim:

korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar, shu jumladan manfaatlar to‘qnashuvi va xizmat mavqeyidan qonunga xilof ravishda foydalanish holatlari bo‘yicha statistik ma’lumotlar;

korrupsiyaga oid murojaatlar, ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlarda keng jamoatchilik muhokamasiga sabab bo‘lgan xabarlar, shuningdek maxsus aloqa kanallari orqali kelib tushgan ma’lumotlar;

jarayonning raqamlashganlik darajasi, ma’lumotlar almashinuvining avtomatlashtirilganligi, axborot tizimlarida amalga oshirilgan harakatlarni qayd etish va monitoring qilish imkoniyati, shuningdek qaror qabul qilishda inson omilining ta’siri;

jarayonning huquqiy jihatdan tartibga solinganlik darajasi, tartib-taomillar, muddatlar, mas’ul lavozimlar va qaror qabul qilish asoslarining aniq belgilanganligi, shuningdek diskretsion vakolatlarning mavjudligi.

22. Korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni baholashning ichki uslubiyotini ishlab chiqishda davlat organlari va tashkilotlari o‘z faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda qo‘shimcha baholash mezonlarini belgilashi mumkin.

6-bob. Korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni baholash bosqichlari

23. Korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni baholash maxsus bo‘linma yoki ishchi guruh tomonidan quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

jarayonlarni aniqlash;

korrupsiyaga oid xavf-xatarning kelib chiqish sabablarini aniqlash;

amaldagi nazorat choralarini tahlil qilish;

umumiy va qoldiq xavf darajasini aniqlash;

korrupsiyaga oid xavf-xatarni kamaytirish yoki bartaraf etish choralarini ishlab chiqish va samaradorligini baholash.

24. Korrupsiyaga oid xavf-xatar belgilari ularning tegishli jarayonga ta’sir darajasi, korrupsiyaviy holatning sodir etilish ehtimoli hamda mavjud nazorat choralarining yetarliligi inobatga olingan holda oddiy, muhim va og‘ir toifalarga ajratiladi.

Oddiy xavf belgisi — korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir etilishiga imkoniyatlar yaratmaydigan, biroq tartib-taomillar, muddatlar, qarorlarni asoslash va qayd etishga doir talablarning aniq belgilanmaganligi yoki nazorat choralarining formal xususiyatga egaligi natijasida jarayonning shaffofligi, aniqligi yoxud nazorat qilinish darajasini pasaytirishi mumkin bo‘lgan holat.

Oddiy xavf belgilariga quyidagilar kiradi:

jarayon bosqichlari va ularni amalga oshirish ketma-ketligining aniq belgilanmaganligi;

jarayon bo‘yicha qaror qabul qilish muddati, uni uzaytirish asoslari va tartibining aniq belgilanmaganligi;

jarayon bo‘yicha qabul qilinadigan qarorni asoslash mezonlari va talablarining aniq belgilanmaganligi;

qabul qilingan qarorlar, amalga oshirilgan harakatlar va ularning natijalarini hujjatlarda yoki axborot tizimlarida qayd etish tartibining aniq belgilanmaganligi;

jarayonning ayrim bosqichlarida axborot ochiqligi va shaffoflikni ta’minlash tartibining aniq belgilanmaganligi, bundan davlat sirlari yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi ma’lumotlar mustasno;

jarayonning yetarli darajada raqamlashtirilmaganligi natijasida amalga oshirilgan harakatlar va qabul qilingan qarorlarni qayd etish yoki keyinchalik tekshirish imkoniyatining cheklanganligi;

bir martalik, tasdiqlanmagan yoki tizimli xususiyatga ega bo‘lmagan murojaat, shikoyat yoxud shubhali holat mavjudligi;

xodim vakolatlarini amalga oshirish tartibi va ular ustidan nazorat mexanizmining aniq belgilanmaganligi.

Muhim xavf belgisi — korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir etilishi ehtimolini oshiradigan, qaror qabul qilish mezonlarining aniq belgilanmaganligi sababli mansabdor shaxsga asossiz tanlov qilish imkoniyatini beradigan yoki amaldagi nazorat mexanizmlarining samarali ishlashiga to‘sqinlik qiladigan holat.

Muhim xavf belgilariga quyidagilar kiradi:

qaror qabul qilishning aniq mezonlari belgilanmaganligi sababli mansabdor shaxsda diskretsion vakolatlarning kengligi;

ariza yoki hujjatlarni qabul qilish, ular bo‘yicha qaror qabul qilish hamda qabul qilingan qarorning ijrosini nazorat qilish funksiyalarining bir shaxs yoki bir tarkibiy bo‘linmada jamlanganligi;

bir jarayon doirasida yoki mazmunan o‘xshash holatlar bo‘yicha takroran kelib tushgan asoslangan korrupsiyaga oid murojaatlar, shikoyatlar yoki shubhali holatlarning mavjudligi;

aniqlangan manfaatlar to‘qnashuvini oshkor qilish, bartaraf etish yoki boshqarish choralarining o‘z vaqtida amalga oshirilmaganligi;

jarayonda belgilangan kelishish, tekshirish, tasdiqlash yoki nazorat tartib-taomillarini chetlab o‘tish imkoniyatining mavjudligi;

axborot tizimlarida amalga oshirilgan harakatlarni avtomatik qayd etish va keyinchalik tekshirish imkoniyatining mavjud emasligi;

jarayon bilan bog‘liq qonunbuzilish faktining xizmat tekshiruvi, ichki audit natijalari yoxud vakolatli organning tegishli hujjati bilan tasdiqlanganligi.

Og‘ir xavf belgisi — korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir etilishi oqibatida davlat va jamiyat manfaatlariga, budjet mablag‘lari va davlat aktivlariga, shuningdek jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga jiddiy zarar yetkazish ehtimoli yuqori bo‘lgan holat.

Og‘ir xavf belgilariga quyidagilar kiradi:

baholanayotgan yoki mazmunan o‘xshash jarayonda korrupsiyaga oid huquqbuzarlik fakti sud hujjati yoki vakolatli davlat organining tegishli hujjati bilan tasdiqlanganligi;

bir nechta xodim yoki tarkibiy bo‘linma ishtirokida nazorat tartib-taomillarining muntazam ravishda chetlab o‘tilishi;

budjet mablag‘lari, davlat aktivlari yoki mulkiy huquqlarni taqsimlashga doir qarorlarni ichki yoki tashqi nazorat mexanizmi mavjud bo‘lmagan holda qabul qilish imkoniyatining mavjudligi;

jismoniy yoki yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga jiddiy zarar yetkazish xavfi mavjudligi;

jarayonda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan nazorat choralarining mavjud emasligi yoki samarasizligi tekshiruv, audit, monitoring natijalari yoxud boshqa ishonchli va tekshiriladigan ma’lumotlar bilan tasdiqlanganligi.

Xavf belgisini oddiy, muhim yoki og‘ir toifaga kiritish qonunchilik hujjatlari hamda tekshirish mumkin bo‘lgan boshqa ma’lumotlar, shu jumladan statistik ma’lumotlar, murojaatlar va shikoyatlar, xizmat tekshiruvlari, ichki audit va monitoring natijalari, shuningdek axborot tizimlaridagi qaydlar asosida asoslantirilishi lozim.

25. Korrupsiyaga oid xavf-xatar darajasi aniqlangan xavf belgilari xususiyatidan kelib chiqib quyidagicha belgilanadi:

past — faqat oddiy xavf belgilari mavjud bo‘lganda;

o‘rta — bitta muhim xavf belgisi mavjud bo‘lib, og‘ir xavf belgisi mavjud bo‘lmaganda;

yuqori — kamida bitta og‘ir xavf belgisi yoki ikki va undan ortiq muhim xavf belgisi mavjud bo‘lganda.

Bunda yuqori xavf-xatar darajasi aniqlangan taqdirda, tegishli jarayonni amalga oshirishning yangi tartibi ishlab chiqiladi yoki jarayon raqamlashtiriladi yoxud mavjud nazorat mexanizmlari tubdan qayta ko‘rib chiqiladi.

7-bob. Korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni kamaytirish va bartaraf etish

26. Korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni kamaytirish va bartaraf etish choralari xavf-xatar darajasi hamda uning kelib chiqish sabablaridan kelib chiqqan holda belgilanadi hamda mas’ul ijrochilar, amalga oshirish muddatlari, natijadorlik indikatorlari va monitoring tartibini nazarda tutadi.

27. Korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni kamaytirish va bartaraf etish choralari quyidagi shakllarda amalga oshirilishi mumkin:

normativ-huquqiy hujjatlar va ichki idoraviy hujjatlar loyihalarini qabul qilish;

qaror qabul qilish mezonlarini aniqlashtirish;

inson omilini qisqartirish va raqamlashtirish;

vazifalarni ajratish;

davlat organlari va tashkilotlarining xodimlari va jismoniy shaxslar o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqani maksimal darajada cheklash;

ochiq ma’lumotlar doirasini kengaytirish va (yoki) jamoatchilik nazoratini kuchaytirish;

manfaatlar to‘qnashuvini aniqlash va boshqarish;

ichki audit va komplayens nazoratini kuchaytirish;

xodimlarni rotatsiya qilish yoki xavf darajasi yuqori lavozimlar bo‘yicha maxsus talablar belgilash;

ortiqcha ma’muriy tartib-taomillarni bekor qilish, ortiqcha tartibga solish mexanizmlarini bekor qilish, taqdim etilgan hujjatlar soni va qaror qabul qilish muddatlarini qisqartirish;

tushuntirish ishlari, profilaktik suhbatlar o‘tkazish va targ‘ibot ishlarini amalga oshirish;

xodimlar tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish bo‘yicha ichki hujjatlarga to‘liq rioya etilishini nazorat qilish.

28. Korrupsiyaga oid xavf-xatarlar xaritasi mazkur Uslubiyotning 3-ilovasidagi shaklga muvofiq maxsus bo‘linma yoki ishchi guruh tomonidan ishlab chiqiladi.

8-bob. Monitoring, hisobdorlik va qayta baholash

29. Agentlik davlat organlari va tashkilotlari bilan birgalikda chora-tadbirlar dasturining ijrosini har yarim yilda kamida bir marta monitoring qilib boradi.

30. Monitoring qilish jarayonida chora-tadbirlar dasturining bajarilishi, belgilangan natijalarga erishilganligi, nazorat choralarining amalda samarali ishlashi, qoldiq xavf darajasining o‘zgarishi hamda qo‘shimcha choralar ko‘rish zarurati o‘rganiladi.

Monitoring hisoboti davlat organi yoki tashkilotining birinchi rahbari bilan kelishilgandan so‘ng, monitoring natijalari bo‘yicha aniqlangan kamchiliklar korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni kamaytirish yoki bartaraf etishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlarni belgilash uchun asos bo‘ladi.

31. Monitoring natijalari yuzasidan Agentlik tomonidan ushbu Uslubiyotning 4-ilovasidagi shaklga muvofiq monitoring hisoboti tayyorlanadi hamda u kelishish uchun davlat organlari va tashkilotlarining birinchi rahbariga kiritiladi.

9-bob. Yakuniy qoida

32. Mazkur Uslubiyot talablarini buzilganlikda aybdor bo‘lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.

Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatida korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni aniqlash va baholash uslubiyotiga
1-ILOVA

Korrupsiyaga moyil bo‘lgan munosabatlar elektron reyestri

NAMUNAVIY SHAKLI

T/r	Mas’ul idora	Jarayon	Xavf darajasi	Korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni kamaytirish yoki bartaraf etish choralari	Tashkilot / bo‘linma	Izoh
1.						
2.						
3.						
...						

Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatida korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni aniqlash va baholash uslubiyotiga
2-ILOVA

Jarayonlar reyestrining

NAMUNAVIY SHAKLI

T/r	Jarayon nomi	Huquqiy asos	Mas’ul tarkibiy bo‘linma va lavozim	Qaror qabul qilish bosqichlari (nuqtalari)	Mavjud nazorat	Korrupsiyaviy xavfni kamaytirish yoki bartaraf etish holati
1.						
2.						
3.						
…						

*Izoh. Davlat organlari va tashkilotlari o‘z faoliyati xususiyatiga asosan qo‘shimcha ustunlar kiritishi mumkin.

ILG5739

Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatida korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni aniqlash va baholash uslubiyotiga
3-ILOVA

Korrupsiyaga oid xavf-xatarlar xaritasining

NAMUNAVIY SHAKLI

T/r	Funksiya nomi	Jarayon	Xavf darajasi	Sabab / shubhali holat	Dalil / manba	Mavjud nazorat	Nazorat samaradorligi	Qoldiq xavf	Kamaytirish/ bartaraf etish chorasi	Mas'ullavozim	Muddat	Natija indikatori
1.												
2.												
3.												
...												

Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatida korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni aniqlash va baholash uslubiyotiga
4-ILOVA

Monitoring hisoboti

NAMUNAVIY SHAKLI

T/r	Jarayon	Qoldiq xavf darajasi	Belgilangan chora	Mas'ul	Muddat	Ijro holati	Natija indikatori	Qo'shimcha chora
1.								
2.								
3.								
...								

O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining 2026-yil 10-oktabrdagi 104-son va Adliya vazirligining 2026-yil 10-oktabrdagi 2-son qaroriga
2-ILOVA

O'z kuchini yo'qotgan deb topilayotgan idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar

RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining 2022-yil 31-avgustdagi 2-son va Adliya vazirligining 2022-yil 31-avgustdagi 5-son "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan ularning hududiy bo'linmalari, davlat muassasalari, davlat ulushi 50 foizdan yuqori tashkilotlar faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash uslubiyotini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori (ro'yxat raqami 3383, 2022-yil 31-avgust) (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 31.08.2022-y., 10/22/3383/0785-son).

2. O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining 2025-yil 11-apreldagi 7-son va Adliya vazirligining 2025-yil 22-apreldagi 3-son "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan ularning hududiy bo'linmalari, davlat unitar korxonalari va muassasalari, davlat ulushi 50 foizdan yuqori tashkilotlar faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash uslubiyotini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorga o'zgartirishlar kiritish haqida"gi qarori (ro'yxat raqami 3383-1, 2025-yil 28-aprel) (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.04.2025-y., 10/25/3383-1/0393-son).

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH AGENTLIGI DIREKTORINING
BUYRUG‘I

DAVLAT ORGANI YOKI TASHKILOTIDA MEHNAT SHARTNOMASI TUGATILGAN YOKI XIZMATDAN BO‘SHATILGAN XODIMNI O‘ZI NAZORATNI AMALGA OSHIRGAN TASHKILOTLARGA ISHGA QABUL QILISHDA KOMPLAYENS VA KORRUPSIYAGA QARSHI ICHKI NAZORAT TUZILMASIDAN XULOSA OLISH TARTIBI TO‘G‘RISIDAGI NIZOMNI TASDIQLASH HAQIDA

[O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2026-yil 8-iyulda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3894]

O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuniga hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-dekabrdagi PF-270-son “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoniga muvofiq buyuraman:

1. Davlat organi yoki tashkilotida mehnat shartnomasi tugatilgan yoki xizmatdan bo‘shatilgan xodimni o‘zi nazoratni amalga oshirgan tashkilotlarga ishga qabul qilishda komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasidan xulosa olish tartibi to‘g‘risidagi nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Mazkur buyruq O‘zbekiston Respublikasining Hisob palatasi, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Boshqaruv samaradorligi agentligi hamda O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi bilan kelishilgan.

3. Mazkur buyruq rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran uch oydan keyin kuchga kiradi.

Direktor A. BURXANOV

Toshkent sh.,
2026-yil 16-iyun,
97-son

Kelishildi:
O‘zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi raisi K. RAFIKOV
2026-yil 16-iyun
Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vaziri B. ZAXIDOV
2026-yil 15-iyun
Boshqaruv samaradorligi agentligi direktori v.b. U. XUSAINOV
2026-yil 12-iyun
Hisob palatasi raisining birinchi o‘rinbosari M. ABDULLAYEV
2026-yil 2-iyun

O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktorining 2026-yil 16-iyundagi 97-son buyrug‘iga
ILOVA

Davlat organi yoki tashkilotida mehnat shartnomasi tugatilgan yoki xizmatdan bo‘shatilgan xodimni o‘zi nazoratni amalga oshirgan tashkilotlarga ishga qabul qilishda komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasidan xulosa olish tartibi to‘g‘risidagi NIZOM

Mazkur Nizom davlat organi yoki tashkilotida mehnat shartnomasi tugatilgan yoki xizmatdan bo‘shatilgan xodimni ikki yil ichida o‘zi bevosita yoki bilvosita nazoratni amalga oshirgan tashkilotlarga yoki ularning tarkibiy bo‘linmalariga ishga qabul qilishda ushbu xodim mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshirgan tashkilotlarning komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasidan xulosa olish tartibini belgilaydi.

ILG5739

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizomning amal qilishi davlat organlariga, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlariga, davlat muassasalariga, davlat maqsadli jamg‘armalariga, shuningdek ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatlariga (bundan buyon matnda davlat organi yoki tashkiloti deb yuritiladi) nisbatan tatbiq etiladi.

Mazkur Nizom davlat organlari yoki tashkilotlarining texnik, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish xodimlarining faoliyatiga nisbatan tatbiq etilmaydi.

2. Ushbu Nizomning maqsadi davlat organlari yoki tashkilotlarida mehnat shartnomasi tugatilgan yoki xizmatdan bo‘shatilgan xodimlarning o‘zi nazoratni amalga oshirgan tashkilotlarga ishga qabul qilinishi jarayonida manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish hamda xizmat vakolatlaridan shaxsiy yoki boshqa manfaatlar yo‘lida foydalanish xavfini kamaytirishdan iborat.

3. Ushbu Nizom maqsadlarida quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

bevosita yoki bilvosita nazorat ostida bo‘lgan tashkilot — davlat organi yoki tashkilotining mansabdor shaxsi tomonidan xizmat vakolatlari doirasida bevosita yoki bilvosita nazorat qilish orqali o‘zining faoliyatiga ta’sir ko‘rsatilishi mumkin bo‘lgan tashkilot;

bevosita nazorat qilish — xodimning xizmat vakolatlari doirasida nazorat ostida bo‘lgan tashkilotni tekshirish, monitoring qilish, litsenziyalash, ruxsat berish, uning faoliyati bilan bog‘liq masalalar yuzasidan xulosa berish, moliyaviy yoki ma’muriy nazoratni amalga oshirish, shuningdek qaror qabul qilish orqali uning faoliyatiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatishi;

bilvosita nazorat qilish — xodimning xizmat vakolatlari doirasida nazorat ostida bo‘lgan tashkilotga uslubiy yordam ko‘rsatish, muvofiqlashtirish, axborot ta’minoti yoki boshqa tashkiliy-boshqaruv funksiyalari orqali uning faoliyatiga ta’sir ko‘rsatishi.

2-bob. Komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi tomonidan xulosa berish asoslari va uni olish tartibi

4. Davlat organi yoki tashkilotida mehnat shartnomasi tugatilgan yoki xizmatdan bo‘shatilgan xodimni ikki yil ichida o‘zi bevosita yoki bilvosita nazoratni amalga oshirgan tashkilotlarga yoki ularning tarkibiy bo‘linmalariga ishga qabul qilishda bevosita yoki bilvosita nazorat ostida bo‘lgan tashkilotning kadrlar bo‘linmasi ushbu xodim mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshirgan davlat organi yoki tashkilotining komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasiga xulosa olish uchun murojaat qiladi.

Bunda kadrlar bo‘linmasi xodimni ishga qabul qilish uchun uning tegishli hujjatlari qabul qilingan vaqtdan boshlab bir ish kuni ichida yozma yoki elektron shaklda murojaat qiladi.

Ishga qabul qilish tanlov asosida amalga oshirilganda, komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasining xulosasi tanlovda inobatga olinishi kerak.

Bunda komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasining xulosasi olinmagan taqdirda xodimni bevosita yoki bilvosita nazorat ostida bo‘lgan tashkilotga ishga qabul qilishga yo‘l qo‘yilmaydi.

5. Bevosita yoki bilvosita nazorat ostida bo‘lgan tashkilotning kadrlar bo‘linmasining murojaati komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi tomonidan xulosa berish uchun asos hisoblanadi.

Komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasining xulosasi mazkur Nizomning ilovasiga muvofiq shaklda tayyorlanadi.

Bunda komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasining xulosasi xodim mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshirgan davlat organi yoki tashkilotning kadrlar bo‘linmasi, kasaba uyushmasi va yuridik bo‘linmasi bilan (agar mavjud bo‘lsa) majburiy tartibda kelishiladi.

6. Komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasining xulosasi murojaat kelib tushgan kundan boshlab 7 ish kuni ichida bevosita yoki bilvosita nazorat ostida bo‘lgan tashkilotning kadrlar bo‘linmasiga yozma yoki elektron shaklda yuboriladi.

Zarur hujjatlar yoki qo‘shimcha ma’lumotlar talab etilgan taqdirda ushbu muddat 3 ish kuniga uzaytirilishi mumkin.

7. Komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi tomonidan xulosa berishda davlat organi yoki tashkilotida mehnat shartnomasi tugatilgan yoki xizmatdan bo‘shatilgan xodimni ikki yil ichida o‘zi nazoratni amalga oshirgan tashkilotga ishga qabul qilish bo‘yicha korrupsiyaviy xavf darajasi “past”, “o‘rta” va “yuqori” toifalar bo‘yicha baholanadi.

8. Quyidagi barcha holatlar mavjud bo‘lganda korrupsiyaviy xavf darajasi “past” deb baholanadi:

xodim ilgari mazkur tashkilot faoliyati ustidan bevosita yoki bilvosita nazoratni amalga oshirmagan bo‘lsa;

xodimning yangi egallashi rejalashtirilayotgan lavozimi davlat xaridlari, moliyaviy resurslarni boshqarish, litsenziyalash yoki ruxsat berish tartib-taomillari bilan bog‘liq bo‘lmasa;

xodimning faoliyati davomida manfaatlar to‘qnashuvi holatlari aniqlanmagan bo‘lsa.

9. Quyidagi holatlardan biri yoki bir nechtasi mavjud bo‘lganda korrupsiyaviy xavf darajasi “o‘rta” deb baholanadi:

xodim ishga qabul qilinayotgan tashkilot faoliyatini ilgari bilvosita nazorat qilgan bo‘lsa;

xodimning yangi egallashi rejalashtirilayotgan lavozimi davlat xaridlari, moliyaviy resurslarni boshqarish, litsenziyalash yoki ruxsat berish tartib-taomillari bilan bog‘liq bo‘lsa;

manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelish ehtimoli mavjud bo‘lib, uni tashkiliy-huquqiy choralar orqali bartaraf etish imkoniyati mavjud bo‘lsa;

xodimga nisbatan mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshirgan davlat organi yoki tashkilotida korrupsiyaviy omillar bilan bog‘liq holatlar yuzasidan xizmat tekshiruvi tayinlangan bo‘lsa.

10. Quyidagi holatlardan biri yoki bir nechtasi mavjud bo‘lganda korrupsiyaviy xavf darajasi “yuqori” deb baholanadi:

xodim ishga qabul qilinayotgan tashkilot faoliyatini ilgari bevosita nazorat qilgan bo‘lsa;

xodim davlat organi yoki tashkilotidagi faoliyati davomida korrupsiyaga oid huquqbuzarlik(lar) sodir etgan bo‘lsa;

manfaatlar to‘qnashuvi mavjud bo‘lib, uni tashkiliy-huquqiy choralar orqali bartaraf etish imkoniyati mavjud bo‘lmasa.

11. Komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi tomonidan ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha quyidagi xulosalardan biri beriladi:

ijobiy — ishga qabul qilishga rozilik berish (korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi “past” bo‘lsa);

cheklovli ijobiy — muayyan cheklovlar belgilagan holda ishga qabul qilishga rozilik berish (korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi “o‘rta” bo‘lsa);

salbiy — ishga qabul qilishni rad etish (korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi “yuqori” bo‘lsa).

12. Yangi holatlar aniqlangan yoki xodim tomonidan noto‘g‘ri ma’lumotlar taqdim etilganligi ma’lum bo‘lgan taqdirda komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi xulosani qayta ko‘rib chiqish huquqiga ega.

Davlat organlari yoki tashkilotlarining komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari berilgan xulosalarni belgilangan tartibda hisobga olinishi va saqlanishini ta’minlashi kerak.

3-bob. Komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasining xulosasi yuzasidan qabul qilinadigan choralar

13. Bevosita yoki bilvosita nazorat ostida bo‘lgan tashkilotning kadrlar bo‘linmasi komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasining xulosasi asosida quyidagilarni amalga oshiradi:

a) agar komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi xulosasi ijobiy bo‘lsa, xodimni ishga qabul qilish bo‘yicha tegishli choralarni ko‘radi;

b) agar komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasining xulosasi cheklovli ijobiy bo‘lsa, ishga qabul qilayotgan tashkilot rahbariga, xo‘jalik jamiyatlarida esa kuzatuv

kengashiga (kuzatuv kengashi mavjud bo‘lmagan hollarda tashkilot rahbariga) quyidagi choralardan biri yoki bir nechtasini amalga oshirish uchun taklif kiritadi:

xodimga uch oy muddat davomida avvalgi ish joyiga oid qarorlar qabul qilishda ishtirok etishni taqiqlash;

lavozim vazifalaridan manfaatlar to‘qnashuviga olib kelishi mumkin bo‘lgan vazifalarni chiqarib tashlash yoki vazifalar taqsimotini o‘zgartirish;

komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi tomonidan xodimning faoliyatini sinov muddati davomida monitoring qilish. Bunda monitoring jarayoni quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

faoliyati davomida ijro intizomiga rioya etilganligi;

qarorlar qabul qilish jarayoni va ularning asoslantirilganligi.

Sinov muddati qonunchilikda belgilangan tartibda belgilanadi;

d) agar komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi xulosasi salbiy bo‘lsa, xodimni ishga qabul qilishni rad etadi.

Bunda ishga qabul qilish tanlov asosida amalga oshirilayotgan bo‘lsa, komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasining ijobiy yoki cheklovli ijobiy xulosasi nomzodning tanlovda ishtirok etishi uchun cheklovlar mavjud emasligini bildiradi hamda tanlov natijalarini baholashda inobatga olinadi.

Komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasining ijobiy yoki cheklovli ijobiy xulosasi nomzodni tanlov g‘olibi deb e’tirof etish uchun yagona asos hisoblanmaydi.

14. Monitoringni amalga oshirish davomida xodim faoliyatida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar, shu jumladan manfaatlar to‘qnashuvi holatlari aniqlanganda monitoring muddati qo‘shimcha 3 oyga uzaytiriladi.

15. Monitoring muddati davomida aniqlangan huquqbuzarliklar, xato va kamchiliklar komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi tomonidan hujjatlar bilan qayd etiladi.

4-bob. Komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasining xulosasi yuzasidan shikoyat berish tartibi

16. Davlat organi yoki tashkilotida mehnat shartnomasi tugatilgan yoki xizmatdan bo‘shatilgan xodim komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasining xulosasidan norozi bo‘lsa, qonunchilikda belgilangan tartibda yuqori turuvchi tashkilotga yoki O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga shikoyat qilish huquqiga ega.

17. Shikoyat kelib tushgan vaqtdan boshlab besh ish kuni mobaynida ko‘rib chiqiladi.

Shikoyatni ko‘rib chiqishda quyidagilar inobatga olinadi:

xodimning faoliyati va yangi lavozim vazifalariga ta’sir etuvchi holatlar;

xulosa tayyorlashda qo‘llangan ma’lumot va hujjatlarning to‘g‘riligi;

manfaatlar to‘qnashuvi va xavf darajasining bahosi.

18. Ko‘rib chiqish natijasiga ko‘ra shikoyat asosli deb topilsa, komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasining xulosasi qayta ko‘rib chiqiladi va unga tegishli o‘zgartirishlar kiritiladi.

Shikoyat rad etilsa, rad etish sabablari ko‘rsatilgan holda (asoslangan dalillar bilan) shikoyat qiluvchiga yozma yoki elektron shaklda xabar beriladi.

19. Shikoyatni ko‘rib chiqish bilan bog‘liq barcha qarorlar va baholash natijalari hujjatlar bilan qayd etilishi va belgilangan tartibda saqlanishi lozim.

5-bob. Yakuniy qoidalar

20. O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalarining mazkur Nizom talablariga rioya qilish bo‘yicha faoliyatini muvofiqlashtiradi.

21. Mazkur Nizom talablarining buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo‘ladilar.

Davlat organi yoki tashkilotida mehnat shartnomasi tugatilgan yoki xizmatdan bo‘shatilgan xodimni o‘zi nazoratni amalga oshirgan tashkilotlarga ishga qabul qilishda komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasidan xulosa olish tartibi to‘g‘risidagi nizomga
ILOVA

KOMPLAYENS VA KORRUPSIYAGA QARSHI ICHKI NAZORAT TUZILMASINING XULOSASI

_____-son, “___” _____ 20__ y.

_____

_____
Nomzodning F.I.O.

I. Xodim ishga qabul qilinayotgan lavozim: _____

Avvalgi ish joyi (so‘nggi 2 yilda): _____

Tekshirish uchun asos: kadrlar bo‘linmasining murojaati _____-son, “___” _____ 20___ y.

II. Xavf darajasi va xulosa turi

Korrupsiyaviy xavf darajasi: past / o‘rta / yuqori

Xulosa turi: ijobiy / cheklovli ijobiy / salbiy

III. Qo‘shimcha izohlar _____

Komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi rahbari:
“____” _____ 20__ y _____
_____
(imzo) *(F.I.O.)*

Kelishilgan tarkibiy bo‘linmalar *(kadrlar bo‘linmasi, kasaba uyushmasi va yuridik bo‘linmasi)*:
“____” _____ 20__ y _____
_____
(imzo) *(F.I.O.)*
“____” _____ 20__ y _____
_____
(imzo) *(F.I.O.)*
“____” _____ 20___ y _____
_____
(imzo) *(F.I.O.)*